

**“Hamkorbank” ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish
shartnomasi**

Andijon 2024-yil

MUNDARIJA

- I. UMUMIY QOIDALAR
- II. ATAMALAR GLOSSARIYSI
- III. SHARTNOMA PREDMETI
- IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI
- V. KOMPLEKS SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI
- VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI
- VII. NIZOLARNI HAL QILISH
- VIII. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

KOMPLEKS SHARTNOMAGA ILOVALAR

- 1-ilova – “Ushbu kompleks shartnomaga qo‘shilish va hisob raqami(lari) ochish to‘g‘risida ariza”.
- 2-ilova – “Yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik sub`ektlarining hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari”.
- 3-ilova – “Xorijiy valyuta sotib olish va sotishning umumiy shartlari”.
- 4-ilova – “Korporativ kartalar chiqarish/emissiya qilish va ularga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari”.
- 5-ilova – “Yuridik shaxslar boshqa tadbirkorlik sub`ektlarining xodimlariga pul mablag‘lari o‘tkazishning umumiy shartlari”.
- 6-ilova – “Bank omonatlari/depozitlarini ochish, xizmat ko‘rsatish va yopishning umumiy shartlari”.
- 7-ilova – “POS terminali vositasida xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni (savdo ekvayringi) milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”.
- 8-ilova – “e-POS vositasida xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni (internet-ekvayring) milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”.
- 9-ilova – “MARTA” virtual to‘lov terminallariga xizmat ko‘rsatish va to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha umumiy shartlari”
- 10-ilova – “Mijozlar QR-kod (QR online) xizmatidan foydalanishning umumiy shartlari”
- 11-ilova – ““Hamkorbank” ATB tizimidagi masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatishning ommaviy ofertasi”.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu shartnomada “Hamkorbank” ATBning kompleks bank xizmatlari va boshqa xizmatlarini taqdim etish shartlari mavjud (keyingi o‘rinlarda “Kompleks shartnoma, shartlar/Shartnoma/kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasi/qo‘shilish Shartnomasi”). Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o‘rinlarda “O‘zR”) 360, 367, 369, 370-moddalariga muvofiq **ishlab chiqilgan** bo‘lib, “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank”) va ushbu shartlarga 1.3. bandga muvofiq qo‘shilgan yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga **tadbiq etiladi** (keyingi o‘rinlarda bunday shaxslar kontekstga muvofiq “Mijoz”, “Karta saqlovchisi”, “Kirituvchi” va boshqalar deb nomlanishi mumkin).

1.2. Kompleks shartlar Bank tomonidan belgilangan va bankning internet tarmog‘idagi <https://hamkorbank.uz/> WEB-saytida yoki davriy nashrlarda **chop etilgan** va bankning barcha Filiallari, bank xizmatlari ofislari va bo‘limlarida (amaliyot zallarida) joylashtirilgan.

1.3. Kompleks shartlar Bankning barcha Mijozlari uchun **yagona** bo‘lib, faqatgina Mijoz tomonidan u so‘zsiz rozi bo‘lgan Kompleks shartlarga to‘liq hajmda qo‘shilish yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin. Mijoz tomonidan Kompleks shartlarni qabul qilish (Shartnomaga qo‘shilish) bir necha usullar bilan amalga oshiriladi, jumladan, lekin shu bilan cheklanmagan holda: Mijoz tomonidan jalb etiladigan bank mahsulotlari/xizmatlarining turlari bo‘yicha tegishli Arizalarni (keyingi o‘rinlarda “Ariza”, “Ariza-oferta”) Bank tomonidan belgilangan shakllarda berish va uni Bank tomonidan qabul qilish va/yoki bank bilan kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasi doirasida umumiy shartlarni imzolash orqali – shundan so‘ng qo‘shilish shartlari Bank va Mijoz o‘rtasida muqarrar tuzilgan deb hisoblanadi. Shartnomaga qo‘shilish, shuningdek Mijozni MBXX tizimi saytida ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan ham amalga oshiriladi. Agar ushbu shartnomaning biror-bir qoidasi tegishli Umumiy shartlar bilan o‘rnatilgan qoidalariga zid bo‘lsa, Umumiy shartlar bilan o‘rnatilgan qoidalar qo‘llaniladi (tegishli ilovalarga qarang).

1.4. **Umumiy shartlarga ilova qilingan arizada (arizalarda)** Bank tomonidan mijoz arizani to‘ldiradigan sanaga taklif qilinadigan **bank xizmatlari va mahsulotlarining barcha turlari mavjud**. Mijoz o‘zi uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va mahsulotlarni tanlaydi; Bankka bunday xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etish bo‘yicha bitimlar tuzishni taklif qiladi (ofertani arizaga tegishli belgilarni qo‘yish yo‘li bilan yuboradi), Bank esa Mijozning ofertalarini qabul qiladi, bu esa kelgusida Bank tomonidan belgilangan shakl bo‘yicha bankning Mijoz bilan birgalikda tegishli hujjatlarni (shartnomalarni) imzolashlari bilan tasdiqlanadi.

1.5. **Bank** Mijozning arizada ko‘rsatilgan ofertalarini qabul qilingunga qadar Mijozga xizmatlar **taqdim etish** va uning oldida majburiyatlarni bajarishga **majbur emas**, shunday qilib, Bank Mijozning ofertalarini o‘z tanloviga ko‘ra, o‘zining ichki me‘yoriy hujjatlari (keyingi o‘rinlarda – IMH) talablari va Bankning Shartnoma tuzilgan sanada amalda bo‘lgan Tariflariga (keyingi o‘rinlarda – “Tariflar”) muvofiq qabul qiladi va mazkur qabul qilish bilan Bank Mijozga tegishli bank xizmatlari va/yoki mahsulotlarini taqdim etishga o‘z roziligini bildiradi.

1.6. Kompleks shartlar, shuningdek ular ko‘rsatilgan ilovalar, arizalar, shartnomalarning shakllari/namunalari, kelishuvlar va boshqa hujjatlar **yagona huquqiy hujjatni** tashkil etadi va ular bir-birining ajralmas qismidir. Shartnoma doirasida Bank tomonidan xizmatlar ko‘rsatish va bank mahsulotlarini taqdim etish ixtiyoriy asosda, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, Bankning IMH va Tariflariga muvofiq; Kompleks shartlarga rioya qilgan holda va Bank tomonidan belgilangan shakllarda qog‘oz va/yoki elektron tashuvchilardagi hujjatlarni Taraflar tomonidan imzolagan holda amalga oshirilishiga Bank va Mijoz mutlaqo rozidirlar.

1.7. Bank mijozning ofertasini (ofertalarini) qabul qilgan taqdirda, Bank va Mijoz (keyingi o‘rinlarda birgalikda “Taraflar”, har biri alohida esa “Taraf” yoki “Bank” va “Mijoz” deb ataladi) tomonidan imzolanadigan barcha hujjatlar, jumladan elektron tashuvchilar orqali yuborilgan hujjatlar ham O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 107-moddasi va elektron tijorat qoidolari doirasida, ya‘ni **yozma shaklda** rasmiylashtirilgan hisoblanadi. Ushbu Shartnoma tuzilganidan so‘ng, Shartnomaning ushbu bobining qoidalariga muvofiq, Taraflar huquqlarga ega bo‘ladilar, barcha tegishli majburiyatlarni o‘z zimmlariga oladilar, shuningdek ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga,

Kompleks shartlar va Taraflar tomonidan imzolanadigan boshqa hujjatlarga muvofiq javobgar bo'ladilar.

1.8. Kompleks shartlarga qo'shilgan mijoz Bankning o'zi va Mijozlarining jinoiy harakatlar va pullarni yuvish mexanizmlarida, jumladan jinoiy yo'l bilan olingan pullarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, firibgarlik, korrupsiya va shu kabilarning oldini olish bo'yicha faol ish olib borayotganini tan oladi va bunga rozi bo'ladi. Bank faoliyati komplekslari Bankning imidjini saqlashga va himoya qilishga, shuningdek, Mijozlarning Bankning halolligiga nisbatan ishonchini yo'qotishning oldini olishga qaratilgan. Shu munosabat bilan Bank o'z **ixtiyoriga ko'ra** Bank Mijozlariga va ular tomonidan amalga oshiriladigan bitimlar/amaliyotlar/pul to'lovlari/o'tkazmalar bo'yicha **muayyan talablarni belgilaydi**, ushbu talablar davriy ravishda o'zgarib turishi mumkin. Agar ushbu bitimlar/amaliyotlar/pul to'lovlari/o'tkazmalar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va/yoki IMH talablariga javob bermasa, Bank o'z xizmatlarini/mahsulotlarini **taqdim etishni** rad etish va/yoki imzolab bo'lingan shartnomalarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnomalarni **bekor qilish huquqiga ega**. Shu munosabat bilan Mijoz Kompleks shartlarga qo'shilayotganda Bankning Mijozga xizmatlar ko'rsatishni/mahsulotlar taqdim etishni rad etish huquqini ushbu rad etish munosabati bilan Bankka e'tirozlar bildirmagan holda so'zsiz tasdiqlaydi.

2. ATAMALAR GLOSSARIYSI

2.1. **Autentifikatsiya ma'lumotlari** — mijozning kirish kodlari, noyob logini (login), paroli (password)/biometrik ma'lumotlari, hamda foydalanuvchining ma'lumotlarini va uning bankning kirish va amaliyotlarni amalga oshirish, jumladan, Internet-bank, Internet bank va/yoki internet tarmog'idagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, shuningdek, mobil aloqa kanallari orqali karta yordamida amalga oshirish uchun foydalaniladigan hisoblash-axborot tizimlari bilan ishlash bo'yicha huquqlarini tasdiqlash imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar.

Bank – “Hamkorbank” ATB, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 85-uy, Markaziy bankning 2021-yil 25-dekabrda 64-raqamli litsenziyasi.

Bankomat — Shartnoma bo'yicha naqd pul mablag'larini avtomatlashtirilgan (Bankning vakolatli shaxsi yoki Hamkorning ishtirokisiz) tarzda, jumladan Karta yoki Mobil Bankdan foydalangan holda shakllantirilgan noyob QR-koddan foydalangan holda, shuningdek, Shartnoma bo'yicha boshqa amaliyotlarni bajarish vositasida, Bankda texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda yechib olish va to'ldirish uchun mo'ljallangan dasturiy-texnik kompleks.

Mijozning benefitsiar mulkdori — mijozni qonunchilikda belgilangan ta'sis hujjatlari (nizom va/yoki ta'sis shartnomasi, qoidalar) asosida, mulk va boshqaruvning xususiyatlariga muvofiq nazorat qiluvchi shaxs;

Omonat — omonat shartnomasiga muvofiq, Bank va Mijoz o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustamalar bilan yoki ularsiz qaytarish shartlarida Mijoz tomonidan milliy yoki xorijiy valyutada Bankka qo'yiladigan pul mablag'lari summasi.

Masofaviy xizmat ko'rsatish — autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda mijozning amaliyotlarni amalga oshirish uchun farmoyishlarini shakllantirish va ijro etish va/yoki buyurtmalarini ishlash va/yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha Mijozning telefon orqali Bankning aloqa markaziga qo'ng'iroq qilishi va/yoki tegishli harakatlarni Bankning Internet tarmog'idagi veb-sayti va/yoki Internet-Bank va/yoki Mobil Bank, SMS-Banking va/yoki xizmat ko'rsatishning boshqa kanallari (jumladan elektron pochta) va/yoki uyali aloqa kanallari, jumladan SMS-xabarlar orqali ma'lumotlarni taqdim etish.

Shartnoma — agar o'zgacha tarzda ko'rsatilmagan bo'lsa, quyidagi shartnomalarning bir turi:

– **hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasi** — Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatish hamda Korporativ kartalarni chiqarish, xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlarida nazarda tutilgan hisobraqam va/yoki (agar qo'llashning imkoni bo'lsa) bank hisobraqamining alohida turini ochish, yuritish va yopish Shartnomasi, ushbu shartnoma ajralmas tarkibiy qismlar sifatida

Talabnoma, Tariflar, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oladi;

– **xorijiy valyutani sotib olish va sotish shartnomasi** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan ichki bozorda xorijiy valyutani sotib olish va sotish shartnomasi, ushbu shartnoma tegishli Talabnoma, Tariflar va xorijiy valyutaning oldi-sotdisini amalga oshirishning umumiy shartlarini o'z ichiga oladi;

– **omonat/depozit shartnomasi** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan bank omonatlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopish to'g'risidagi shartnoma, ushbu shartnoma tegishli Talabnoma, Tariflar va bank omonatlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oladi;

– **korporativ bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasi** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan korporativ bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish shartnomasi, ushbu shartnoma tegishli Talabnoma, Tariflar va korporativ bank kartasini chiqarish, xizmat ko'rsatish va yopishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oladi;

– **ish haqi loyihasi shartnomasi** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan pul mablag'larini xodimlarning karta hisobraqamlariga o'tkazish shartnomasi, ushbu shartnoma tegishli Talabnoma, Tariflar va Mijozning xodimlariga pul mablag'larini o'tkazishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oladi;

– **elektron to'lovlarni bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ishlash bo'yicha shartnoma** (POS yoki e-POS terminal vositasida) – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan POS yoki e-POS terminalini taqdim etish to'g'risidagi, ajralmas tarkibiy qismlar sifatida Talabnomalar, Tariflar va POS terminaliga xizmat ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilishning Umumiy shartlarini yoki e-POS terminali vositasida to'lovlarni milliy valyutada (internet ekvayring) qabul qilishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oluvchi shartnoma;

– **MARTA virtual to'lov terminallari xizmat ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilish hamda va QR onlayn xizmatlari bo'yicha shartnoma** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan MARTA virtual to'lov terminallari va QR onlayn xizmatlari orqali to'lovlarni qabul qilish bo'yicha tegishli ilovalar, tariflar va umumiy shartlarni ajralmas qismlar sifatida o'z ichiga olgan (MARTA terminali va QR onlayn xizmati) shartnoma

– **kompleks shartnoma** – Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan "Hamkorbank" ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasi, ushbu shartnoma ajralmas tarkibiy qismlar sifatida Umumiy shartlar va kompleks shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani o'z ichiga oladi.

– **talabnoma** – Mijozning Bankka yo'llangan, mijozning Bank bilan Shartnoma tuzish maqsadi va tegishli Shartnomaning barcha muhim shartlari mavjud bo'lgan taklifi (ofertasi, arizasi);

– **kompleks shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza** – Mijozning Bankka yo'llangan, Mijozning Bank bilan kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasini tuzish maqsadi, shuningdek Umumiy shartlar doirasida alohida Shartnoma (Shartnomalar) tuzish uchun Talabnoma va Mijozni Bank talablari va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lgan yozma taklifi (oferta);

– **identifikatsiya** — mijozlarni lozim darajada tekshirish maqsadida mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ular taqdim etgan hujjatlar, ochiq manbalar va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash;

– **Internet-bank/Mobil bank** — Bank xizmatlariga internet tarmog'iga kirish imkoniyati bo'lgan har qanday qurilma orqali masofadan turib kirish, ushbu amaliyot Bankning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va Mijoz o'rtasida interaktiv hamkorlikni amalga oshirish, jumladan ma'lumot almashish, hisobraqam holatining o'zgarishi bilan bog'liq amaliyotlarni amalga oshirish va internet tarmog'i orqali Bankdan ma'lumot olish imkonini beradi;

– **mijoz** — O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan, Umumiy shartlarga muvofiq belgilangan tartibda Bank bilan Kompleks shartnoma va hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

- **kirish kodlari** — Mijoz bankka murojaat qilganda uni masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali identifikatsiya qilish imkonini beruvchi PIN-kod, raqamli va/yoki harfli va/yoki grafik kodlar;
- **komission mukofot (Komissiya)** — bank tomonidan hisobraqamdan xizmatlar uchun hisobdan chiqariladigan to'lov yoki hisobraqamdagi mablag'lar yetarli bo'lmagan taqdirda Bankning Mijozga bo'lgan talabi sifatida qo'yiladigan to'lov. Hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan komissiyalar hisobraqamdan mablag'larni hisobdan chiqarish bo'yicha birinchi amaliyot amalga oshirilgan sanadan e'tiboran undiriladi;
- **komprometatsiya qilish** — Autentifikatsiya ma'lumotlarining yo'qotilishi, Autentifikatsiya ma'lumotlarining yo'qolganligiga gumon qilish yoki uchinchi shaxslarning Autentifikatsiya ma'lumotlariga yetib borganligiga gumon qilish;
- **korporativ karta (Karta)** — Korporativ bank kartasini chiqarish va xizmat ko'rsatish Shartnomasi doirasida chiqarilgan, uning saqlovchisiga hisobraqamdagi qoldiq mablag'lar doirasida va/yoki hisobraqamda mablag'lar yetishmagan yoki yo'q bo'lgan taqdirda Bank tomonidan berilgan Kredit doirasida pul mablag'larini tasarruf etish imkoniyatini beruvchi bank kartasi, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Shartnoma, To'lov tizimlari qoidalari va/yoki Bankning ichki hujjatlari bilan boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa;
- **umumiy shartlar** — Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari, shuningdek korporativ kartalarni chiqarish va xizmat ko'rsatish tartibi, pul mablag'larini yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga o'tkazishning umumiy shartlari, Bank omonatlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning umumiy shartlari, Kompleks shartnomaning ilovalari bo'lgan Pos va e-Pos terminallar vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni milliy valyutada qabul qilishning (internet-ekvayring) umumiy shartlari;
- **amaliyot kuni (amaliyot vaqti)** — Bank tomonidan belgilangan, ish kunining Bank mijozlarning topshiriqlarini qabul qiladigan va bajaradigan qismi. Amaliyot vaqti to'g'risidagi ma'lumot Bankning internet tarmog'idagi saytida joylashtiriladi;
- **mijozni lozim darajada tekshirish** — mijozning va uning nomidan ish olib borayotgan shaxslarning shaxsini va vakolatlarini tekshirish, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash, shuningdek mijozlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishbilarmonlik munosabatlari va amaliyotlarni ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida doimiy ravishda o'rganish. Mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar Bankka taqdim etilgan sanada haqiqiy bo'lishi lozim;
- **PIN-kod** — Bank tomonidan har bir Kartaga beriladigan yoki Mijoz tomonidan Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali mustaqil ravishda tayinlanadigan va bankomatlarda, terminallarda kartadan foydalangan holda amaliyotlarni o'tkazishda mijozni identifikatsiyalash/autentifikatsiyalash/avtorizatsiyalash uchun xizmat qiladigan raqamli shaxsiy identifikatsiya raqami. PIN-kodni tayinlash usuli Bank va/yoki To'lov tizimi tomonidan belgilanadi;
- **to'lov tizimi (TT)** – o'z ishtirokchilari uchun yagona standartlar, o'zaro munosabatlar qoidalarini o'rnatuvchi va hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasida pul oqimlarining harakatini ta'minlaydigan moliyaviy institutlar majmui, ya'ni Yagona umumrespublika protsessing markazi (YAUPM) va/yoki Milliy banklararo protsessing markazi (Humo) va/yoki Visa International va/yoki boshqa to'lov tizimlari;
- **topshiriq** — Mijozning hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq amaliyot o'tkazish uchun farmoyishi;
- **hisobraqam (hisobvaraq)** – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, Bankning ichki hujjatlari va hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasi bilan belgilanadigan Mijozning bank (hisobraqam) hisobvarag'i, amaliyotlar ro'yxati, shuningdek hisob-kitoblarni tartibi va shakllari;
- **tizim** – Bankning ixtisoslashtirilgan apparat-dasturiy kompleksi, ya'ni Bankning mijozlari uchun masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning barcha kanallari, ushbu tizim o'tkazmalarni internet tarmog'idan foydalangan holda amalga oshirishda Bank, To'lovchi, Mijoz, Merchant, Emitent va

hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni ta'minlaydi (ABS, mobil ilova, veb-platforma va boshqalar);

– **xabar** – Shartnoma doirasida Mijoz tomonidan bankka taqdim etilgan identifikator bo'yicha xabarlar xizmatlari, Bankning mobil ilovalari yoki Abonent qurilmasining boshqa imkoniyatlaridan, jumladan push-xabarnomalardan foydalangan holda uzatiladigan ma'lumotlar;

– **omonat hisobvarag'i** – Mijoz tomonidan shartnoma shartlariga muvofiq joylashtirilgan milliy yoki xorijiy valyutadagi mablag'lar hisobga olinadigan hisobvara;

– **tarif rejasi** — Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlanadigan, foizlar, komissiyalar, to'lovlar va jarimalarning miqdori va ularni qo'llash, hisob-kitob qilish, undirish va hisoblash qoidalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va tegishli Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan hujjat.

– **tariflar** — Kompleks shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Tarif rejalarining majmui.

– **TSOYAEAT** - Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi

– **elektron raqamli imzo** — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ushbu Kompleks shartnoma doirasida Bank Mijozga Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalar tuzish imkoniyatini taqdim etadi.

3.2. Quyidagi ilovalar ushbu Kompleks shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi, jumladan, biroq bular bilan cheklanmagan holda:

1-ilova – «Ushbu kompleks shartnomaga qo'shilish va hisob raqami(lari) ochish to'g'risida ariza».

2-ilova – “Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisob raqamlariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari”.

3-ilova – “Xorijiy valyuta sotib olish va sotishning umumiy shartlari”.

4-ilova – “Korporativ kartalar chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari”.

5-ilova – “Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga pul mablag'lari o'tkazishning umumiy shartlari”.

6-ilova – “Bank omonatlari/depozitlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning umumiy shartlari”.

7-ilova – “POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni (savdo ekvayringi) milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”.

8-ilova – “e-POS vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni (internet-ekvayring) milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”.

9-ilova – “MARTA” virtual to'lov terminallariga xizmat ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilish bo'yicha umumiy shartlari”

10-ilova – “Mijozlar QR-kod (QR online) xizmatidan foydalanishning umumiy shartlari”

11-ilova – ““Hamkorbank” ATB tizimidagi masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning ommaviy ofertasi”.

3.3. Kompleks shartnoma Bankning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Mijozning Kompleks shartnoma shartlari, jumladan, Kompleks shartnomaning matniga kiritilayotgan o'zgartirishlar/qo'shimchalar bilan tanishish payti deb ma'lumotlar e'lon qilingan va/yoki xizmatlar olingan vaqt hisoblanadi. Mijozlarni Kompleks shartnoma va Tariflar bilan tanishtirish maqsadida Bank Kompleks shartnoma matnini va Tariflarni (Tarif rejalarini) Bankning

internetdagi www.hamkorbank.uz saytida e'lon qiladi. Bunda bank Tariflarni (Tarif rejalarini) Mijozlarning Internet-Bank/Mobil Bankdagi shaxsiy kabinetlarida ham joylashtirishi mumkin. Qo'shimcha ravishda Bank mijozlarni ularga ma'lumotlarni olish va ularni Bankdan chiqayotganligini aniqlash imkonini beruvchi boshqa usullar bilan xabardor qilishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni e'lon qilish sanasi deb ularning Bankning internetdagi www.hamkorbank.uz saytida birinchi marta joylashtirish sanasi hisoblanadi. Agar mazkur kompleks shartnomaning o'zbek va rus tillaridagi matnlari o'rtasida kolliziya va/yoki tafovvt vujudga kelgan taqdirda, mazkur kompleks shartnomaning o'zbek tilidagi matni ustun hisoblanadi va qo'llaniladi.

3.4. Kompleks shartnoma Bank tomonidan Kompleks shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi ariza tarkibidagi talabnomada mavjud bo'lgan ofertani qabul qilish yo'li bilan tuziladi. Mijozga hisobraqamini ochish ofertani qabul qilish hisoblanadi, agar Kompleks shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa. Ofertani bir nechta Shartnoma tuzish uchun qo'shish to'g'risidagi Ariza tarkibida talabnoma mavjud bo'lgan taqdirda Bank tomonidan tegishli talabnomaning (ofertaning) birinchi qabul qilinishi Kompleks shartnomani tuzish payti hisoblanadi.

3.5. Qo'shilish to'g'risidagi arizani va talabnomani imzolar ekan, Mijoz o'z roziligini va kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasining mazmuni, Tariflar, shuningdek, xizmat ko'rsatish qoidalari, tartibi va narxlar bilan tanishganligini tasdiqlaydi, ularni ko'rsatish shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qiladi, shuningdek, Umumiy shartlar Mijoz uchun og'ir bo'lgan shartlarni o'z ichiga olmaganligi faktini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga qo'shilish to'g'risidagi arizani (talabnomani) imzolar ekan, mijoz amaldagi qonunchilik va/yoki Mijozning ta'sis hujjatlariga muvofiq davlat organlari va yuridik shaxsning boshqaruv organlarining zarur bo'lgan barcha roziliklarini, ruxsatnomalarini va/yoki ma'qulloqlarini olganligini, shuningdek, faoliyat yuritish va o'tkaziladigan amaliyotlar uchun tegishli litsenziyalar va ruxsatnomalarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

3.6. Tuzib bo'lingan kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasi doirasida alohida Shartnomalar tuzish uchun Mijoz jumladan, Masofaviy xizmat ko'rsatuvchi kanallar orqali Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki elektron raqamli imzolardan foydalangan holda, ushbu shartnoma bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan talabnomani Bankka taqdim etadi. Talabnomani rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan Bankka va/yoki Bankning vakiliga, jumladan Bankning aloqa markaziga autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki ERI kalitini kiritish va/yoki taqdim etish (xabar berish) Mijoz tomonidan tegishli Umumiy shartlarda bayon etilganidek kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasini tuzish uchun Bankka oferta taqdim etilishini anglatadi.

3.7. Bank mijozni **identifikatsiyalash natijasida olingan ma'lumotlar**, jumladan Bankka Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar **asosida** mijozga xizmatlar taqdim etish to'g'risida qaror qabul qiladi, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa. Bunda Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashga haqli.

3.8. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va ichki qoidalarga muvofiq, bank yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasini tuzishni rad etishga haqlidir.

3.9. Tuzib bo'lingan Kompleks shartnoma doirasida alohida Shartnomalar tuzish uchun Mijoz jumladan, Masofaviy xizmat ko'rsatuvchi kanallar orqali Autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki elektron raqamli imzolardan foydalangan holda, Kompleks shartnoma bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan talabnomani Bankka taqdim etadi. Talabnomani rasmiylashtirishda Mijoz tomonidan Bankka va/yoki Bankning vakiliga, jumladan Bankning aloqa markaziga autentifikatsiya ma'lumotlari va/yoki ERI kalitini kiritish va/yoki taqdim etish (xabar berish) Mijoz tomonidan tegishli Umumiy shartlarda bayon etilganidek Kompleks shartnomani tuzish uchun Bankka oferta taqdim etilishini anglatadi.

3.10. Bank mijozni identifikatsiyalash natijasida olingan ma'lumotlar, jumladan Bankka Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida mijozga xizmatlar taqdim etish to'g'risida qaror qabul qiladi, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa. Bunda Bank Mijozdan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashga haqli.

3.11. Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani va barcha zarur hujjatlarni taqdim etish mijozning vakolatli shaxsi (shaxslari) tomonidan amalga oshiriladi.

3.12. Bankda ochilgan hisobraqamdagi, omonat/depozit hisobvarag'idagi pul mablag'larini tasarruf etish Mijozning Internet-Bank/Mobil Bank yoki boshqa masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yuborilgan hisob-kitob hujjatlari asosida, faqat o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosining analogi, jumladan, lekin shu bilan cheklanmagan holda, Mijozning vakolatli shaxsining ERI'dan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bank Mijozning o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosining analogi bilan imzolangan, hisobraqam, omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirish to'g'risidagi farmoyishlarini qabul qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli (jumladan, Internet-Bank/Mobil Bank va/yoki boshqa kanal orqali hisobraqam, omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirishning texnik imkoniyati bo'lmagan taqdirda). Bunday holda Mijoz lozim darajada tuzilgan va tasdiqlangan imzolar va muhr izlari namunalari bo'lgan kartochkani Bankka taqdim etishi shart. Mijozning hisob-kitob hujjatlarini imzolash huquqiga Mijozning hisobraqamidagi, omonat hisobvarag'idagi pul mablag'larini tasarruf etish uchun lozim darajada vakolat berilgan, Mijoz tomonidan taqdim etilgan, ularning imzolarining namunalari imzolar va muhr izlari namunalari bo'lgan kartochkada ko'rsatilgan xodimlari/vakillari ega bo'ladilar. Bundan tashqari, Bank mijozdan qo'shimcha ma'lumotlar va/yoki hujjatlarni so'rab olishga haqli.

3.13. Kompleks shartnomani tuzish bilan Mijoz Bankka Bankning Mijozning Bankda ochilgan barcha bank hisobraqamlariga nisbatan Mijozning Kompleks shartnoma va/yoki Shartnomalar bo'yicha qarzdorligidan oshmaydigan summada, ko'rsatilgan qarzdorlikni so'ndirish maqsadida farmoyishlarni bajarish uchun aksept taqdim etadi.

3.14. Bank Mijozga Kompleks shartnoma va/yoki Shartnomalar bilan bog'liq ma'lumotlarni, jumladan ko'chirmalarni yozma shaklda yoki **Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari** orqali yuboradi. Bunda Mijoz Bankka yuborilgan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning yetishi mumkinligi bilan bog'liq barcha xavflarni o'z zimmasiga oladi. Mijoz Kompleks shartnoma doirasida Bank tomonidan ma'lumotlarni taqdim etishning biror-bir muayyan usuli yoki usullaridan Bankdan ma'lumot olishning hech bo'lmaganda bitta axborot kanalini saqlab qolish sharti bilan voz kechishga haqlidir.

3.15. **Mijoz ma'lumot olishning barcha usullaridan** voz kechgan taqdirda bank javobgar bo'lmaydi. Mijoz tomonidan belgilangan ma'lumot olish kanallari/usullari bo'yicha mijoz yetib bo'lmaydigan/yo'q bo'lgan taqdirda bank javobgar bo'lmaydi.

Bank tomonidan ushbu Kompleks shartnomaning 3.9-bandida ko'rsatilgan har qanday usulda yuborilgan xabarnoma, xabar, so'rov, ko'rsatma, talab va boshqa hujjatning olinmay qolish xavfi, jumladan Bank tomonidan yuborilgan xabarnoma, xabar, so'rov, ko'rsatma, talab va boshqa hujjatning bajarilmasligi bilan bog'liq huquqiy oqibatlar mijozning zimmasiga yuklatiladi. Mijozning vakolatli shaxsining ERI bilan imzolangan Hujjat, bunday shaxs tomonidan qog'oz tashuvchidagi o'z qo'li bilan imzolangan Hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'lib, ko'rsatilgan Hujjat uchun nazarda tutilgan huquqiy oqibatlarga olib keladi. Hujjatda Mijozning vakolatli shaxsining ERIning mavjudligi Hujjat Mijozning vakolatli shaxsi tomonidan yuborilganligi va imzolanganligini anglatadi, bunday hujjatda mavjud bo'lgan ma'lumotlar haqiqiy, ishonchli va Mijozning vakolatli shaxsining o'z qo'li bilan imzolangan qog'oz tashuvchidagi hujjatga teng deb hisoblanadi.

3.16. Tariflar ajralmas qismi bo'lgan **har bir Shartnoma uchun** Mijoz tomonidan mustaqil ravishda tanlab olinadigan va bankka yozma ravishda yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali taqdim etiladigan **Tarif rejasi** qo'llaniladi.

3.17. Mijoz tomonidan ushbu Kompleks shartnomaning 3.13-bandiga muvofiq aksept taqdim etilganda, Mijozning va Bankning farmoyishlarini bajarish maqsadida Bank hisob-kitob (to'lov) hujjatlarini rasmiylashtiradi, mijoz esa Bankka tegishli vakolatlarni beradi. Ilgari berilgan akseptni qaytarib olish Mijozning Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yoki shaxsan yuborgan yozma arizasiga ko'ra amalga oshiriladi.

3.18. Mijoz ushbu orqali Bankka Bankning barcha talablari **akseptini** bunday talablar summasida, jumladan **Hisobraqamdan**, omonat hisobvarag'idan pul mablag'larini Bank taqdim etgan miqdorda (oldindan berilgan aksept) **hisobdan chiqarishga akseptni** taqdim etadi, chunonchi:

a) Bank Tariflari va xizmat ko'rsatish sanasidagi Kompleks shartnoma bilan belgilangan miqdorda xizmatlar taqdim etganlik uchun **komissiyalar** (komission mukofot va/yoki Bankning Mijozga xizmat ko'rsatishi bilan bog'liq boshqa xarajatlar);

b) Kompleks shartnomaning shartlari bilan nazarda tutilgan **neustoykalar**;

s) **noto'g'ri** hisoblangan summalar, ortiqcha to'langan foizlar, hamda Mijozning bankka to'lashi/qaytarishi lozim bo'lgan boshqa pul mablag'lari;

d) Mijozning Bank bilan Mijoz o'rtasida tuzilgan va/yoki yangitdan tuzilayotgan boshqa Shartnomalar bo'yicha, bunday Shartnomalarda nazarda tutilgan miqdorda, tartibda va shartlardagi **muddati o'tgan qarzdorlik** summasi, Mijozning Bankda ochilgan har qanday hisobraqamlaridan, jumladan, ko'rsatilgan Shartnomalarda tegishli summalarni Mijozning Kompleks shartnomaning ushbu bandiga muvofiq aksepti asosida to'lash imkoniyati nazarda tutilmagan bo'lsa.

3.19. Agar Bankning ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'lovni bekor qilish bo'yicha harakatlari Tariflarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq bo'lsa, Mijoz Bankka bunday xarajatlarni qoplab berishi shart. Ushbu bilan Mijoz Bankka ushbu xarajatlar summasini oldindan berilgan aksept tartibida Mijozning hisobraqamidan hisobdan chiqarishni topshiradi.

3.20. Bank tomonidan xato sodir etilgan taqdirda so'rovlar, rekvizitlarni o'zgartirish, to'lovni bekor qilish va takroriy ijro bo'yicha barcha xarajatlar Bankning o'z hisobidan amalga oshiriladi.

3.21. Xatoli to'lov rekvizitlari oqibatida yoki to'lovni bekor qilish to'g'risidagi so'rov bo'yicha Mijozning ijro etilgan to'lovlari bo'yicha qaytarilgan mablag'lar Bank tomonidan olingan summada hisobraqamiga qaytariladi.

4. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ushbu Kompleks Shartnomaning 4-bo'limida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar bilan bir qatorda, Bank va Mijoz ushbu Shartnomaning ilovalarida keltirilgan tegishli Umumiy shartlar bilan belgilangan huquq va majburiyatlarga ham egadirlar.

4.1. Bankning majburiyatlari

4.1.1. Mijoz bilan bog'liq har qanday ma'lumotning maxfiyligini ta'minlash. Bunda Bank har qanday bunday ma'lumotni vakolatli organlarga amaldagi qonunchilikka muvofiq oshkor etishga haqli.

4.1.2. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4.2. Mijozning majburiyatlari

4.2.1. Bankka, jumladan Bankning so'roviga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish va funksiyalarni amalga oshirish uchun Bankka zarur bo'lgan ishonchli ma'lumotlar va hujjatlarni, jumladan pul mablag'lari bilan bog'liq amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlarni, o'tkazilgan pul mablag'larini olishning asosililigini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek Mijozga, foyda oluvchiga va/yoki ularni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslarga nisbatan ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish.

4.2.2. Bankka Mijoz (vakolatli shaxslar) bilan bog'lanish uchun ishonchli ma'lumotlarni, shuningdek, taraflarning ushbu kompleks shartnomani bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar, jumladan: o'z nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, internet-sayt manzili, hamda rekvizitlardagi boshqa o'zgarishlar to'g'risida yangilangan ma'lumotlarni zudlik bilan taqdim etish. Bankning Mijozga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Kompleks shartnomada nazarda tutilgan xabarnomalarni yuborish bo'yicha majburiyati xabarnomalarni Bankda Mijoz bilan bog'lanish uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga muvofiq yuborilganda bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2.3. Mijoz tomonidan Kompleks shartnoma doirasida Kompleks shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizada va jismoniy shaxslar haqidagi boshqa hujjatlarda shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining talablariga rioya qilish. Mijoz Kompleks shartnomani bajarish maqsadida, shuningdek Mijozga va/yoki ko'rsatilgan jismoniy shaxslarga Bankning boshqa mahsulotlarini/xizmatlarini taqdim etish maqsadida, Bankka o'zi taqdim etgan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini ishlashni topshiradi. Bunda mijoz o'zi ko'rsatgan jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini Mijoz va Bank tomonidan ishlashga olingan rozilik talablarini buzganligining oqibatlarini, jumladan mulkiy xarakterdagi oqibatlar uchun, hamda ma'lumotlar ko'rsatilgan shaxslarga "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining talablariga muvofiq yetkazilishi uchun javobgar bo'ladi.

4.2.4. Autentifikatsiya ma'lumotlarining xavfsiz saqlanishini, elektron raqamli imzoning maxfiylikni ta'minlash, xususan, ularning uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik, Autentifikatsiya ma'lumotlari, elektron raqamli imzolarga yetib borishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish. Maxfiylikning buzilishi to'g'risida Bankni zudlik bilan xabardor qilish.

4.2.5. Pullarni yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarish uchun Bankning talabiga ko'ra ko'maklashish va ma'lumotlarni taqdim etish.

4.2.6. Bank oldidagi qarzdorlikni so'ndirish.

4.2.7. Bankning tegishli xabarnomasini olgan kundan boshlab ikkinchi ish kunidan kechiktirmasdan Sotish kontraktlari (5000 (besh ming) AQSH dollarigacha bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) Internet jahon axborot tarmog'idagi onlayn do'konlar orqali eksport qilish bundan mustasno) doirasida kelib tushgan mablag'lar bo'yicha barcha zaruriy ma'lumotlarni Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi TSOYAEATga kiritish.

4.3. Bank quyidagilarga haqlidir:

4.3.1. Mijozni, Mijozning vakilini, manfaat oluvchini, Benefitsiar mulkdorni identifikatsiya qilishda va ular haqidagi ma'lumotlarni yangilashda Mijozdan, Mijozning vakilidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida, Kompleks shartnomada nazarda tutilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni talab qilish va olish.

4.3.2. Kompleks shartnoma tuzish va uni bajarish uchun Mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish, jumladan uchinchi shaxslarni jalb qilgan holda. Ushbu bilan Mijoz o'ziga nisbatan uchinchi shaxslardan, jumladan soliq organlari, statistika organlari, kredit byurolari va boshqalardan ma'lumotlarni olishga rozilik beradi.

4.3.3. Kompleks shartnoma bilan belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb etish.

4.3.4. Shartnomalarni tuzishda, shuningdek, Mijozning Bankka boshqa murojaat qilishida kuzatish, suratga olish, audio va videoyozuvni amalga oshirish, jumladan telefondagi suhbatlarni yozib olish, Mijoz (uning vakillarini) bu haqda xabardor qilgan holda ham, xabardor qilmasdan ham. Bank bunday yozuvlarni Mijoz bilan munosabatlar to'xtatilgan kundan e'tiboran 5 (besh) yil davomida saqlashiga, shuningdek, Kompleks shartnoma va/yoki Shartnomalar bilan bog'liq har qanday tergov o'tkazishda ulardan foydalanishga haqli ekanligiga Mijoz rozilik beradi.

4.3.5. Mijozdan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va Kompleks shartnomada (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarda) nazarda tutilgan hollarda hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab olish, jumladan Mijozning soliq rezidentligi haqida, Benefitsiar mulkdorlar va ularni bevosita yoki bilvosita nazorat qiluvchi shaxslar to'g'risida, pul mablag'lari bilan o'tkazilgan amaliyotlar to'g'risida, bank bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatish maqsadlari va uning taxminiy xarakteri, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining maqsadlari, moliyaviy holati, ishbilarmonlik obro'si, Mijozning pul mablag'lari va (yoki) boshqa mol-mulk manbalari to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni va/yoki o'tkazilgan pul mablag'larining asosililigini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni so'rab olish.

4.3.6. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida, shuningdek, ushbu Kompleks shartnoma va/yoki Bankning ichki

hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, har qanday shaxsga Kompleks shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani/talabnomani ko'rib chiqishni rad etish huquqini o'zida saqlab qolish.

4.3.7. Mijoz bilan Kompleks shartnomani O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Bankning ichki hujjatlariga muvofiq bekor qilish.

4.3.8. Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq mijozning hujjatlar taqdim etilmagan amaliyotlarini bajarishni rad etish.

4.3.9. Xato bilan o'tkazilgan amaliyotlarni Mijozni xabardor qilmagan holda bekor qilish.

4.3.10. Xato bilan o'tkazilgan amaliyotlarni bekor qilishda ushbu amaliyotni ishlash sanasidan to uning bekor qilinishiga qadar bo'lgan davr uchun foizlarni (Tariflarda shartlar mavjud bo'lgan taqdirda) hisoblamaslik.

4.3.11. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga rioya qilish, jumladan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida Bank tomonidan so'ralgan hujjatlar va ma'lumotlarni Mijoz Bankka taqdim etmagan taqdirda Korporativ kartani bloklash va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalanishni cheklash.

4.3.12. Bank mijozning o'zining mijozi ekanligi haqida global internet tarmog'ida va boshqa qonuniy yo'llar bilan, jumladan: taqdimotlar, broshyuralar, bukletlar va varaqalarda tarqatish/joylashtirish yo'li bilan mijozning tovar belgilari/xizmat ko'rsatish belgilari, firma nomi va boshqa belgilaridan foydalanish huquqiga ega.

4.3.13. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida mijozdan uni identifikatsiya qilishga imkon beruvchi va hisob raqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.

Bank quyidagilarni aniqlagan kunda Kompleks shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama bosh tortish:

- Korporativ kartani, Hisobvaraqlari va boshqa Hisobvaraqlar amaliyotlari bo'yicha jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanishga oid asosli gumonlar aniqlangan kunda;

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida kartalar orqali shubhali (gumonli) operatsiyalarni qayta amalga oshirish yoki asosli shubha mavjud bo'lganda;

4.3.14. To'lov rekvizitlarini ko'rsatishda Mijoz va/yoki uchinchi shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik aniqlanganda yoki Mijoz tomonidan hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida o'rnatilgan talablar buzilgan taqdirda mijozning farmoyishini bir tomonlama bajarmaslik.

4.3.15. Kompleks shartnomani (boshqa Shartnomalarni) tuzishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish uchun ekanligiga shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda qonunchilik talablari asosida Kompleks shartnomani (boshqa Shartnomalar) tuzishni bir tomonlama tartibda rad etish.

4.3.16. Bankda amaliyot jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilayotganligiga shubha tug'ilgan taqdirda (jismoniy shaxsning hisobraqamiga kelib tushgan pul mablag'larini o'tkazish amaliyoti bundan mustasno) Mijozning amaliyotni amalga oshirish to'g'risidagi topshirig'ini bajarishni qonunchilik talablari asosida bir tomonlama rad etish.

4.3.17. Shubhali va/yoki gumonli amaliyotlarni Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali amalga oshirish xavfini kamaytirish maqsadida, bir tomonlama tartibda:

- shubhali amaliyotlar amalga oshirilgan masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmatlarni taqdim etishni uch kunlik muddatga yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa muddatga to'xtatish;

- mijoz tomonidan masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali amaliyotlar aniqlangan taqdirda Mijoz amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligiga yozma tushuntirish bergunga qadar Mijozga masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali xizmatlar ko‘rsatishni to‘xtatish yoki rad etish;
- masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali amaliyotlarga gumon bo‘lgan taqdirda Mijozni uning manzili bo‘yicha o‘rganish, jumladan Mijoz tomonidan bevosita amaliyotlarni amalga oshirish jarayonini o‘rganish;
- Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini moliyalashtirish maqsadida foydalanishga asosli shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda Kompleks shartnomani bajarishdan to‘liq yoki qisman voz kechish.

4.3.18. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida Mijozning tegishli amaliyotlarini (hisobraqamga kelib tushgan pul mablag‘larini o‘tkazish amaliyotlari bundan mustasno) bir tomonlama to‘xtatish yoki mijozning hisobraqamidagi (hisobraqamlaridagi) pul mablag‘larini bloklash (muzlatish).

4.3.19. Tegishli amaliyotlarni amalga oshirish uchun Mijozda litsenziyalar/guvohnomalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar talab qilingan taqdirda, bunday hujjatlarning amal qilish muddati tugagan kundan keyingi kunda, Mijoz tomonidan muddati o‘tgan hujjatlarning o‘rniga yangi ruxsat beruvchi hujjatlar taqdim etilgunga qadar ayrim amaliyotlarni amalga oshirish uchun (topshiriqlarni bajarishni rad etish) kirishni bir tomonlama tartibda bloklash.

4.3.20. Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini moliyalashtirish maqsadida foydalanishga asosli shubhalar mavjud bo‘lgan taqdirda, qonun hujjatlarida va ushbu Kompleks shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda Kompleks shartnomani to‘liq yoki qisman bajarishdan bir tomonlama tartibda bosh tortish.

4.3.21. Eksport shartnomalari doirasida kelib tushgan mablag‘lar mijozni xabardor qilingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi TSOYAEATga ma’lumotlar kiritilmaganda va identifikatsiya raqami olinmagan taqdirda mablag‘ni jo‘natuvchiga qaytarib yuborish xuquqiga ega. Bunda 5000 (besh ming) AQSH dollarigacha bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) Internet jahon axborot tarmog‘idagi onlayn do‘konlar orqali eksport qilish mustasno.

4.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

4.4.1. Mijoz shartlariga qo‘shilgan Kompleks shartnoma asosida keyingi hisobraqamlarni ochish va/yoki Bankning boshqa mahsulotlari uchun Talabnoma qoldirish, tegishli Talabnomani Internet-Bank/Mobil Bank va/yoki boshqa Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallaridan foydalangan holda yuborish.

4.4.2. Bankka murojaat qilib Autentifikatsiya ma’lumotlarini o‘zgartirish.

4.4.3. Qo‘shimcha xizmatlarni ulash/uzib qo‘yish (Bankda bunday xizmatlar mavjud bo‘lgan taqdirda), byelgilangan Tarif rejalari doirasida kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartlarini tanlash yoki Tarif rejasi doirasida ulangan xizmatlardan voz kechish.

4.5. Kompleks shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida Taraflar va ularning xodimlari qonunchilikda korrupsion deb malakalanadigan hatti-harakatlarni, jumladan, pora bermaydilar, pora olmaydilar, pora olish-berishda vositachilik qilmaydilar, mansabini yoki vakolatlarini suiiste‘mol qilmaydilar, tijoratda og‘dirib olishni amalga oshirmaydilar, biror-bir pul mablag‘ini to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va to‘lashga ruxsat bermaydilar, qimmatbaho buyumlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita, jumladan sovg‘alar, huquqlar, xizmatlar va mol-mulk shaklida istalgan shaxslarga ularning harakatlariga yoki qarorlariga ta’sir o‘tkazish uchun, o‘zlari yoki uchinchi shaxslar uchun biror-bir g‘ayriqonuniy afzalliklar va foyda olish maqsadida yoki boshqa g‘ayriqonuniy maqsadda bermaydilar.

5. KOMPLEKS SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari va/yoki To'lov tizimlari qoidalarining o'zgarishi va/yoki Bank tomonidan yangi mahsulotlar/xizmatlar taqdim etilishi va/yoki Bankning xohishiga ko'ra bank mahsulotlarini taqdim etish texnologiyasining o'zgarishi munosabati bilan Bankning Umumiy shartlar va Bank Tariflariga muvofiq Kompleks shartnomaga, jumladan Kompleks shartnomaning ilovalariga va alohida Shartnomalarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqiga ega ekanligi to'g'risida kelishib oldilar.

5.2. Kompleks Shartnoma/Bank Tariflariga kiritilgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kuchga kirgandan keyin Mijozning amaliyotlarni amalga oshirishi/Talabnoma berishi Mijozning o'zgartirilgan va/yoki to'ldirilgan Kompleks Shartnomaga roziligining qo'shimcha tasdig'i hisoblanadi.

5.3. Bank Mijozga Kompleks shartnoma, Kompleks shartnomaning ilovalari ("Umumiy shartlar") va Bank Tariflarining yangi (o'zgartirilgan) tahriri to'g'risidagi xabarnomani o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirishidan **kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin** yuborish yo'li bilan **o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritadi**, amaldagi qonunchilikning o'zgarishi yoki yangi bank mahsuloti joriy etilishi yoki Bankning nomi yoki yuridik/pochta manzili o'zgarishi bilan taqozolangan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish hollari bundan mustasno, bunda xabardor qilish muddati kamida 1 (bir) kalendar kunni tashkil etadi, quyidagi usullarning istalgani bilan (Bankning tanloviga ko'ra):

a) Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali, jumladan tegishli elektron xabarnoma yuborish yo'li bilan;

b) tegishli e'lonni va Kompleks shartnomaning (o'zgartirishlar/qo'shimchalar) yangi tahririni Bankning www.hamkorbank.uz saytida joylashtirish yo'li bilan.

5.4. Kompleks shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarning kuchga kirish sanasiga qadar Bank **mijozdan Kompleks shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ariza olmagan taqdirda** ushbu holat mijozning kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq roziligi hisoblanadi. Bunda Kompleks shartnomani o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritish to'g'risidagi bitimning yozma shakli elektron tijorat qoidalarining va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasining shartlariga rioya etilganligini anglatadi.

5.5. Kompleks shartnomaga (Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarga) kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, jumladan Bank tomonidan tasdiqlangan Kompleks shartnoma, Umumiy shartlar va/yoki Tariflarning yangi tahriri kuchga kirgan sanadan e'tiboran Kompleks shartnomaga, Umumiy shartlarga, jumladan Kompleks shartnomaga, Umumiy shartlarga **o'zgartirishlar kuchga kirgan sanadan ilgari** qo'shilgan barcha shaxslarga teng ravishda tatbiq etiladi.

5.6. Mijoz Kompleks shartnomani **istalgan vaqtda**, suddan tashqari tartibda, jumladan, mijoz Kompleks shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlarga rozi bo'lmaganligi sababli, **bir tomonlama** tartibda bekor qilishga **haqlidir**.

5.7. Kompleks shartnomaning bekor qilinishi Mijozning Bankda ochilgan Hisobraqamini (hisobraqamlarini), hisobvarag'ini (hisobvaraqlarini), jumladan Korporativ kartaga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan hisobraqamlarni **yopish uchun asos** hisoblanadi.

5.8. **Kompleks shartnomani** bekor qilish uchun **mijoz Bankka** Kompleks shartnomani bekor qilish to'g'risidagi **arizani** oddiy elektron xabar shaklida, Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali yoki yozma ariza orqali **yuboradi**. Mijoz Kompleks shartnomani bekor qilish to'g'risida arizani yuboradigan kuni u shuningdek Bankka Mijozning vakolatli shaxsining elektron raqamli imzosini o'z ichiga olgan, Bankda ochilgan barcha hisobraqamlarni, omonat hisobvaraqlarini yopish to'g'risidagi arizani, shuningdek Korporativ kartalarga xizmat ko'rsatish uchun ochilgan hisobraqamlarni yopish to'g'risidagi arizani yuboradi. Bankda yuqorida ko'rsatilgan arizalar Mijozdan emasligi haqida shubha bo'lgan taqdirda Bank bu haqda so'rov qilishga haqli, mijoz esa arizalarni Bank ofisiga qog'oz tashuvchida taqdim etishi shart. Mijozning korporativ kartalari

Bank tomonidan bloklanadi va Bank tomonidan Kompleks shartnomani bekor qilish to'g'risidagi ariza olingan sanada haqiqiy emas deb e'lon qilinadi.

5.9. Kompleks shartnomaning amal qilishi Mijozning **oxirgi hisobraqami yopilgan paytda** to'xtaydi. Mijozning so'nggi hisobraqamini yopish paytida Mijozda Kompleks shartnoma bo'yicha Bank oldidagi so'ndirilmagan qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda Kompleks shartnomaning amal qilishi mijoz bunday qarzdorlikni to'liq to'laganidan keyin to'xtatiladi. Shartnoma bekor qilingan va/yoki hisobraqam yopilgan taqdirda Mijoz tomonidan xizmatlar uchun oldindan to'langan Komissiyalar Bank tomonidan qaytarilmaydi.

5.10. Bank quyidagi hollarda Kompleks shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqlidir, Mijoz esa bunga o'z roziligini beradi:

a) Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanishga asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda. Bunday holda Kompleks shartnoma Bank tomonidan Mijozga Kompleks shartnomani Bankning tashabbusi bilan bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma yuborilgan kundan e'tiboran 3 (uch) kalendar kun o'tgach bekor qilingan hisoblanadi;

b) 12 (o'n ikki) kalendar oy mobaynida hisobraqamda pul mablag'lari bo'lmagan va/yoki hisobraqam bo'yicha amaliyotlar bo'lmagan va/yoki hisobraqamda Tariflarga muvofiq muntazam to'lovlarni to'lash uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda Bank Kompleks shartnomani bekor qilishga haqli. Bunda Bank Mijozga Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali ogohlantirish yuborgan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kalendar kun o'tgach Kompleks shartnoma bekor qilingan, hisobraqam esa yopilgan hisoblanadi, agar Mijoz yuqorida ko'rsatilgan muddatda Qarzdorlikni so'ndirish uchun hisobraqamga yetarli hajmdagi pul mablag'larini kiritmasa va/yoki hisobraqam bo'yicha hech bo'lmaganda bitta amaliyotni amalga oshirmasa;

e) Rasmiy axborot resurslar, jumladan cheklanmagan holda vakolatli davlat organlarining axborot resurslarida (<https://fo.birdarcha.uz/>, <https://registr.stat.uz/> va hokazolar) mijoz holati "tugatilgan", "faol emas" vahokazolarga o'tganda.s) ushbu Kompleks shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi ilovalarda **ko'rsatilgan Umumiy shartlarda** belgilangan boshqa hollarda.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar Kompleks shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik (lozim darajada bajarmaganlik) uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini uchun to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar, agar bajarmaganlik yengib bo'lmas kuch, ya'ni Kompleks shartnoma kuchga kirgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlar oqibatida yuz bergan bo'lsa. Yengib bo'lmas kuch holatlarining ta'sirini Taraflar vakolatli organlarning hujjatlari bilan tasdiqlashlari kerak. Taraflar yengib bo'lmas kuch holatlarining boshlanganligi haqida ko'rsatib o'tilgan hodisalar yuz berganidan so'ng 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay bir-birlarini xabardor qilish majburiyatini oladilar.

6.3. Quyidagilar yengib bo'lmas kuch holatlariga tegishlidir: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchiliklar va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamallar, davlat manfaatlari yo'lida import va eksportga ta'qiqlar va boshqalar) bilan chaqirilgan, ushbu sharoitlarda favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan, Taraflarning xohishiga va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, ushbular munosabati bilan ular qabul qilingan majburiyatlarni bajara olmaydigan holatlar.

7. NIZOLARNI HAL ETISH

7.1. Mijoz va Bankning o'rtasida Kompleks Shartnoma yoki uning munosabati bilan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar va e'tiroz xatlarini yuborish yo'li bilan hal etiladi. Agar Umumiy shartlarga muvofiq alohida Shartnomalarda boshqacha tartib va muddat belgilanmagan bo'lsa, e'tiroz xatini olgan taraf uni olgan sanadan e'tiboran 7 (yetti) kun ichida asoslantirilgan javobni yuborishi shart.

7.2. Kompleks Shartnoma yoki uning munosabati bilan, jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, bajarilishi, buzilishi, bekor qilinishi, to'xtatilishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi yoki ta'minotning (to'liq va/yoki qisman) talab qilinishidan kelib chiqadigan nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volarni tinch yo'l bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, ular da'vogarning hohishiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining tegishli tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

8. MAXFIYLIK

8.1. Taraflar ushbu Kompleks shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun asoslangan zarur bo'lgan ma'lumotlarni almashadilar. Bir Taraf ikkinchi Tarafga taqdim etadigan, ushbu Kompleks shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlar bilan cheklangan yetib borish (olish) tartibi nazarda tutilgan ma'lumotlar yoki ma'lumotni taqdim etayotgan Taraf boshqa Tarafni ushbu ma'lumotlarning maxfiy ekanligi to'g'risida aniq ravishda xabardor qilgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanadi va "Maxfiy ma'lumotlar" deb talqin qilinadi.

Maxfiy ma'lumotlarga jumladan, quyidagilar kiradi: shaxsiy ma'lumotlar va tijorat, kasb, xizmat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa turdagi sirlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, to'lov amaliyotlarining amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, axborot, telekommunikatsiya va to'lov tizimlarini sozlash uchun boshqaruvchi ma'lumotlar. Maxfiy Ma'lumot unga ruxsatsiz yetib borishdan himoya qilinishi, uning yaxlitligi, saqlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlanishi lozim.

8.2. Oluvchi Taraf Maxfiy ma'lumotni yoki uning bir qismini oshkor qilganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar u quyidagilarni isbotlay olsa: bunday Maxfiy ma'lumot u olingan vaqtda hammaning mulki bo'lgan bo'lsa yoki oqibatda Oluvchining aybisiz hammaga ma'lum bo'lgan bo'lsa, Oluvchi Tarafga ma'lum bo'lgan yoki olingunga qadar uning tasarrufida bo'lganda, Oluvchi Tarafga beruvchi Taraf bo'lmagan manbadan ma'lum bo'lib qolganda, Maxfiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash majburiyatlari buzilmagan taqdirda.

8.3. Maxfiy ma'lumotni ushbu Kompleks shartnomaga muvofiq, bunday ma'lumotni taqdim etuvchi tarafning ("beruvchi taraf") oldindan roziligini olmagan holda Oluvchi taraf ("Oluvchi taraf") Maxfiy ma'lumotlarning biror-bir qismini ushbu shartda nazarda tutilmagan maqsadlar uchun ishlatmaydi, Maxfiy ma'lumotlar yoki uning bir qismini Oluvchi tarafning (shuningdek, subpudratchilarning) xodimlari va maslahatchilariga mansub bo'lmagan biror-bir shaxslarga yoki tashkilotlarga taqdim etmaydi, Oluvchi tarafning (shuningdek, subpudratchilarning) xodimlari va maslahatchilari ushbu shartda nazarda tutilgan maqsadlar uchun Maxfiy ma'lumotlarga asoslangan yetib borishga ega bo'lgan, Maxfiy ma'lumotning saqlanishini ta'minlagan va Maxfiy ma'lumotdan huquqqa xilof ravishda foydalanishga yo'l qo'ymagan taqdirda.

8.4. Agar Oluvchi Taraf qonun bo'yicha biror-bir Maxfiy Ma'lumotni qonunchilik bilan vakolat berilgan va Maxfiy Ma'lumotning oshkor etilishini talab qiluvchi davlat hokimiyati organlariga oshkor qilishi shart bo'lsa, bunday Taraf bu haqda Beruvchi Tarafni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishi shart. Bunda, Beruvchi Taraf lozim darajada xabardor qilgan taqdirda, Maxfiy Ma'lumotni ushbu bandga muvofiq oshkor etadigan Oluvchi Taraf o'zining Maxfiy Ma'lumotni oshkor qilmaslik to'g'risidagi majburiyatlarini buzgan deb hisoblanmaydi. Bunday oshkor qilingan taqdirda, Oluvchi Taraf Maxfiy Ma'lumotni himoya qilish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'radi.

8.5. Maxfiy ma'lumot Beruvchi Tarafning mulki bo'lib qoladi va oxirgisining talabiga ko'ra u unga ushbu Kompleks shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlar uchun kerak bo'lmay qolgandan so'ng bunday Tarafga darhol qaytarilishi shart yoki Oluvchi Taraf tomonidan yoki ushbu bo'limning qoidalariga muvofiq Oluvchi Taraf tomonidan taqdim etilgan boshqa birorta Taraf tomonidan barcha nusxalari bilan birga yo'q qilinadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mijoz pul mablag'larini boshqa kredit tashkilotlaridan naqd pulsiz o'tkazgan taqdirda ushbu mablag'larning kelib tushishidagi Bankning aybi bo'lmagan kechikishlar bilan bog'liq barcha

xavflarni Mijoz o'z zimmasiga oladi. Ushbu bilan Mijoz Bankda uchinchi shaxslardan pul mablag'larining kelib tushishini nazorat qilish yoki tartibga solish imkoniyati yo'qligini tushunadi va bunga rozi bo'ladi.

9.2. Kompleks shartnomaning (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarning) o'zgarishi yoki bekor qilinishi Mijozni va/yoki Bankni Kompleks shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalar) bo'yicha bunday o'zgarish yoki bekor qilish paytiga qadar yuzaga kelgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

9.3. Kompleks shartnoma (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalar) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq talqin qilinishi lozim. Kompleks shartnomaning (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarning) biror-bir qoidasi noqonuniy, haqiqiy emas yoki O'zbekiston Respublikasining qo'llaniladigan har qanday qonunchiligi bo'yicha sud himoyasidan foydalanmaydigan bo'lib qolsa, Kompleks shartnomaning (Umumiy shartlarga muvofiq alohida shartnomalarning) bunday qoidalari Bank va Mijozning o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qo'llanilmaydi.

Kompleks shartnomaning (Umumiy shartlariga muvofiq alohida Shartnomalarning) qolgan qoidalari kuchini va haqiqiylikini to'laligicha saqlab qoladi.

9.4. Bundan keyin Taraflar ushbu Kompleks shartnoma bo'yicha yuzaga keladigan masalalar bo'yicha o'zaro aloqani quyidagi aloqa kanallari bo'yicha amalga oshirish majburiyatini oladilar:

- Mijozning aloqa kanallari: ushbu Kompleks shartnomaning 1-ilovasini to'ldirishda ko'rsatiladigan ma'lumotlar;

- Bankning aloqa kanallari: ushbu kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasining 10-bobida ko'rsatilgan rekvizitlar.

10. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

To'liq nomi: Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki.

Markaziy bankning 2021-yil 25-dekabrdagi 64-sonli litsenziyasi.

Yuridik manzil: 170183, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 66-uy.

E-mail: @hamkorbank.uz

Bank rekvizitlari:

STIR: 200242936

Telefonlar: 0 (800) 1 200 200; 1809 (pullik), +998 (78) 150 91 25.

"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga

ARIZA

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari"ga muvofiq "Hamkorbank" ATB (keyingi o'rinlarda - "Bank") tizimida hisobvaraqlar) ochish uchun Yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmati ko'rsatish shartnomasiga qo'shilish to'g'risida. 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalarida nazarda tutilgan tartibda bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan "Hamkorbank" ATB tizimidagi yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmati ko'rsatish shartnomasiga (keyingi o'rinlarda "Kompleks shartnoma") qo'shilishim to'g'risida MA'LUM QILAMAN.									
Yuridik shaxs / Yakka tartibdagi tadbirkorlarning nomi									
Yuridik shaxs STIRi / Yakka tartibdagi tadbirkorning JSHIRi									
Yuridik shaxs/ Yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat ko'rsatish manzili									
Yuridik shaxs telefon raqamlari		Ishchi telefon raqam:							
		Mobil telefon raqam:							
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam valyutasi	☐ So'm 20208000	☐ AQSH dollar 20208840	☐ Yevro 20208978	☐ Rubl 20208643	☐ Boshqa(turini yozing)				
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam	☐ Uzcard terminal uchun 23510 0 dona	☐ Humo terminal uchun 23510 0 dona	☐ Marta uchun 23510 0 dona	☐ QR-kod uchun 23520 0 dona	☐ KPK uchun 23102/4 0 dona	☐ Ish haqqi uchun 23106 0 dona			
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam shakli	☐ Asosiy	☐ Ikkilamchi	☐ Boshqa (turi ni yozing):						
Befitsiar mulkdorlar haqida ma'lumotlar (Benefitsiar mulkdor — yakuniy holatda 10 % dan yuqori mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs)	FISH:			Tug'ilgan sanasi	Fuqaroligi	Pasport seriya va raqami			
	1.								
	2.								
	3.								
									
Benefitsiar mulkdorlarning / Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yuqori mansabdor shaxslar toifasiga yoki ularning oilasiga mansubligi, yuqori mansabdor shaxsning yaqin shaxsi ekanligi	FISH:			Fuqaroligi	Mansabi	Qarindoshligi, Aloqasi			
	1.								
	2.								
	3.								
	...								
Yuqori mansabdor shaxslarga aloqadorligi mavjud emas.									
Hisobraqam orqali bajarilishi rejalashtirilayotgan bir oylik taxminiy aylanma summasi	So'm	AQSH dollari	Yevro	Rubl	Boshqalar:				
Hisobraqamga kelib tushadigan asosiy mablag'lar turi									
Hisobraqamdan to'lanadigan mablag'larning asosiy turi (maqsadi)									
2) Bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Kompleks shartnomaning barcha qoidalar/shartlari (shu jumladan, ularning barcha ilovalari va qo'shimchalarini, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi, Bankning mas'uliyati va tariflari) menga ma'lum va to'liq tushuntirilganini TASDIQLAYMAN , shu asosda:									
Tarifga ulanishni:	☐ "Lutf"	☐ "Chegarasiz	☐ "Barqaror"	☐ "Oson"	☐ Boshqalar:				
Boshqa shartlar:									
Tizimga qo'shimcha xizmatlarni ulash uchun so'rovlar:	☐ Uzcard terminal 0 dona	☐ Humo terminal 0 dona	☐ Marta 0 dona	☐ QR-kod 0 dona	☐ KPK 0 dona	☐ Ish haqqi 0 dona			
	☐ Internet banking	☐ Mobil banking	☐ SMS banking (tel.ga.)						
x/r			x/r			x/r			

Hisobraqamingizga masofaviy xizmat ko'rsatishda bank xodimlari sizni aniqlashlari mumkin bo'lgan kirish kodini ko'rsating: *Lotin yozuvida bosh harflarda soni 10 ta harfdan oshmasligi kerak. Raqamlar va belgilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.			
3) Ushbu bilan Mijoz Bankka quyidagilarni taqdim etadi: - ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni Bankning amaldagi tariflariga muvofiq qo'shimcha farmoyishlarsiz (akseptsiz) Mijozning Bankda ochilgan hisobvarag'idan yechib olish huquqi; - mijoz tomonidan tanlangan bank/moliya xizmatlarini ko'rsatishda uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish, shuningdek, ularni uchinchi shaxslarga ("Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi" MChJ, "Milliy banklararo protsessing markazi" MChJ, kredit tarixi byurosi, DSQ va Bank hamkorlarining boshqa integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalariga) qayta ishlash uchun berish huquqi;			
Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan bank hisobraqami ochib berishingizni so'raymiz.	Bininchi imzo: _____		
	Ikkinchi imzo: _____		
	Muxr: _____	Kompleks shartnomani yuklab olish uchun QR-kod:	
Hisobraqam ochish bo'yicha hujjatlarni tekshirdim, qabul qildim va hisobraqam ochish uchun taqdim qildim.	Menejer: _____	Imzo: _____	

"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga

ARIZA

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishning "Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlari"ga muvofiq "Hamkorbank" ATB (keyingi o'rnlarda - "Bank") tizimida hisobvaraq(lar) ochish uchun Yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmati ko'rsatish shartnomasiga qo'shilish to'g'risida. 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalarida nazarda tutilgan tartibda bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan "Hamkorbank" ATB tizimidagi yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmati ko'rsatish shartnomasiga (keyingi o'rnlarda "Kompleks shartnoma") qo'shilish to'g'risida MA'LUM QILAMAN.							
Yuridik shaxs / Yakka tartibdagi tadbirkorlarning nomi							
Yuridik shaxs STIRi / Yakka tartibdagi tadbirkorning JSHIRi							
Yuridik shaxs/ Yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyat ko'rsatish manzili							
Yuridik shaxs telefon raqamlari		Ishchi telefon raqam:					
		Mobil telefon raqam:					
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam valyutasi	☐ So'm 20208000	☐ AQSH dollar 20208840	☐ Yevro 20208978	☐ Rubl 20208643	Boshqa (turini yozing):		
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam	☐ Uzcard terminal uchun 23510 0 dona	☐ Humo terminal uchun 23510 0 dona	☐ Marta uchun 23510 0 dona	☐ QR-kod uchun 23520 0 dona	☐ KPK uchun 23102/4 0 dona	☐ Ish haqqi uchun 23106 0 dona	
Ochilishi lozim bo'lgan hisobraqam shakli	☐ Asosiy	☐ Ikkilamchi	☐ Boshqa(turi ni yozing):				
2) Bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Kompleks shartnomaning barcha qoidalari/shartlari (shu jumladan, ularning barcha ilovalari va qo'shimchalarini, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi, ma'lumotlarni e'lon qilish tartibi, Bankning mas'uliyati va tariflari) menga ma'lum va to'liq tushuntirilganini TASDIQLAYMAN , shu asosda:							
Tarifga ulanishni:	☐ "Lutf"	☐ Chegarasiz	☐ Barqaror	☐ "Oson"	☐ Boshqalar:		
Boshqa shartlar:							
Tizimga qo'shimcha xizmatlarni ulash uchun so'rovlar:	☐ Uzcard terminal 0 dona	☐ Humo terminal 0 dona	☐ Marta 0 dona	☐ QR-kod 0 dona	☐ KPK 0 dona	☐ Ish haqqi 0 dona	
	☐ Internet banking	☐ Mobil banking	☐ SMS banking (tel.ga.)				
	x/r		x/r		x/r		
Hisobraqamingizga masofaviy xizmat ko'rsatishda bank xodimlari sizni aniqlashlari mumkin bo'lgan kirish kodini ko'rsating: *Lotin yozuvida bosh harflarda soni 10 ta harfdan oshmasligi kerak. Raqamlar va belgilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.							
3) Ushbu bilan Mijoz Bankka quyidagilarni taqdim etadi: • ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni Bankning amaldagi tariflariga muvofiq qo'shimcha farmoyishlarsiz (akseptsiz) Mijozning Bankda ochilgan hisobvarag'idan yechib olish huquqi; • mijoz tomonidan tanlangan bank/moliya xizmatlarini ko'rsatishda uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish, shuningdek, ularni uchinchi shaxslarga ("Yagona Umumrespublika Protessing Markazi" MChJ, "Milliy banklararo protessing markazi" MChJ, kredit tarixi byurosi, DSQ va Bank hamkorlarining boshqa integratsiyalashgan ma'lumotlar bazalariga) qayta ishlash uchun berish huquqi							
4) "Bank va Mijoz o'rtasida amaldagi mavjud shartnomalarni Fuqarolik kodeksining 382-moddasiga muvofiq taraflarning o'zaro kelishuviga binoan bekor qilish maqsadida Fuqarolik kodeksining 367-moddasi (Oferta) muvofiq Mijoz Bankka rasmiy oferta sifatida yuboradi. Bank Kompleks Bank xizmati shartlarini qabul (aksept) qilishi bilan mazkur Ofertaga asosan taraflar o'rtasidagi ilgari tuzilgan shartnoma ikki tarafning kelishuviga binoan bekor qilingan hisoblanadi hamda kelgusidagi munosabatlar Kompleks Bank xizmatlatiga asosan amalga oshiriladi".							
Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan bank hisobraqami ochib berishingizni so'raymiz.	Bininchi imzo: _____						
	Ikkinchi imzo: _____						
	Muxr:		Kompleks shartnomani yuklab olish uchun QR-kod:				
Hisobraqam ochish bo'yicha hujjatlarni tekshirdim, qabul qildim va hisobraqam ochish uchun taqdim qildim.	Menejer: _____		Imzo: _____				

“Hamkorbank» ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmatlari ko‘rsatish shartnomasiga

“Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari”

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

- 1.1. **Korxona** – yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.
- 1.2. **Avtomatlashtirilgan depozit apparati** (bundan keyin “ADM” deb nomlanadi) – “Hamkorbank” ATBning tegishli bo‘linmalari va savdo nuqtalariga tegishli bo‘lgan, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini ularning hisobraqamlariga mijozning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan amaliyot orqali avtomatik ravishda kirituvchi qurilma.

2. ASOSIY QOIDALAR

- 2.1. Ushbu yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisobraqamlariga xizmat ko‘rsatishning umumiy shartlari (bundan keyin “Umumiy shartlar”) Bank tomonidan belgilangan bo‘lib, Mijozlarning hisobraqamlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi, ushbu masalada Mijoz va Bank (keyingi o‘rinlarda birgalikda “Taraflar”) o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Umumiy shartlar bank tomonidan qabul qilingan hisobraqamni ochish uchun berilgan talabnoma bilan birgalikda hisob-kitob xizmat ko‘rsatish shartnomasi tuziladi. Ushbu munosabat bilan mazkur ilovaning kontekstida ushbu Umumiy shartlar/**Hisob-kitob xizmat ko‘rsatish shartnomasi** kontekstdan kelib chiqib Shartnoma/Umumiy shartlar deb atalishi mumkin.
- 2.2. Bank Mijozlarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari va Kompleks shartnomaning shartlariga muvofiq xizmat ko‘rsatadi.
- 2.3. Mijozga xizmat ko‘rsatish majburiyati Bankda Hisob-kitob xizmat ko‘rsatish shartnomasi tuzilgan paytdan e‘tiboran yuzaga keladi.
- 2.4. Bank mijozga Bank tomonidan ishlab chiqilgan shakl bo‘yicha tegishli talabnoma asosida tuzilgan va Mijoz tomonidan Internet-bank/Mobil bankdagi shaxsiy kabinet funksionali yoki boshqa Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanali orqali, jumladan Mijozning Kompleks shartnoma tuzish uchun barcha zarur hujjatlarni Bankka taqdim etgan taqdirda mijozga hisobraqam ochishi mumkin.
- 2.5. Mijoz bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan zarur tarif rejasini tanlaydi va o‘zining tanlovini talabnomada aks ettiradi (ushbu Kompleks shartnomaning 1-ilovasi). Bunda, mijoz tarif rejasini o‘zgartirish istagini bildirgan taqdirda, mijoz bank tomonidan belgilangan shakldagi talabnomani yuborishi kerak.
- 2.6. Mijozga operatsion kun davomida xizmat ko‘rsatiladi.
- 2.7. Hisobraqam bilan amalga oshiriladigan har qanday harakatlar faqatgina mijoz tomonidan lozim darajada vakolat berilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan hisoblanadi.
- 2.8. Bank mijozning rozilgisiz pul mablag‘larini o‘tkazish alomatlarini aniqlagan taqdirda hisobraqam bo‘yicha amaliyotlarni 2 (ikki) ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga to‘xtatib qo‘yishga haqlidir, shuningdek, Mijozdan zudlik bilan uning farmoyishini ijro etishni qayta tiklashni o‘ziga imkoniy bo‘lgan istalgan usulda, jumladan Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali so‘rab oladi.
- 2.9. Ushbu badda nazarda tutilgan muddat o‘tishi bilan yoki Mijozdan ko‘rsatilgan tasdiqlovni olgandan so‘ng Bank Mijozning va/yoki Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallarining farmoyishini ijro etishni tiklaydi.

- 2.10. Hujjatlar Mijoz tomonidan noaniq, chala yoki ochiq-ravshan qilib rasmiylashtirilmagan taqdirda Bank ushlanib qolishlar, xatolar va hujjatlarni noto'g'ri tushunganlik uchun javobgar bo'lmaydi.
- 2.11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo'riqnomalariga muvofiq xorijiy valyutadagi depozit hisobraqam ochilgan taqdirda, Mijozga bir vaqtning o'zida xorijiy valyutadagi tranzit hisobraqam ochiladi.
- 2.12. Bank mijozga yoki uning ishonchli vakiliga amaliyotlarning bajarilishidan kelib chiqib hisobraqamdan ko'chirmalar va boshqa zarur hujjatlarni taqdim etadi. Mijoz noto'g'ri o'tkazilgan va/yoki hisobdan chiqarilgan pul mablag'lari ko'rsatilgan yozma arizani hisobraqamdan ko'chirma olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) kun ichida Bankka taqdim etmasa, amaliyotlar va hisobraqamdagi pul mablag'larining qoldig'i tasdiqlangan deb hisoblanadi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 3.1.1. Mijoz hisob-kitob amaliyotlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni bankka taqdim etadi.
- 3.1.2. Mijoz bankda o'rnatilgan ish rejimi, to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etishning o'rnatilgan tartibiga amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki me'yoriy hujjatlarining talablarini bajaradi.
- 3.1.3. Mijoz bankka naqd pul tushumlarini taqdim etish tartibi va muddatlari, bank kassasidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun naqd pulni olish muddati, shuningdek hisobraqam ochilgan sanadan bir oydan kechiktirmay uning kassasida kunning oxirida qolishi mumkin bo'lgan naqd pullar qoldig'iga limit belgilash haqida, har yilning yanvar oyida ikki nusxada hisob-kitob ma'lumotnomasini taqdim etish bilan xabar qilishi shart.
- 3.1.4. Hisobraqamda mablag'lar mavjud bo'lgan taqdirda bankka ish haqi, pensiya va nafaqalar olishning kalendar jadvaliga muvofiq bankka pul chekini taqdim etadi va olingan mablag'lardan qat'iy belgilangan maqsadlarda foydalanadi.
- 3.1.5. Mijoz o'zining depozit hisobraqamida uning asosiy talabi olingunga qadar hisobraqam bo'yicha talablar va to'lovlarni bajarish uchun yetarlicha mablag' bo'lishini kafolatlaydi.
- 3.1.6. Ko'rsatilgan bank xizmatlari bo'yicha o'zi tanlagan tarif rejasining shartlariga muvofiq to'lovlarni amalga oshiradi.
- 3.1.7. Bankning so'rovi bo'yicha bankka qonunchilik bilan yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi.
- 3.1.8. Mijozning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgargan taqdirda u bu haqdagi ma'lumotlarni bankka 3 (uch) ish kuni davomida, yuridik manzili o'zgargan taqdirda esa – 5 (besh) ish kuni davomida taqdim etadi.
- 3.1.9. Mijoz belgilangan muddatda deponentga o'tkazib berilgan ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va moddiy yordam pullarini bank kassasiga topshiradi.
- 3.1.10. Kelib tushish va xarajat qilish tartibi, kassa intizomiga muvofiq naqd pullarni kassaga kiritadi va limitdan ortiqcha bo'lgan naqd pullarni bank kassasiga topshiradi.
- 3.1.11. Bank to'lovlarning qonuniyligini tekshirish yoki boshqa masalalar bo'yicha so'ragan barcha hujjatlarni Mijoz bankka taqdim etadi.
- 3.1.12. Mablag'lar hisobraqamga ADM orqali kelib tushganda mijoz haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri kiritish.
- 3.1.13. ADM orqali texnik sabablarga ko'ra hisob raqamga tushgan ortiqcha mablag'larni qaytarish.
- 3.1.14. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Bankning so'rovi asosida lozim darajadagi tekshiruvni o'tkazish va amaliyot bo'yicha tegishli hujjatlarni taqdim etish.
- 3.1.15. Mijozlarning faoliyati bilan bog'liq Bank amaliyotlarining xalqaro va milliy sanksiyalarga muvofiqligini o'rganish.
- 3.1.16. Xalqaro va milliy sanksiyalar talablarini buzmaslik, ularni chetlab o'tishga harakat qilmaslik.

3.1.17. Xalqaro va milliy sanksiyalar ta'siriga tushgan mijozlarning faoliyati bilan bog'liq bank amaliyotlari aniqlangan taqdirda bankka bu haqda yozma ma'lumot berish.

3.1.18. Valyuta amaliyotlari bo'yicha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni mijoz bankning tegishli arizasini olgan kundan keyingi ikkinchi ish kunidan kechiktirmay bankka taqdim etadi.

3.1.19. Valyuta hisobraqami bo'yicha ko'chirmani olgan kundan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni davomida noto'g'ri hisobdan chiqarilgan pul mablag'lari haqida Bankka yozma shaklda xabar berish.

3.1.20. Har yili yanvar oyining 10 (o'n) ish kuni davomida, hisobot yilidan keyingi yilning 1-yanvar holatiga valyuta hisobraqamidagi pul mablag'lari qoldig'ini Bankka yozma xabarnoma yuborish orqali tasdiqlash.

3.1.21. Valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish maqsadida hisobraqam bo'yicha o'tkazilayotgan barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni bankka taqdim etish.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. Qonunchilikka muvofiq buyurtmachining topshirig'iga ko'ra hisob-kitob-kassa xizmatlari ko'rsatadi va qonunchilikda nazarda tutilgan barcha hisob-kitob-kassa amaliyotlarini amalga oshiradi. Jumladan:

a) milliy va xorijiy valyutadagi asosiy, ikkilamchi, maxsus, akkreditiv hisobraqamlarni ochadi, yopadi, asosiy hisobraqamni mijozning arizasiga ko'ra hujjatlar taqdim etilgandan keyingi ish kunidan kechiktirmay boshqa banklarga o'tkazadi;

b) mijozning hisobraqamiga kelib tushgan pul mablag'larini shu kunning o'zida, tegishli to'lov hujjati bankka kelib tushishi bilanoq yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay mijozning hisobraqamiga o'tkazib beradi;

v) mijozning hisobraqamiga kelib tushgan akseptli to'lov topshiriqnomasini to'lovchiga yoki uning vakiliga qog'oz ko'rinishida aksept uchun amaliyotdan keyingi kundan kechiktirmay, bank mablag'larni qabul qilgan sanani ko'rsatgan holda taqdim etadi (mablag'larni to'lovchi yoki uning vakili belgilangan sanada bankka kelmagan hollar bundan mustasno);

g) qabul qilingan, qisman qabul qilingan yoki qabul qilinmagan to'lov talabnomasi bo'yicha to'lashda to'lov talabnomasining nusxasi bilan uning hisobvarag'idan ko'chirmani ilovasi bilan birgalikda mijozga taqdim etadi;

d) mablag'larni oluvchiga to'lov arizasining nusxasini o'zining hisobraqamidan ko'chirmani ilova qilgan holda elektron shaklda taqdim etadi;

ye) elektron to'lov bankning aybi bilan noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda u mablag'larni oluvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan hisobraqamiga xato aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkazib berishi shart;

j) mijozdan olingan tegishli to'lov hujjatlari yoki elektron to'lov topshiriqnomasi asosida "masofaviy bank xizmatlari" kanallari orqali mijozning pul mablag'larini o'tkazish (to'lash) bo'yicha topshiriqlarini bajaradi;

z) mijozning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalari va inkassa topshiriqlarini qonunchilik doirasida ijro qiladi;

i) mijozdan pul mablag'larini qonunchilikka muvofiq qabul qiladi va beradi;

k) Fuqarolik kodeksining 781-moddasiga muvofiq mijozning talab qilib olgunga qadar depozit hisobraqamidagi kunlik qoldiqqa nisbatan 0,00 % miqdorida komissiya undiradi. Hisoblangan foizlar oyning so'nggi ish kunida to'lab beriladi;

l) boshqa hisob-kitob-kassa xizmatlarini ko'rsatadi (alohida shartnomalar bilan tartibga solinadigan bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlar bundan mustasno).

3.2.2. Hisobraqamdagi pul mablag'lari faqat Mijozning ixtiyoriga ko'ra yoki uning roziligi bilan hisobdan chiqariladi (akseptsiz to'lov talabnomalari va inkassa topshiriqlari bundan mustasno).

3.2.3. Mijozga belgilangan jadvalga muvofiq, belgilangan muddatda xizmat ko'rsatadi (dam olish kunlaridan tashqari).

3.2.4. Mijozning topshirig'iga ko'ra hisob-kitob amaliyotini O'zbekiston Respublikasining hududida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalariga qat'iy amal qilgan holda amalga oshiradi.

3.2.5. To'lov hujjatlarini ijro uchun qabul qilishda amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirishni talab qilgan holda, to'lov hujjati bankka kelib tushgan ish kunidan kechiktirmay (agar u amaliyot kuni davomida kelib tushgan bo'lsa) yoki kelib tushgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay ijro etilishi kerak (agar amaliyot kuni tugaganidan so'ng kelib tushgan bo'lsa).

3.2.6. Mijozning yozma arizasi asosida u hisobraqamlardan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hujjatlarni mijozga yoki mijozning ishonchli shaxsiga beradi (ishonchnoma asosida).

3.2.7. Mijozga tegishli bo'lgan va bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarning sir saqlanishini kafolatlaydi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.2.8. Mijozning hisobraqamida bo'sh mablag'lar bo'lgan taqdirda yoki mablag'lar yetishmovchiligi tufayli zahira qilish uchun bronlash mavjud bo'lganda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarni birinchi talabga ko'ra berilishini (qonunchilikda o'rnatilgan tartibda) ta'minlaydi.

3.2.9. "Masofadagi bank xizmatlari" dasturlarining uzluksiz va sifatli ishlashini ta'minlaydi.

3.2.10. Mijozning Bank hisobraqami bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda bank amaliyot to'xtatilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay xizmat ko'rsatishning to'xtatilishi va uning sabablari haqida xabarnoma (ma'lumotnoma) yuboradi.

3.2.11. Xabarnomalar (ma'lumotnomalar) mijozga shaxsan topshirilishi, pochta, elektron aloqa vositalari yoki boshqa aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin.

3.2.12. ADMning doimiy rejimda ishlashini (bankda o'tkaziladigan profilaktik ishlar bundan mustasno) va o'tkazilgan pul mablag'larining mijozning hisobraqamiga o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. Mijozning huquqlari:

4.1.1. O'zining hisobraqamlaridagi mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda erkin tasarruf etish.

4.1.2. Bankka hisob-kitob-kassa xizmat ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar berish, inkassa bo'yicha so'rovnomalar berish, topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish.

4.1.3. Ish haqini to'lash jadvaliga muvofiq asosiy talab olingunga qadar depozit hisobvaraqa mablag'lar va bronlash mavjud bo'lgan taqdirda naqd pullarni qonunchilikka muvofiq yechib olish.

4.1.4. Bank tomonidan shartnomaviy va boshqa majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmasligi va/yoki to'liq bajarilmasligi natijasida ko'rilgan zararlarni bank tomonidan qonunchilikka muvofiq qoplab berilishini talab qilish.

4.1.5. Mo'ljallangan manzilga kelib tushmagan mablag'larni qidirish, identifikatsiya qilish va qaytarishda bankka yordam so'rab murojaat qilish.

4.1.6. O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi va unda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar olish.

4.1.7. ADM orqali kiritilgan banknotalar ko'rsatilgan holatda mablag'larning olinishini tasdiqlovchi chekni talab qiladi.

4.2. Bankning huquqlari:

4.2.1. Bank quyidagi hollarda mijozga hisobvaraqa ochishni rad etishga haqli:

a) hisobraqam ochayotgan shaxsga hisobraqam ochishda shaxsan ishtirok etmagan yoki ishonchli vakili ishtirok etmagan taqdirda Bunda elektron axborot tizimlari orqali masofadan turib hisobvaraqa ochish holatlari mustasno;

b) mijoz tomonidan hisobvaraqa ochish uchun qonun hujjatlarida va bank me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarning to'liq to'plamini taqdim etmasa;

c) mijoz tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda nomunofiqliklar yoki noaniqliklar aniqlanganda;

d) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini va "Xorijiy hisobvaraqlarni soliqqa tortish to'g'risida" gi (FATCA) AQSH qonuni

bo'yicha o'rganilishi talab qilinadigan mijozlar ro'yxatiga kirgan taqdirda mijozning lozim darajada tekshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmasa;

e) agar mijozga nisbatan sanksiyalar qo'llanilgan bo'lsa yoki sanksiyalar qo'llanishi xavfi mavjud bo'lsa;

g) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

4.2.2. Bank tariflari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki bank boshqaruvining qarorlariga muvofiq o'zgarganda yangi tariflar bank va mijoz o'rtasidagi kelishuv asosida qo'llaniladi.

4.2.3. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Markaziy bankning ko'rsatmalari, Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga zid bo'lgan hisob-kitob, kassa amaliyotlarini to'xtatib turish va amaliyotlarni amalga oshirishni rad etish, shuningdek, mijoz hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim etishda qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan taqdirda amaliyotlarini to'xtatib turish va amaliyotlarni amalga oshirishni rad etish.

4.2.4. Yuridik shaxsning boshqaruv organi yoki yuridik shaxsning nomidan ishonchnomasiz harakat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'z joyida (pochta manzilida) bo'lmagan taqdirda bitimlarni amalga oshirishni rad etish.

4.2.5. Mablag'larning daxlsizligi va ularni mijoz tomonidan erkin tasarruf etilishini kafolatlaydigan mijozning bo'sh mablag'laridan resurs sifatida foydalanish.

4.2.6. Qonunchilikka muvofiq byudjetga, byudjetdan tashqari jamg'armalarga shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda pul mablag'larini Mijozning hisobvarag'idan uning rozilgisiz (akseptsiz) o'tkazish;

4.2.7. Mijozning aybi bilan bankka yetkazilgan zarar summasini mijozning hisobraqamidan akseptsiz tartibda, memorial order asosida yechib olish.

4.2.8. Bank amaliyotlarini amalga oshirish uchun asos bo'lgan hujjatlarning haqiqiylikiga shubha tug'ilgan taqdirda, ularni imzolash huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslarni amaldagi konunchilikka muvofiq xabardor qilgan holda amaliyotlarni amalga oshirishni to'xtatish.

4.2.9. Mijozning qarz majburiyatlarini to'liq bajarish va ikkilamchi hisobraqamlardagi amaliyotlarni to'xtatib qo'ygunga qadar mijozning 2-raqamli kartotekasi (№ 2) mavjud bo'lgan taqdirda mablag'larni ikkilamchi hisobraqamlardan (hukumat qarorlari asosida ochilgan maqsadli akkreditivlar, jamg'arma va muddatli depozit hisobvaraqlari bundan mustasno) asosiy depozit hisobraqamlariga o'tkazishga asosiy talabni olishdan oldin.

4.2.10. Keyingi bank ish kunida tegishli summalarni hisobraqamlardan mijozning rozilgisiz bank ish kuni tugaganidan va balans tuzilgandan keyin xatoli yozuvlar aniqlangan hollarda, xatolar haqidagi ushbu yozuvlar qilingan hisobraqamga aks hisobning yozuvlarini kiritish yo'li bilan hisobdan chiqarish.

4.2.11. Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, qarzdor mijozda milliy valyutadagi pul mablag'lari yetishmagan va xorijiy valyutada pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, Davlat soliq qo'mitasining taqdimnomasiga ko'ra uning valyuta mablag'larini O'zbekiston Respublikasining valyuta birjasida so'zsiz ravishda sotish.

4.2.12. Buyurtmachi avvaldan noto'g'ri hujjatlarni taqdim etgan yoki so'ralgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda amaliyot o'tkazishni qonunchilikka muvofiq rad etish.

4.2.13. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasidagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq amaliyotga tegishli hujjatlarni so'rab olish va zarur tekshiruvdan o'tkazish.

4.2.14. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasidagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq so'ralgan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda yoki buyurtmachining amaliyotlarini jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha Ichki nazorat qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda buyurtmachi bilan amaliy ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan bosh tortish.

4.2.15. Mijoz yoki uning amaliyotlari xalqaro va milliy sanksiyalar doirasiga tushib qolganda, tushib qolish xavfi mavjud bo'lganda yoki xalqaro va milliy sanksiyalarning ta'sir sohasiga tushishini aniqlashning imkoni bo'lmaganda, amaliyot natijasida bankka iqtisodiy sanksiyalar qo'llash xavfi mavjud bo'lganda amaliyotni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarin so'rab olish, amaliyotning summasini cheklash, amaliyotni rad etish.

4.2.16. Mijozning hisobraqamiga kelib tushayotgan mablag'larni alohida tranzit hisobraqamda, kelib tushish sanksiyalar va ta'qiqlardan xoli ekanligi aniqlangunga qadar vaqtincha saqlash.

4.2.17. Mijoz va uning amaliyotlari sanksiyalar va ta'qiqlardan xoli ekanligi haqida mustaqil ekspert yoki nufuzli konsalting kompaniyasining xulosasani so'rab olish.

4.2.18. Mijoz bilan imzolangan masofadan xizmat ko'rsatish haqidagi shartnomalarda ko'rsatilgan xizmatlardan foydalangan holda mijoz tomonidan amalga oshirilgan shubhali amaliyotlar aniqlangan taqdirda, Mijoz amalga oshirilgan amaliyotlarning qonuniyligi to'g'risida yozma tushuntirish taqdim etguniga qadar bunday xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish yoki ko'rsatishni rad etish.

4.2.19. Masofadan ko'rsatilgan xizmatlardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlarga shubha bo'lgan taqdirda, amaliyotlar Masofadan xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan shaxs tomonidan mijozning joylashgan manzili bo'yicha (pochta manzili) yoki Masofadan xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan manzil bo'yicha amalga oshirilayotganligini tekshirish.

4.2.20. Shubhali amaliyotlarni amalga oshirishga gumon bo'lgan taqdirda Masofada joylashgan xizmatlar ko'rsatishni 30 kunga to'xtatib qo'yishga haqlidir.

4.2.21. Amaliyotlarni amalga oshirishni qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda rad etish.

4.2.22. ADM orqali taqdim etilayotgan xizmatlar uchun haqni hisoblab chiqish va mijozdan xizmat uchun ushbu to'lovni to'lashni talab qilish.

4.2.23. ADMda sodir bo'lgan texnik xatoligi sababli mijoz hisob raqamiga asossiz tarzda kelib tushgan pul mablag'lari aniqlangan taqdirda, ushbu mablag'larni mijozdan talab qilish va/yoki mijozning barcha hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish.

4.2.24. Pul mablag'larini mijozning bank hisobraqamiga Mijozning roziligisiz qaytarish noqonuniy farmoyish yoki sanksiyalashtirilmagan to'lov fakti aniqlangan kunning ertasiga amalga oshiriladi (bank hisobraqami bo'yicha talablarni va/yoki vakolatli davlat organlarining bank hisobraqami bo'yicha chiqim amaliyotlarini to'xtatib turish va (yoki) pul mablag'larini bank hisobraqamiga o'tkazish to'g'risidagi qarorlarini bajarmaslik hollari bundan mustasno).

4.2.25. Mijozga bank xizmatlarini Shartnomaning ushbu Umumiy shartlarining amal qilish davrida, hamda shartnoma muddati o'tgandan keyingi 1 yil davomida taqdim etish maqsadida mijoz o'zining istalgan manbalardan olingan ma'lumotlarini tahlil qilish va ishlashga o'z roziligini beradi.

5. BANK XIZMATLARI UCHUN HAQ TO'LASH TARTIBI

5.1. Xizmat ko'rsatganlik uchun haq bank tomonidan har bir to'lov uchun hisoblab chiqiladi. Xizmat ko'rsatganlik uchun hisoblangan haq mijoz tomonidan har kuni to'lab boriladi. Mijoz bank xizmatlari uchun bank hisobraqamidagi har bir pullik amaliyot jarayonida haq to'lab borishi va xizmat ko'rsatganlik uchun haqni to'lov topshiriqnomasining "to'lov maqsadi" nomli bandida alohida qayd etib borishi mumkin.

5.2. Xizmat ko'rsatganlik uchun o'z vaqtida haq to'lanmagan taqdirda bank tomonidan mijozning hisobraqamidagi mablag'lardan memorial order asosida, Fuqarolik kodeksi 780-moddasining ikkinchi qismida belgilangan tartibda haq undirib olinadi.

5.3. Hisobraqamda mablag'lar bo'lmagan yoki mablag'lar yetarlicha bo'lmagan taqdirda xizmat ko'rsatganlik uchun to'lanmagan haq bank tomonidan mijozning № 2 kartotekasiga kiritiladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

5.4. Tariflardagi mijozning amaliyotiga bog'liq bo'lmagan har oylik abonent to'lovi oyning 1-ish kunida hisoblab chiqiladi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

Taraflardan biri shartnomaviy majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ushbu Taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplab beradi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, boshqa qonun hujjatlari va ushbu Umumiy shartlarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

6.1. Mijozning javobgarligi:

6.1.1. Mijoz bank hisobraqamida o'tkazilayotgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun javobgar bo'ladi.

6.1.2. Mijoz bank kassasiga naqd pul mablag'larining o'z vaqtida kelib tushishiga va ularning belgilangan maqsadlar uchun sarflanishiga, shuningdek kassa intizomiga rioya qilinishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgardir.

6.1.3. Bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligi uchun Mijoz javobgardir.

6.2. Bankning javobgarligi:

6.2.1. Bank tomonidan to'lovlarni amalga oshirishning qonunchilik bilan belgilangan muddatlari buzilgan taqdirda, u mijozga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

6.2.2. To'lov To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchining aybi bilan noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda u pul mablag'larini oluvchining hisobraqamiga xato aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay o'tkazib berishi shart. Aks holda, to'lovchi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda To'lov xizmatlarini yetkazib beruvchidan pul mablag'larini qaytarishni, shuningdek har bir kechiktirilgan kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto'g'ri amalga oshirilgan to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'lashni talab qilishga haqlidir.

6.2.3. Pul mablag'lari qonunchilikda belgilangan tartibda Mijozning hisobraqamidan uning topshirig'isiz yoki uning roziligini olmagan holda (akseptsiz) hisobdan chiqarilgan (o'tkazilgan) holda bank ushbu mablag'larni uning hisobraqamiga qaytaradi.

6.2.4. Bank Mijozning bank sirini tashkil qiluvchi ma'lumotlarini asossiz oshkor qilganlik uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

7. BANKNI BELGILANGAN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH

7.1. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

7.1.1. Fors-major holatlari, jumladan banklararo elektron to'lov tizimining ishida uzilishlar bo'lganda.

7.1.2. Mijoz qonunchilikda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlarini bankka taqdim etganda.

7.1.3. Bank yoki Mijozning hisobraqamlari bo'yicha amaliyotlar qonunchilikda belgilangan tartibda to'xtatilganda.

7.1.4. To'lovlar mijoz taqdim etgan to'lov hujjatlarini rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli ushlanib qolganda.

7.1.5. Bank o'ziga bog'liq bo'lmagan ravishda va mijozning belgilangan texnik shartlarga rioya qilmasligi natijasida yuz bergan ma'lumotlarni uzatish va olishdagi uzilishlarga e'tibor qaratmaydi.

7.1.6. Bank Mijozning xalqaro amaliyotlari muvofiqlik siyosatiga yoki to'lov zanjirida ishtirok etayotgan korrespondent banklarning sanksiya talablariga muvofiq to'xtatib qo'yilgan, ijro etilmagan (muzlatib qo'yilgan) hollarda javobgar bo'lmaydi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Umumiy shartlar imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va 12 oy davomida amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashidan 30 kun oldin, agar bir Taraf ikkinchi Tarafni ushbu Umumiy shartlarning bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi to'g'risida yozma ravishda

xabardor qilmagan taqdirda shartnoma dastlab belgilangan muddatga cheksiz marta uzaytirilgan deb hisoblanadi.

8.2. Umumiy shartlar Taraflarning biri shartnoma shartlarini sezilarli darajada buzgan taqdirda ikkinchi Tarafning talabiga ko'ra yoki qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

8.3. Mijozning hisobraqamidagi pul mablag'larining qoldig'i shartnoma bekor qilingandan keyin 7 (yetti) kun davomida, uning tegishli yozma arizasi asosida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmalariga muvofiq boshqa hisobraqamga o'tkazib beriladi.

8.4. Mijozning asosiy hisobraqami faqatgina unga tegishli bo'lgan boshqa hisobraqamlar yopilgandan so'ng yopiladi.

8.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi "Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi № 704-sonli qaroriga muvofiq, mijoz o'z faoliyatini tugatish komissiyasi bilan to'xtatish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha pul mablag'lari bank hisobraqamlariga to'qqiz oy davomida kelib tushmagan taqdirda shartnoma bekor qilinadi.

8.6. O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasidagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq so'ralgan hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda bank Umumiy shartlarni bir tomonlama tartibda bekor qilishga xaqlidir.

8.7. Mijoz amalga oshirayotgan amaliyotlar mijozning so'rovnomadagi profiliga to'g'ri kelmasa, mijoz yoki uning amaliyoti xalqaro va milliy sanksiyalarning ta'sir doirasiga tushadigan bo'lsa, tushish xavfi mavjud bo'lsa yoki ularni xalqaro va milliy sanksiyalarning ta'sir doirasiga tushishini aniqlashning imkoni bo'lmagan taqdirda bank shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga xaqlidir.

8.8. Bank mazkur shartnomani bir tomonlama tartibda, «b» holatda, "Hamkorbank" ATBning ichki siyosatiga muvofiq bekor qilishga xaqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

9.1. Taraflarga, ularning affillangan shaxslariga, xodimlariga yoki boshqa ishtirokchilarga ushbu shartnoma shartlarini bajarishda boshqa taraf tomonidan qaror qabul qilishga ta'sir etish maqsadida pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni bevosita yoki bilvosita taklif qilish, taqdim etish ta'qiqlanadi.

9.2. Shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion qilmishlarning sodir etilganligi haqida ma'lumotlar, shubha uchun asoslar, shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda ular ikkinchi tarafni bu haqda yozma shaklda xabardor qilishlari shart.

9.3. Xabarnoma olgan taraf korrupsion harakat haqiqatan sodir etilmaganligi yoki sodir etilmasligining tasdig'i olingunga qadar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqlidir.

9.4. Shartnoma shartlarini bajarishdan bosh tortayotgan taraf, uning vakili, affillangan shaxslari, xodimlari yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilari ikkinchi tarafga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

10. FORS-MAJOR HOLATLARI

10.1. Yengib bo'lmaz kuch holatlari (fors-major) – bu Taraflarning irodasiga, hohishiga va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchiliklar va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini yo'lida import va eksportga ta'qiqlar va boshqalar), xalqaro, banklararo va bank elektron to'lov tizimidagi va ta'minotdagi uzilishlar, bankning dasturiy tizimidagi uzilishlar va boshqalar, taraflarga o'zlariga olgan majburiyatlarini bajarishga imkon bermaydigan, tahdidlar bilan chaqirilgan favqulodda holatlar (uchinchi shaxslar tomonidan hujumlar), kutilmagan holatlardir.

- 10.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda taraflar ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilgunga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladilar.
- 10.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlar, hamda ko'rsatilgan holatlar nihoyasiga yetganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank ish kuni davomida yozma ravishda xabardor qilishi lozim.
- 10.4. Fors-major holatlar yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.
- 10.5. Fors-major holatlar 30 kun davomida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan ilgari bekor qilish huquqiga egadirlar.

**"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga**

"Xorijiy valyutani sotib olish va sotishning umumiy shartlari"

1. ASOSIY QOIDALAR

1.1. **Xorijiy valyutani sotib olish va sotishning** mazkur umumiy shartlari (bundan keyin "Umumiy shartlar") Bank tomonidan belgilangan va ichki bozorda xorijiy valyutani sotib olish va sotish bo'yicha Taraflarning o'zaro munosabatlarini, huquqlarini va majburiyatlarini va ushbu munosabat bilan Mijoz va Bank (bundan keyin birgalikda "Taraflar") o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Umumiy shartlar Bank tomonidan qabul qilingan hisobraqam ochish haqidagi talabnoma bilan birga **Xorijiy valyutani sotib olish va sotish shartnomasini** tashkil etadi.

1.2. Bank xorijiy valyutani sotadi, Mijoz ushbu Umumiy shartlar, mijozning xorijiy valyutani sotib olish/sotish bo'yicha talabnomasi va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa zarur hujjatlar asosida bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha xorijiy valyutani sotib oladi/sotadi.

1.3. "Bank" shartnomada va/yoki Mijozning hujjatida (shartnomada, repatriatsiya bayonnomasida) ko'rsatilgan valyutalarning turidan qat'iy nazar, AQSH dollari va/yoki Yevroda ifodalangan, valyutani sotib olish/sotishga talabnomani qabul qiladi.

1.4. Sotib olinayotgan/sotilayotgan xorijiy valyutadan foydalanish maqsadi (shartnoma raqami, bayonnoma, kelishuv va h. k.), so'ralayotgan summa (AQSH dollari/Yevroda) (kelishuvga ko'ra Rossiya rublida) xorijiy valyutani sotib olish/sotish bo'yicha Talabnomada ko'rsatiladi.

1.5. Bitimning haqiqiy kursi xorijiy valyutani tijorat banki tomonidan sotib olish/sotish paytida belgilanadi.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Mijozning majburiyatlari:

2.1.1. Mijoz xorijiy valyutani bankka sotgan taqdirda, talabnomada ko'rsatilgan summani sotish uchun yetarlicha valyuta mablag'lariga ega bo'lishi lozim.

2.1.2. Mijoz xorijiy valyutani sotib olganda:

2.1.2.1. Sotib olish bo'yicha amaliyotlarni amalga oshirishning eng muhim sharti: xorijiy valyutani sotib olish uchun hisobraqamda yetarli miqdorda milliy valyutadagi mablag'larga ega bo'lish.

2.1.2.2. Bankdan sotib olingan xorijiy valyuta o'tkaziladigan maxsus valyuta hisobraqamini (22614) ochish.

2.1.2.3. "Bankka" quyidagilarni taqdim etish:

- Bank tomonidan tasdiqlangan shaklda xorijiy valyutani sotib olish/sotishga talabnoma (bundan keyin "Talabnoma");

- shartnoma va/yoki boshqa hujjatning (shartnoma, repatriatsiya va dividendlar bayonnomasi va h.k.) nusxasi.

Valyutani sotib olish/sotish maqsadidan kelib chiqib, "Mijoz" "Bankka" Talabnomaning asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ham taqdim etadi.

2.1.2.4. Taqdim etilgan hujjatlar amaldagi qonunchilik talablari va ushbu "Shartnoma"ga to'g'ri kelmagan taqdirda "Bank" "Mijoz"ning Talabnomasini bajarishni rad etish huquqiga ega.

2.1.2.5. Berilgan talabnomaga ko'ra sotib olingan valyuta mablag'larini qabul qilish va mablag'lar maxsus valyuta hisobraqamiga o'tkazilgan paytdan e'tiboran 7 (yetti) ish kuni davomida foydalanish.

2.1.2.6. Sotib olingan xorijiy valyutadan taqdim etilgan talabnoma va ushbu shartnomaning 2.1.2.5-bandida ko'rsatilgan shartnoma va/yoki boshqa hujjatga (shartnoma, repatriatsiya dividendlari, bayonnomasi va h.k.) muvofiq belgilangan maqsadlarda foydalanish.

2.1.2.7. Shartnomaning quyidagi istalgan shartlari o'zgargan taqdirda talabnomani bekor qilish yoki sotib olingan valyuta mablag'larini qaytarib sotish:

- shartnoma bo'yicha Taraflarning o'zgarishi;
- shartnoma raqami yoki sanasining o'zgarishi;
- talabnoma bo'yicha sotib olish maqsadining o'zgarishi;
- shartnoma bo'yicha to'lov shartlarining o'zgarishi ("fakt bo'yicha", "akkreditiv", "oldindan to'lov").

2.1.2.8. Yuqorida keltirilgan holatlar yuzaga kelganda va mijoz talabnomani bekor qilish haqida yozma xat taqdim etmagan taqdirda, Bank talabnomani akseptsiz tartibda bekor qilish huquqiga ega.

2.1.2.9. Ushbu shartnomaning 2.1.2.3-bandi asosida Bank so'ragan hujjatlar/ma'lumotlarni ko'rsatish va taqdim etishdan bosh tortish holatlarida Bank amaliyotni amalga oshirishni rad etish, Mijozning moliyaviy amaliyotlarini to'xtatib qo'yish/to'xtatish huquqiga ega.

2.1.2.10. Bankning so'rovi asosida O'zbekiston Respublikasining pullarni yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurash sohasidagi me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazilayotgan amaliyot bilan bog'liq zarur hujjatlarni taqdim qilish.

2.1.3. Talabnoma va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik Mijozning zimmasiga yuklanadi.

2.1.4. Amaldagi qonunchilik va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

2.2. Bankning majburiyatlari:

2.2.1. Mijozni lozim darajada tekshirish, o'tkazilayotgan amaliyot bilan bog'liq zarur hujjatlarni talab qilish, amaliyotlarini to'xtatib qo'yish/to'xtatish, amaliyotni amalga oshirishni rad etish, pullarni yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishga qarshi kurash sohasidagi me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda Mijozni tekshirish.

2.2.2. Mijozning talabnomasi Bankka taqdim etilgan kunda yoki keyingi bank kunidan kechiktirmay ijro qilinadi.

2.2.3. Talabnoma Qonunchilikda belgilangan talablarga to'g'ri kelmaganligi sababli uni bajarish imkoni bo'lmagan taqdirda bu haqda Mijozni Talabnoma berilgan kunda yoki talabnoma berilgan paytdan e'tiboran keyingi ish kuni davomida xabardor qilish.

2.2.4. Maxsus valyuta hisobraqamlaridan ilgari hisobdan chiqarilgan mablag'larni va ushbu hisobraqamlarga foydalanilmaganligi sababli qaytadan kelib tushgan mablag'larini akseptsiz tartibda qaytadan sotish.

2.2.5. Sotib olingan xorijiy valyutadan Mijozning maxsus valyuta hisobraqamiga (22614) o'tkazilgan paytdan e'tiboran 7 (yetti) ish kuni ichida foydalanilmagan taqdirda valyuta mablag'larini qaytadan sotish.

3. BOSHQA SHARTLAR

3.1. Ushbu Shartnomaga bo'lgan barcha qo'shimchalar va o'zgartirishlar faqat yozma va elektron shaklda (oferta) amalga oshirilgan va Taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiydir.

3.2. Taraflarning birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tarafning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berish yoki topshirish huquqiga ega emas.

3.3. Ushbu Shartnomada to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan barcha masalalarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga amal qiladilar.

3.4. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha quyidagi aloqa vositalari orqali ma'lumot almashish haqida kelishib oldilar.

4. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

4.1. Umumiy shartlar tegishli hisobraqam ochilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

4.2. Ushbu Shartnoma Taraflar qabul qilgan majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar amal qiladi.

4.3. Bank Mijozni taxminiy bekor qilish sanasidan kamida 10 kun oldin xabardor qilgan holda Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

4.4. Bank O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Shartnomani bajarishni rad etish huquqiga ega.

4.5. Ushbu shartnomaning 2.1.2.3-bandi asosida Bank so‘ragan hujjatlar/ma’lumotlarni ko‘rsatish va taqdim etishdan bosh tortish holatlarida Bank Mijozni mavjud aloqa kanallari orqali xabardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqlidir.

**"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga**

**" Milliy va xalqaro korporativ kartalar chiqarish va xizmat ko'rsatishning umumiy
shartlari"**

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

"Korporativ bank kartasi" — BANK tomonidan yuridik shaxsga beriladigan, KORPORATIV karta saqllovchisiga karta hisobraqamidagi pul mablag'laridan tovarlar, xizmatlar yoki ishlarni naqd pulsiz usulda xarid qilish huquqini beruvchi to'lov kartasi.

"Saqllovchi" — BANKning korporativ kartasidan foydalanuvchi yuridik shaxs yoki emitent BANK va yuridik shaxs o'rtasidagi shartnoma asosida yuridik shaxs tomonidan ishonchnoma berilgan shaxs.

"Maxsus karta hisobraqami" — mablag'larni plastik karta vositasida o'tkazish mumkin bo'lgan bank hisobraqami.

"Korxona/Tashkilot" — O'zbekiston Respublikasining hududida tovarlar va xizmatlar uchun to'lov sifatida plastik kartani qabul qiluvchi har qanday yuridik shaxs yoki xususiy tadbirkor (do'kon, mehmonxona, restoran va h.k.).

Avtorizatsiya – Korporativ karta operatsiyasini amalga oshirishda korporativ karta egasining tovarlar va xizmatlar haqini to'lash huquqini tasdiqlash. Avtorizatsiya ovozli (telefon aloqasidan foydalangan holda) yoki avtomatlashtirilgan (elektron uskunalardan foydalangan holda) avtorizatsiyaga bo'linadi.

Ekvayer - korporativ karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha tovarlar (ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi) sotuvchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi, shuningdek korporativ karta egasiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul beruvchi bank.

"Tranzaksiya" — plastik karta saqllovchisi tomonidan rasmiylashtirilgan, mablag'larni uning bank hisobraqamidan hisobdan chiqarishga olib keluvchi to'lov topshiriqnomasi.

"PIN-kod" — bank kartasi saqllovchisining karta hisobraqamidagi pul mablag'larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi va bank kartasi saqllovchisining pul mablag'larini tasarruf etishga ruxsat beruvchi shaxsiy identifikatsiya raqami.

Xalqaro to'lov tizimi – xalqaro tizimga ulangan korporativ kartalar orqali tovar va xizmatlar uchun naqdsiz to'lash tizimi. Xalqaro to'lov tizimi tegishli valyuta konvertatsiyasini amalga oshirgan holda, xalqaro to'lov tizimi a'zolari o'rtasidagi korporativ karta operatsiyalari amalga oshirilishi qoidalarini belgilaydi va korporativ karta operatsiyalari bo'yicha kliring hisob-kitobini amalga oshiradi.

Slip – ovozli operatsiya rejimida korporativ karta operatsiyasi amalga oshirilayotganda uchta nusxada rasmiylashtiriladigan belgilangan shakldagi hujjat. Slip korporativ karta egasining va xizmat ko'rsatish punkti kassirining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Overdraft – korporativ karta hisobvarag'idagi qoldiq mablag'lardan ortiq foydalanilgan summa.

Avtorizatsiya markazlari – xalqaro to'lov tizimi a'zosi bo'lgan banklarning quyi tashkilotlari bo'lib, korporativ kartaning egasi yoki Bankning tashabbusi bilan ovozli avtorizatsiya yoki korporativ kartani bloklashni amalga oshiradi.

"Qaytarish uchun chek" — kartaning SAQLOVCHISI tovarlar va xizmatlar uchun plastik karta orqali to'lovni amalga oshirayotgan, lekin tovarlar va xizmatlarni olish rad etilgan holatda Korxona/Tashkilot tomonidan to'ldiriladigan eslatma shakli.

"Qaytarish" — mablag'larning Korxona/Tashkilot tomonidan plastik karta saqllovchisining maxsus karta hisobraqamiga Bank tomonidan belgilangan shaklda har qanday qaytarilishi;

"Terminal" — plastik kartalardan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish va amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha cheklarni shakllantirish imkonini beruvchi qurilma.

"Bank tarifi" — plastik kartalar bo'yicha amaliyotlar bilan bog'liq barcha komissiyalarning va brokerlik komissiyalarining barcha turlari va miqdorlari ko'rsatilgan bankning amaldagi tarifi.

Ish haqi loyihasi shartnomasi — Bank va Mijoz oʻrtasida pul mablagʻlarini ish haqi loyihasi doirasida xodimlarning Karta hisobraqamlariga oʻtkazish uchun tuzilgan, ajralmas tarkibiy qismlar sifatida ushbu Umumiy shartlar, Tariflar va talabnomani oʻz ichiga oluvchi shartnoma. Ushbu shartnomada "Karta" yoki "Hisobraqam raqami" soʻzlari ishlatilganda, mazkur soʻzlar karta SAQLOVCHISINING maxsus karta hisobraqamiga chiqarilgan kartalarning barcha turlariga nisbatan qoʻllaniladi.

2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Korporativ kartalarni chiqarish va xizmat koʻrsatishning ushbu umumiy shartlari (bundan keyin "Umumiy shartlar") Bank tomonidan oʻrnatilgan boʻlib, Mijozlarning korporativ kartalarini chiqarish va xizmat koʻrsatish tartibini belgilaydi, ushbu tufayli Bank bilan Mijoz oʻrtasida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga soladi (bundan keyin birgalikda "Taraflar"). Umumiy shartlar Bank tomonidan qabul qilingan korporativ kartani chiqarish boʻyicha talabnoma bilan birgalikda **Korporativ kartalarni chiqarish va xizmat koʻrsatish** shartnomasini tashkil etadi.

2.2. Bank Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining meʼyoriy-huquqiy hujjatlari va Kompleks shartnoma shartlariga muvofiq Mijozlarga va Kartalarga xizmat koʻrsatadi.

2.3. Mijozga xizmat koʻrsatish majburiyati Bankda hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasi tuzilgan paytdan eʼtiboran yuzaga keladi.

2.4. Umumiy shartlar maxsus kartaga, Plastik kartaga va Plastik karta saqlovchisiga tadbiq etilib, BANK va Plastik karta saqlovchisining huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

2.5. Bank yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida BANK Plastik kartasini chiqaradi va uni Saqlovchiga vaqtinchalik foydalanish uchun beradi.

2.6. Kartani olish uchun SAQLOVCHI BANKda maxsus hisob-kitob hisobraqamini va maxsus karta hisobraqamini ochishi lozim. Maxsus joriy hisobraqam raqami tranzit hisoblanib, maxsus karta hisobraqamini toʻldirish uchun ishlatiladi.

2.7. Korporativ bank kartasi uning amal qilish muddati davomida BANKNING mulki hisoblanadi va muddat tugaganda, almashtirish vaqtida yoki BANKNING talabiga binoan BANKKA qaytarilishi lozim.

3. BANKNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:

3.1.1. Yuridik shaxs bilan shartnoma tuzilgandan soʻng maxsus joriy hisobraqam va maxsus karta hisobraqamini ochish;

3.1.2. Plastik karta boʻyicha amalga oshirilgan barcha debet amaliyotlari boʻyicha summalarni maxsus karta hisobraqamidan soʻmlarda hisobdan chiqarish;

3.1.3. Kastodian hisobraqamidan amaliyotlar boʻyicha toʻlovlarni 2 ish kuni ichida olish va ularni hisobraqam boʻyicha koʻchirmalarda aks ettirish;

3.1.4. Depozitariyning yozma talabiga koʻra depozitariyning maxsus karta hisobraqamidan koʻchirma berish;

3.1.5. KORXONA/TASHKILOT (savdo-toʻlov xizmatlari obyekti) tomonidan taqdim etilgan qaytarish cheklari boʻyicha summani SAQLOVCHINING maxsus hisobraqam raqamiga oʻtkazish;

3.1.6. SAQLOVCHINING plastik kartaning yoʻqolganligi yoki oʻgʻirlanganligi haqida yozma arizasini olgan taqdirda plastik kartadan foydalangan holda oʻtkaziladigan amaliyotlarni vaqtincha toʻxtatib turish va kartani qaytarish choralarini koʻrish.

3.1.7. SAQLOVCHIGA ushbu shartnoma shartlarining oʻzgarganligi haqida yozma maʼlumot taqdim etish;

3.1.8. BANK muayyan sabablarga koʻra oʻz majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgar boʻlmaydi agar bunday sabablar BANKNING nazoratidan tashqarida boʻlsa.

4. BANKNING HUQUQLARI

4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. SAQLOVCHI shartnoma va yo'riqnomalar shartlarini buzgan taqdirda SAQLOVCHIGA nisbatan BANK tomonidan tasdiqlangan jarima sanksiyalarini qo'llash va karta bo'yicha amaliyotlarni to'xtatish;

4.1.2. Quyidagi hollarda karta SAQLOVCHIDAN olib qo'yiladi:

- Saqlovchining topshirig'i bo'yicha;
- Saqlovchi ushbu umumiy shartlarni buzgan taqdirda.

4.1.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission to'lovlar va haqni Mijozning hisobraqamlaridan akseptsiz tartibda, BANKNING Tariflari asosida yechib olish.

4.1.4. Xatolik yoki texnik nosozliklar sababli Mijozning karta hisobraqamida yuzaga kelgan ortiqcha mablag'larni yo'l qo'yiladigan tartibda hisobdan chiqarish.

4.1.5. Korporativ karta orqali to'lov amaliyoti o'tkazilgan kundan 75 (yetmish besh) kalendar kun o'tgach, Mijozdan ushbu to'lov amaliyoti yuzasidan kelib tushgan da'volarni ko'rib chiqmaslik;

4.1.6. Bank karta operatsiyalari xarajatlarining limitini o'rnatish huquqiga ega;

5. SAQLOVCHINING MAJBURIYATLARI

5.1. Saqlovchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

5.1.1. Kartadan Markaziy Bankning tartibi va me'yorlariga muvofiq foydalanish.

5.1.2. Kartadan ushbu shartnoma asosida foydalanish.

5.1.3. Kartadan faqat quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- PLASTIK KARTANING SAQLOVCHISI tomonidan;
- bankdagi maxsus karta hisobraqamidagi so'mdagi mablag' qoldiqlari chegarasida;
- plastik kartada ko'rsatilgan muddat davomida;

5.1.4. Saqlovchi tomonidan Shartnoma shartlarini buzish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lash.

5.1.5. Yuridik manzilning o'zgarishi yoki boshqa o'zgarishlar haqidagi yozma ma'lumotni BANKKA darhol taqdim etish.

5.1.6. O'tkazilgan mablag'lardan "Hamkorbank" ATBning amaliyot o'tkazilgan kuni amalda bo'lgan mijozlarga xizmat ko'rsatish tariflariga muvofiq BANKKA komissiya to'laydi.

5.1.7. Pul mablag'larini maxsus karta hisobraqamidan talab qilib olgunga qadar asosiy hisobraqamga so'mda o'tkazishda "Hamkorbank" ATBning amaliyot o'tkazilgan kunda amalda bo'lgan mijozlarga xizmat ko'rsatish tariflari qo'llaniladi, mohiyatan komissiya to'lovi.

5.1.8. Maxsus karta hisobraqamini so'mda to'ldirishi faqat hisobraqamdan, barcha talab qilib olinguncha hisob raqamlaridan amalga oshiriladi, maxsus karta hisobraqamini so'mda naqd pul bilan to'ldirish ta'qiqlanadi.

"Hamkorbank" ATBning mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha plastik kartani chiqarish, dasturlash va shaxsiylashtirish o'tkazilgan kundagi bank tariflari bo'yicha to'lanadi, u asosan pullarni berishi lozim.

5.1.9. SAQLOVCHI plastik kartaning PIN-kodini karta olingan paytdan e'tiboran bir kun davomida o'zgartirishi shart. PIN-kodni savdo terminali, bankomat yoki infokioskada o'zgartirish mumkin.

5.1.10. SAQLOVCHI plastik karta orqali amalga oshirilgan barcha amaliyotlar uchun javobgar bo'ladi.

5.1.11. Karta yo'qolgan, shikastlangan yoki o'g'irlangan taqdirda darhol BANKka murojaat qilish.

5.1.12. Karta yo'qolgan, shikastlangan yoki o'g'irlangan taqdirda BANK tariflariga muvofiq jarima to'lash.

5.1.13. Karta hisobraqamida xatolik sababli, shuningdek texnik nosozliklar sababli ortiqcha bo'lib qolgan pul mablag'larini BANKKA qaytarish.

6. SAQLOVCHINING HUQUQLARI

6.1. Saqlovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Maxsus karta hisobraqamini so'mda to'ldirish;

- 6.1.2. Maxsus karta hisobraqamidan soʻmda koʻchirma olishda koʻchirmada maxsus karta hisobraqami orqali oʻtkazilgan barcha amaliyotlar aks ettiriladi.
- 6.1.3. Saqlovchi KORXONA/TASHKILOT tomonidan oʻtkazilgan (savdo-servis) amaliyotlar haqidagi maʼlumot olingunga qadar karta hisobraqamiga qaytarilgan toʻlovlarni qaytarishni BANKdan talab qila olmaydi.
- 6.1.4. Tranzaksiyani bekor qilish toʻgʻrisida shu tranzaksiya oʻtkazilgan kundan keyin 75 (yetmish besh) kalendar kuni ichida murojaat qilish.
- 6.1.5. “SMS xabar”ni uyali aloqa raqamiga (uyali aloqa raqami shaxsan bank kartasi egasi tomonidan yoziladi) yuborishni talab qilish huquqi.

7. HISOB-KITOBLARNI OʻTKAZISH SHARTLARI

- 7.1. Xalqaro korporativ karta hisobvaragʻi xorijiy valyutada yuritiladi.
- 7.2. Xalqaro Korporativ karta hisobvaragʻini toʻldirilishi naqdsiz toʻlov usulida, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 7.3. Korporativ karta operatsiyasining valyutasi korporativ karta hisobvaragʻi valyutasiga tranzaksiyaning moliyaviy tasdigʻi kelib tushgan kunda amalda boʻlgan “HAMKORBANK” ATB kursi boʻyicha konvertatsiya qilinadi.

8. HISOBRAQAMNI YOPISH

- 8.1. Taraflar Hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasi suddan tashqari tartibda quyidagi hollarda bekor qilinishi, hisobraqam esa yopilishi mumkin ekanligiga kelishib oldilar:
- a. Mijozning Bankka Internet-Bankdagi shaxsiy kabinetning funksionali orqali yuborilgan yoki yozma arizasiga koʻra;
 - b. Kompleks shartnomani Kompleks shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda bekor qilish;
 - c. Mijoz tomonidan Kompleks shartnoma shartlarining jiddiy buzilishi;
 - d. Hisobraqamda saqlanayotgan pul mablagʻlarining miqdori Hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasida yoki Bankning ichki qoidalarida (va/yoki Tariflarida) nazarda tutilgan minimal miqdordan kam boʻlgan hollarda;
 - e. Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi va/yoki Bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 8.2. Quyidagi hollarda Bank Kompleks shartnomani (va hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasini) sud orqali bekor qilishni talab qilish huquqiga ega:
- a. Hisobraqam(lar) boʻyicha 3 (uch) oy davomida amaliyotlar boʻlmagan taqdirda;
 - b. Hisobraqamda saqlanayotgan pul mablagʻlarining miqdori Hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasida yoki Bankning ichki qoidalarida (va/yoki Tariflarida) nazarda tutilgan minimal miqdordan bir oylik muddat davomida kam boʻlgan va Bank tomonidan ogohlantirilgan kundan eʼtiboran Mijoz tomonidan bir oy muddat ichida tiklanmagan hollarda.
- Kompleks shartnomaning (va bank hisobraqami shartnomasining) bekor qilinishi hisobraqamni(larni) yopish uchun asos hisoblanadi.
- 8.3. Bank va Mijoz oʻrtasidagi moliyaviy majburiyatlarni tartibga solish muddati 30 (oʻttiz) kalendar kunni tashkil etadi:
- a. Hisobraqamga chiqarilgan barcha kartalarning amal qilish muddati tugagan sanadan eʼtiboran;
 - b. Hisobraqamga chiqarilgan barcha kartalarning amal qilish muddati tugagan sanadan eʼtiboran.

9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 9.1. Bank Kompleks shartnoma (Hisob-kitob xizmat koʻrsatish shartnomasi) shartlarida nazarda tutilgan tartib-tamoyillardan foydalangan holda, vakolati boʻlmagan shaxslar tomonidan farmoyish berilganligi faktini Bank aniqlay olmagan hollarda, vakolati boʻlmagan shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosining oqibatlarini uchun javobgar boʻlmaydi.
- 9.2. Bank Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda, ushbu Umumiy shartlarda belgilangan hollarda Mijozning topshiriqlarini bajarmaganlik va uning hisobraqami boʻyicha amaliyotlarni toʻxtatib qoʻyganlik uchun, jumladan Mijozning topshiriqlari doirasida Bankning korrespondent banklari, boshqa banklar, kredit-moliya tashkilotlari tomonidan pul

mablag'larini qaytarmaganlik, pul mablag'larini bloklash, o'tkazmalarni amalga oshirmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

9.3. Mijoz mustaqil ravishda shakllantirilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirishi, shuningdek Internet-Bankdagi shaxsiy kabinetidagi ma'lumotlar va rekvizitlarning to'g'ri ko'rsatilishi (ko'rsatilganligi) uchun javobgar bo'ladi.

9.4. Mijoz Kompleks shartnoma shartlariga qo'shilish, shuningdek, Hisobraqamni ochish va xizmatlar taqdim etish jarayonida Bankka taqdim etiladigan hujjatlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

9.5. Taraflar Kompleks shartnomaning (hisob-kitob xizmat ko'rsatish shartnomasining) shartlari bilan belgilangan o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.6. Bank quyidagilar bo'yicha javobgarlikni zimmasiga olmaydi:

a. Mijozning korporativ karta orqali amalga oshirilgan internet to'lovlar bilan bog'liq bo'lgan internet to'lovlar yoki operatsiyalar uchun;

b. korporativ karta egasi tomonidan CVN (CVV) kodlarni uchinchi shaxsga berilganda;

c. korporativ karta bo'yicha tranzaksiya amalga oshirilgan sanadan boshlab 75 (yetmish besh) kalendar kun o'tgandan so'ng mijoz tomonidan ushbu tranzaksiya bo'yicha shikoyatni qabul qilish va u bo'yicha ish qo'zg'ashga;

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Kompleks shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

10.2. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda, Taraflar Kompleks shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

Korporativ kartalarni chiqarish va xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlariga**ARIZA****HUMO/UZCARD so'mdagi korporativ plastik kartani chiqarish haqida**

Tashkilot: _____
tashkilot nomini ko'rsating

Korxona rahbarining lavozimi, F. I. O. I.

☐ HUMO ☐ UZCARD ☐ Visa ☐ Master card korporativ plastik kartasini
☐ CHIQARISHNI ☐ QAYTA CHIQARISHNI ☐ YOPISHNI so'rayman

Kartani qayta chiqarish sababi ** ☐ Shikastlanish/Yo'qotish ☐ Muddati o'tgan ☐ Boshqa _____

Qayta chiqarilayotgan karta raqami** _____

KORXONA REKVIZITLARI:

Yuridik manzili*: _____
Korxonaning yuridik manzilini ko'rsating

Pochta manzili*: _____
Korxonaning pochta manzilini ko'rsating

Kontakt telefonlari*: _____ E-mail _____

MAXFIY SO'Z:

Bank xodimlari kartangizga xizmat ko'rsatish bo'yicha
telefonidagi suhbatlarda sizni identifikatsiyalashi
mumkin bo'lgan maxfiy so'zni ko'rsating

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

NAZORAT (TEKSHIRUV) MA'LUMOTLARI

Ushbu arizada mavjud bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiylikini (ishonchliligini) tasdiqlaymiz.

Bankning quyidagilarga huquqi borligiga rozimiz:

- ushbu arizada mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tekshirish;
- plastik kartani chiqarishni sababini izohlamagan holda rad etish.

“Hamkorbank” ATBda HUMO/UZCARD/VISA/Mastercard korporativ kartalaridan foydalanishning amaldagi Tariflari va Qoidalari bilan tanishdik va ularni bajarish majburiyatini zimmamizga olamiz.

Rahbar imzosi

Sana: _____
M.O'.

Bosh hisobchi imzosi

☐
☐

*- kartani chiqarishda va/yoki qo'shimcha xizmatlarga ulanishda to'ldirilishi shart.

** - faqat kartani qayta chiqarishda yoki yopishda to'ldirilishi shart.

*** - faqat birinchi marta chiqarishda to'ldirilishi shart.

**"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga**

**«Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga
pul mablag'lari o'tkazishning umumiy shartlari»**

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ish haqi loyihasi shartnomasi — Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan, ish haqi loyihasi doirasida pul mablag'larini xodimlarning Karta hisobraqamlariga o'tkazish to'g'risidagi Shartnoma bo'lib, ajralmas tarkibiy qismlar sifatida ushbu Umumiy shartlar, Tariflar va Talabnomani o'z ichiga oladi.

Karta hisobraqami — Xodimning Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish haqidagi kompleks shartnoma doirasida tashqaridagi kredit tashkiloti yoki Bank tomonidan faqat Karta va/yoki uning rekvizitlari va/yoki Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallaridan foydalangan holda, ish haqi loyihasi doirasida amaliyotlarni amalga oshirish uchun Bankda ochilgan bank hisobraqami.

Xodim — Mijoz bilan, jumladan Bank bilan Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish haqida kompleks shartnoma tuzgan mijoz bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxs.

Hisob-kitob kartasi — Bank tomonidan chiqarilgan va xodimga Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish haqidagi kompleks shartnoma doirasida berilgan bank kartasi.

Reestr — mijoz tomonidan to'lov topshiriqnomasiga ilova sifatida taqdim etiladigan va mablag'larni Xodimlarning Karta hisobraqamlariga o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat ko'rinishidagi qaydnoma. Reestr Bank belgilagan shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Ro'yxat — mijoz tomonidan taqdim etiladigan va xodimlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat ko'rinishidagi qaydnoma. Ro'yxat Bank belgilagan shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Hisobraqam — mijozning milliy valyutadagi hisobraqami bo'lib, undagi pul mablag'lari kelgusida Xodimlarning Bankda yoki boshqa bankda ochilgan karta hisobraqamlariga o'tkaziladi.

2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Ushbu yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlariga pul mablag'larini o'tkazishning Umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda "Umumiy shartlar") ish haqi loyihasi doirasida mijozning xodimlariga pul mablag'larini o'tkazishdagi Taraflarning o'zaro munosabatlari tartib-tamoyillarini va ish haqi loyihasi shartnomasini (Shartnoma) tuzishni tartibga soladi.

2.2. Bank O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi doirasida yuzaga keladigan pul mablag'larini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan, Mijoz tomonidan reestrga muvofiq, ish haqi loyihasi doirasida Mijoz tomonidan Karta hisobraqamining reestrda ko'rsatilgan ijtimoiy va boshqa to'lovlarni o'tkazadi.

2.3. Ish haqi loyihasi shartnomasini tuzish uchun Mijoz Kompleks shartnomaning 1-ilovasiga muvofiq Ariza rasmiylashtiradi. Mijoz Bankka tashkilot (korxona) xodimlarining ma'lumotlari bo'lgan ro'yxatni, jumladan Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish kompleks shartnomasini tuzishni xohlagan yoki tuzgan xodimlarning ma'lumotlarini taqdim etadi.

2.4. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish kompleks shartnomasiga muvofiq Bank tomonidan belgilangan ro'yxatga muvofiq Mijozning xodimlariga Karta hisobraqamlarini ochish uchun zarur barcha hujjatlar Mijozning xodimlari tomonidan Bank xodimlariga beriladi. Mijozning xodimlari haqidagi ma'lumotlar bo'lgan ro'yxat Bank ishlab chiqqan shakl bo'yicha taqdim etiladi.

2.5. Mijozning xodimlari tomonidan lozim darajada rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan hujjatlar asosida va mijozning xodimlarini jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik talablariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari va Bankning ichki qoidalariga muvofiq identifikatsiyalash jarayoni

yakunlangandan so'ng Bank Kompleks shartnoma va Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish shartnomasining shartlariga muvofiq Karta hisobraqamlarini ochadi va Kartalarni chiqaradi.

2.6. Bank reestrda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirmaydi. Ko'rsatilgan tekshiruv mijoz tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

2.7. Pul mablag'lari (pul mablag'larini o'tkazish haqidagi farmoyish) kelib tushganda va reestr yo'q bo'lgan taqdirda Bank mijozdan pul mablag'lari kelib tushgan kundan e'tiboran beshinchi ish kunidan kechiktirmay pul mablag'larini to'liq hajmda mijozning pul mablag'lari kelib tushgan hisobraqamiga qaytaradi.

2.8. Reestr kelib tushgan va pul mablag'lari (pul mablag'larini o'tkazish haqidagi farmoyish) bo'lmagan taqdirda Bank mijozdan reestr kelib tushgan kundan e'tiboran beshinchi ish kunidan kechiktirmay reestrni rad etadi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Mijozning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. Ro'yxati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, kompleks shartnoma va Bankning ichki hujjatlari bilan belgilangan zarur hujjatlarni Bankka taqdim etish.

3.1.2. Xodimlarni Bankda Karta hisobraqamlarining ochilishi va Hisob-kitob kartalarini olish imkoniyati haqida xabardor qilish.

3.1.3. Mukofotni Bankka tariflarda belgilangan tartibda va miqdorda, o'z vaqtida o'tkazib borish.

3.1.4. Mijozning xodimi ishdan bo'shagan taqdirda, bunday xodimning ma'lumotlari bo'lgan Ro'yxatni Bankka mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay taqdim etish.

3.1.5. Kompleks shartnoma bilan belgilangan tartibda imzolangan Reestrlarni Bankka taqdim etish.

3.1.6. Soliqlar va yig'imlar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni Bankka o'tkazishdan oldin mustaqil ravishda amalga oshirish.

3.1.7. Ish haqi loyihasini bajarish fakti bo'yicha noaniqliklar/nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadida Bankka yangi Reestr va/yoki qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.

3.1.8. Bankning so'rovi va u belgilagan muddatda ro'yxatdagi xodimlar haqidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni Bankka taqdim etish.

3.1.9. Mijoz xodimlari bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun boshqa bankka o'tgan hollarda Bankni 3 (uch) kun ichida xabardor qilish. Bunda, o'tishda mijozning amaliyotlarini xodimlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bankda tranzit hisobraqam ochilgan kundan e'tiboran 3 (uch) oy davomida to'xtatib qo'yilgan taqdirda Mijoz Bankning bank kartalarining emissiyasi bo'yicha real xarajatlarini qoplab berish majburiyatini oladi.

3.1.10. Mijoz ish haqi loyihasi shartnomasiga ko'ra, mijoz tomonidan Reestrda ko'rsatilgan rekvizitlarga muvofiq Xodimning pul mablag'larini o'tkazish haqidagi arizasining mavjudligini kafolatlaydi.

3.2. Bankning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish kompleks shartnomasi va ish haqi loyihasiga muvofiq Mijozning xodimiga Karta hisobraqamini ochish va Kartani taqdim etish.

3.2.2. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Bankning ichki qoidalari va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish kompleks shartnomasiga muvofiq Mijozning xodimiga Karta chiqarish va Karta hisobraqami ochishni rad etish.

3.2.3. Rasmiylashtirilgan bank kartalarini Mijozning xodimlariga topshirish. Bunda Bank kartalarni xodimlarga faollashtirilmagan holda topshiradi. Mijozning xodimi kartalarni Bankda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish kompleks shartnomasiga muvofiq mustaqil ravishda faollashtiradi.

3.2.4. Pul mablag'larini xodimlarning Karta hisobraqamlariga Reestrda muvofiq, ushbu Umumiy shartlar bilan belgilangan tartibda o'tkazish.

3.2.5. Pul mablag'larini xodimlarning Karta hisobraqamlariga pul mablag'lari Bankning korrespondent hisobraqamiga kelib tushgan, bank mijozdan Reestrni farmoyish bilan birga olgan

va Mijoz tariflar bilan belgilangan mukofotlarni to'lgan kundan keyingi ish kundan kechiktirmay o'tkazish.

3.2.6. Ish haqi loyihasi shartnomasini O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va Kompleks shartnomada nazarda tutilgan hollarda, bir tomonlama tartibda bekor qilish.

3.2.7. Mijozni oldindan xabardor qilmasdan Internet-bankka kirishni bloklash yoki cheklash, Ish haqi loyihasi shartnomasi doirasida xizmatlar tarkibini o'zgartirish va xizmatlar ko'rsatishga cheklovlar qo'yish.

3.2.8. Amaliyot O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lgan va/yoki Reestr noto'g'ri rasmiylashtirilgan hollarda Bank farmoyishni ijro uchun qabul qilmaslik huquqiga ega.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Bank ushbu Kompleks shartnoma shartlarida nazarda tutilgan tartib-tamoyillar yordamida farmoyish vakolati bo'lmagan shaxslar tomonidan berilganligini aniqlay olmagan hollarda, vakolati bo'lmagan shaxslar tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosining oqibatlari uchun javobgar emas.

4.2. Ushlanib qolish Mijoz tomonidan Bankka taqdim etilgan hujjatlardagi noaniqliklar, Reestrning ushlanib qolishi, xatolar va h.k. sababli yuzaga kelgan taqdirda Bank pul mablag'larini xodimlarning Karta hisobraqamlariga o'z vaqtida o'tkazish muddatlarining buzilishi uchun Mijoz va Xodimlar oldida javobgar bo'lmaydi.

4.3. Bank mijoz tomonidan xodimlarning Karta hisobraqamlariga o'tkazish uchun taqdim etilgan summalar bo'yicha Mijoz va Xodimlar o'rtasidagi nizolar va kelishmovchiliklar uchun javobgar bo'lmaydi. Ish haqi loyihasi joriy yilning so'nggi kalendar kuniga qadar tuziladi. Taraflarning birortasi loyiha mudatini uzaytirishni rad etish haqida bayonot bermasa, Shartnoma har bir kelasi yil uchun uzaytiriladi. Uzaytirish bir necha marta amalga oshirilishi mumkin.

4.4. Ish haqi loyihasi istalgan biror-bir Taraf tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin, bunda shartnoma bir taraf ikkinchi tarafning shartnomani muddatidan oldin bekor qilish haqida xabarnomani olgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kalendar kun o'tgach bekor qilingan hisoblanadi.

4.5. Mijoz Kompleks shartnoma va/yoki ushbu Umumiy shartlar shartlarini buzgan taqdirda, Bank Ish haqi loyihasi shartnomasini istalgan vaqtda, bir tomonlama tartibda, Mijozni taxmin qilinayotgan bekor qilish sanasidan 1 (bir) ish kuni oldin xabardor qilgan holda bekor qilishga haqlidir.

5. O'ZGARTIRISHLAR VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

5.1. Ish haqi loyihasi shartnomasiga va uning ilovalariga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritish, jumladan Bank tomonidan yangi Tariflar, Arizalarni tasdiqlash Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, Kompleks shartnoma va/yoki Umumiy shartlar bilan belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Mijoz, jismoniy shaxslarning (keyingi o'rinlarda "shaxsiy ma'lumotlar subyekti") Bank mijozdan oladigan hujjatlarda ushbu jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari bo'lishi mumkinligiga, bunday shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq shaklda va mazmunda ishlash uchun yozma roziligini olganligini tasdiqlaydi. Bunda Mijoz o'z navbatida, Ish haqi loyihasi shartnomasini bajarish maqsadida ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlarni ishlash uchun Bankka o'z roziligini va tegishli huquqni beradi.

6.2. Ushbu Umumiy shartlarning 5.1-bandini bajarish maqsadida, shaxsiy ma'lumotlarni "ishlash" shaxsiy ma'lumotlarni ishlashda ularning maxfiyligini va xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ularni to'plash, yozib olish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish, jumladan bunday shaxsiy ma'lumotlarni affillangan yoki Bank bilan bog'liq bo'lgan shaxslarga transchegaraviy uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), shuningdek, ko'rsatilgan shaxslarning affillangan yoki bog'liq shaxslariga uzatish

(zero ushbu shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilangan), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish va yo'q qilishni anglatadi.

6.3. Shaxsiy ma'lumotlar subyektining shaxsiy ma'lumotlari Bank tomonidan avtomatlashtirilgan vositalardan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan (aralash ishlash) ishlanishi mumkin. Ish haqi loyihasi shartnomasiga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni ishlashdan maqsad – Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Shartnoma, Bankning ichki qoidalar va mijozlarni lozim darajada tekshirish qoidalar bilan bog'liq har qanday huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdan iborat. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Bank tomonidan ishlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar subyektining shaxsiy ma'lumotlarini ishlashning ko'rsatilgan maqsadlariga erishilganda yoki ushbu maqsadlarga erishish zarurati qolmaganda yo'q qilinishi yoki shaxssizlantirilishi lozim.

6.4. Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Kompleks shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

6.5. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda tomonlar Kompleks shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

**"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga**

**"Bank omonatlarini/depozitlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning umumiy
shartlari"**

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ushbu bank omonatlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning umumiy shartlarida (keyingi o'rinlarda "Umumiy shartlar") quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Bank hisobraqami – bank hisobraqami shartnomasini tuzish natijasida Bank va Mijoz o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi bo'lib, unga ko'ra bank mijozning hisobraqamiga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va hisobga kiritish, mijozning hisobraqamidan tegishli pul mablag'larini o'tkazish hamda berish va hisobraqam bo'yicha boshqa amaliyotlarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Omonatchi – ushbu Umumiy shartlarga muvofiq bo'sh pul mablag'larini bankka joylashtiradigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Talabga qilib olinguncha depozit hisobvarag'i – mijozning birinchi talabiga ko'ra beriladigan yoki o'tkaziladigan mablag'larining hisobi yuritiladigan hisobvaraq.

Taraflar – Bank va Mijoz/Omonatchi.

Bayram va/yoki ishlanmaydigan (dam olish) kunlari – bank o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan kalendar kunlar.

1. ASOSIY QOIDALAR

1.1. Bank omonatlarini ochish, xizmat ko'rsatish va yopishning ushbu Umumiy shartlari Bankda ochilgan talabga qilib olinguncha depozit hisobvarag'ining egasi bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan bank omonati shartnomasining umumiy shartlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

1.2. Bank omonati shartnomasini tuzish Bank Mijozning yozma yoki elektron hujjat ko'rinishida bergan, matni mijozning ushbu Umumiy shartlar va Bank tariflariga roziligini o'z ichiga olgan Arizasini (ushbu Umumiy shartlarga 1-ilova) qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.3. Pul mablag'larini omonatga o'tkazish faqat ochilayotgan Omonatning valyutasiga mos keluvchi depozit hisobvarag'idan amalga oshirilishi mumkin.

1.4. Bank omonati shartnomasi pul mablag'lari omonatga kelib tushgan paytdan e'tiboran Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan hisoblanadi.

1.5. SMS-xabar Bank omonati shartnomasining tuzilganligi va pul mablag'larini omonatga o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi. Omonatchi tasdiqlovchi SMS-xabarni omonatning ochilganligi haqidagi tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan mobil telefon raqamiga kod ko'rinishida oladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Omonatchi pul mablag'larini kiritadi, bank esa pul mablag'larini omonatga ularni omonatchining bank hisobraqamidan o'tkazish yo'li bilan qabul qiladi va Bank omonati shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan Omonat shartlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda omonatni qaytarish va foizlarni to'lash majburiyatini oladi. Omonat shartlarida omonatning nomi, turi (muddatli/jamg'arma), omonat valyutasi, omonat muddati, foiz stavkasi, omonatning minimal summasi, foizlarni to'lash tartibi, omonatni muddatidan oldin yopish shartlari va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

3. FOIZLARNI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

3.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 764-moddasiga muvofiq, Bank bank omonati shartnomasida belgilangan foizlarni depozit omonat kelib tushgan kundan keyingi kundan e'tiboran to depozit omonat omonatchiga qaytarilgan yoki u omonatchining hisobraqamidan boshqa asoslarga ko'ra chiqarilgan kundan oldingi kunga qadar hisoblaydi.

- 3.2. To'lanadigan foizlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hisob-kitob qilinadi. Agar foizlarni to'lash kuni dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelsa, foizlarni to'lash dam olish kunlaridan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.
- 3.2.1. Omonat muddatidan oldin yopilgan taqdirda, foizlarni qayta hisob-kitob qilish omonat shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 3.3. Omonatdan (depozitdan) olingan daromadlarni soliqqa tortish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 3.4. Omonatchining hisobraqamidagi mablag'larga ta'qiq qo'yilgan yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Omonatchining hisobraqamlari bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilgan taqdirda omonat bo'yicha foizlarni hisoblash cheklovlar olib tashlangunga qadar to'xtatib qo'yiladi.
- 3.5. Omonat shartlari tomonlar o'rtasida kelishib olinishi va alohida hujjatlarda yozib ko'rsatilishi mumkin.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Omonatchining huquqlari:

- 4.1.1. Bir nechta omonatlarni qo'yish;
- 4.1.2. Omonat (depozit) muddatini Bank bilan bank omonati shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li bilan uzaytirish, talablarni qondirish uchun asosiy hisobraqamda mablag'larning yetishmasligi tufayli omonatchida 2-sonli kartoteka shakllangan, omonatlarni qo'yishga qonunchilikda belgilangan xatlovlar va boshqa cheklovlar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno.
- 4.1.3. Omonatning barcha summasini muddatidan oldin qaytarib olish. Bunda agar omonatchi omonatni muddati o'tgunga qadar talab qilmoqchi bo'lsa, u omonatni olib qo'yishning mo'ljallanayotgan sanasidan kamida 1 (bir) oy oldin Bankni o'z maqsadi haqida xabardor qilishi shart. Xabarnoma bankka masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish vositasida muayyan harakatlarni bajarish yo'li bilan yuborilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 762-moddasining 5-qismi).
- 4.2. Bank omonati shartnomasining amal qilish davrida bank O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq o'z maqsadlarini ta'minlash maqsadida Omonatchining pul mablag'larini tasarruf etish huquqiga ega.

4.3. Bankning majburiyatlari:

- 4.3.1. Omonatchining pul mablag'larini omonatga qabul qilish va o'z majburiyatlarini ushbu Umumiy shartlar va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bajarish;
- 4.3.2. Foizlarni Bank omonati shartnomasi va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq o'z vaqtida va to'liq hajmda hisoblash;
- 4.3.3. Depozit muddati tugagan kunda Omonatchining hisobraqamiga omonatning to'liq summasi va tegishli bo'lgan foizlarni o'tkazish. Omonatni qaytarish kuni omonat muddatining tugashi munosabati bilan dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelgan taqdirda Omonat dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlaridan keyingi birinchi ish kunida qaytariladi;
- 4.3.4. Omonat summasini Omonatchidan olingan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida qaytarish;
- 4.3.5. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin.
- 4.4. Omonatchi Talabnomada ko'rsatilgan omonat summasini uni topshirgan kundan e'tiboran 3 (uch) bank kuni ichida o'tkazishi shart.
- 4.5. Taraflarning har biri Bank omonati shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan zarur ma'lumotlarni olish huquqiga ega.
- 4.6. Taraflar Bank omonati shartnomasining shartlariga va barcha keyingi o'zgarishlarga, agar mavjud bo'lsa, rioya qilish majburiyatini oladilar.

4.7. Omonatchi omonat summasini talab qilgan yoki uning bir qismi davlat yoki boshqa organlar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olingan taqdirda Bank omonati shartnomasi avtomatik ravishda bekor qilingan hisoblanadi. Bunday holda foizlar omonat shartlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Bank tomonidan Bank omonati shartnomasiga muvofiq Omonatchiga amalga oshiriladigan to'lovlar muddati kechiktirilgan taqdirda, Bank har bir kechikkan kun uchun kechiktirilgan summaning 0,1 % miqdorida, lekin kechiktirilgan summaning 10 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda Omonatchiga jarima to'laydi.

5.2. Jarima to'lash Taraflarni Bank omonati shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Bank omonati shartnomasi mijozdan omonatga pul mablag'lari kelib tushgan sanadan kuchga kiradi va hisobraqamdagi barcha omonat summasi omonatchiga berilgan paytdan e'tiboran o'z kuchini yo'qotadi. Bank omonati shartnomasining amal qilishi to'xtaganda omonat bo'yicha hisobraqam yopiladi.

6.2. Bank omonati shartnomasida nazarda tutilmagan barcha hollarda, Taraflar Kompleks shartnomaning qoidalarini va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga amal qiladilar.

6.3. Mijoz Bank omonati shartnomasini tuzish uchun qonuniy vakolatlarga ega ekanligini va Bank omonati shartnomasini imzolagan shaxslar ko'rsatilgan harakatlarni sodir etish uchun barcha huquqlar va ruxsatnomalarga ega ekanligini tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

6.5. Ushbu Umumiy shartlardan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Kompleks shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

6.6. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda, Taraflar Kompleks shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

“Bank omonatlarini/depozitlarini ochish, xizmat ko‘rsatish va yopishning umumiy shartlari” ga

ARIZA
depozit qo‘yish haqida

Ushbu bilan “Bank omonatlarini/depozitlarini ochish, xizmat ko‘rsatish va yopishning umumiy shartlari” va Tariflar bilan tanishganimni va roziligimni tasdiqlayman.

Milliy valyutada muddatli/jamg‘arma depozit hisobvarag‘ini ochishingizni so‘rayman.

Omonat nomi: _____

Turi: _____

Omonat valyutasi: _____ so‘m

Omonat summasi: _____

Omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi: _____

Omonat muddati: _____

Rahbar F. I. Sh

imzo va muhr

**"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga
kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga**

**“POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni (savdo ekvayringi) milliy
valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”**

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ushbu POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlarida (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar”) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Karta – Bank yoki To'lov Tizimi ishtirokchisi, Bank bilan Kartalarga o'zaro xizmat ko'rsatish to'g'risida tegishli bitimlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki tomonidan emissiya qilingan amaldagi (jumladan korporativ) bank kartasi.

Karta saqllovchisi – Kartani to'lov vositasi sifatida taqdim etuvchi jismoniy shaxs. Saqllovchining nomi (yoki korporativ Kartadagi korxona nomi) Kartaning old tomonida ko'rsatiladi.

POS terminal – Bank tomonidan Mijozga Karta saqllovchilariga xizmat ko'rsatish uchun taqdim etiladigan texnik vositalar (keyingi o'rinlarda – “Qurilmalar”):

– savdo terminali – Kartaning to'lov qobiliyatini tekshirishga, Kartalar bo'yicha ma'lumotlarni elektron to'plashga va elektron shaklda kommunikatsiyalar bo'yicha Bankka keyinchalik ishlash uchun uzatishga qodir bo'lgan qurilma.

– olib chiqiladigan (tashqi) klaviatura – Karta saqllovchisi Kartaning to'lov qobiliyatini PIN-kodni kiritish orqali tasdiqlovchi qurilma.

Tranzaksiya – Mijozning xodimi tomonidan qurilma va taqdim etilgan Karta yordamida amalga oshiriladigan to'lov. Tranzaksiyani amalga oshirish Karta saqllovchisi tomonidan PIN-kod yordamida tasdiqlanadi.

To'lovlarni qaytarish – Mijoz tomonidan amalga oshirilgan Tranzaksiya bo'yicha pul mablag'larini karta hisobraqamiga qaytarish.

Qog'oz nusxalar – qurilma tomonidan hisobot davrida o'tkazilgan barcha tranzaksiyalar yoki ularning umumiy summasi bo'yicha chop etilgan cheklar, nazorat tasmasi va jamlanmalarning solishtirma hisobotining nusxalari.

Inkassatsiya (jamlanmalarni solishtirish) – Tranzaksiyalarni ishlash uchun bankka yuborish tartib-tamoyili. Ushbu tartib-tamoyil Mijoz tomonidan kuniga kamida bir marta amalga oshirilishi kerak.

Stop-list – Karta saqllovchisining tashabbusi, To'lov Tizimi qoidalarida nazarda boshqa sabablarga ko'ra xizmat ko'rsatish ta'qiqlangan bank kartalari ro'yxati.

To'lov Tizimi – UzCard, HUMO, VISA, MasterCard, shuningdek O'zbekiston Respublikasida va/yoki xorijiy davlatda amal qiluvchi boshqa banklararo to'lov tizimlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi hududida Kartalarni chiqarish va xizmat ko'rsatish qoidalarini belgilaydi.

Slip — bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni va ushbu “slip”ni shakllantirgan bank kartasi, hamda terminal yoki bankomatni to'g'ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o'zida mujassamlashtirgan terminal yoki bankomat kvitansiyasi.

1. ASOSIY QOIDALAR

1.1. Ushbu POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar”) Taraflarning bank kartalaridan to'lovlarni qabul qilishda ma'lumotlarni ishlashdagi o'zaro hamkorligining tartib-tamoyillarini va POS terminali orqali elektron to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ishlash shartnomasini (keyingi o'rinlarda “Shartnoma”) tuzishni tartibga soladi.

1.2. Mijoz Bank tomonidan taqdim etilgan Qurilmadan foydalangan holda tovarlar yoki xizmatlarga haq to'lash uchun Kartalarni to'lovga qabul qiladi.

1.3. Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Mijoz Qurilmadan foydalanganlik uchun Bankka ijara haqi va Tranzaksiyalarni ishlaganlik uchun Bank tariflariga muvofiq komissiya to'lash majburiyatini oladi. Shartnoma muddati tugagach, Bankdan ijaraga olingan Qurilmani Bankka qaytaradi.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

2.1.1. Qurilma mavjud bo'lgan taqdirda, Karta saqlovchilariga xizmat ko'rsatish uchun uni mijozga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi (ushbu Umumiy shartlarning 1-ilovasi) asosida ijaraga berish, kredit evaziga sotish yoki mijozga tegishli shaxsiy qurilma yordamida to'lovlarni amalga oshirish uchun Bankning tegishli axborot tizimlari yordamida biriktirib berish;

2.1.2. Joriy operatsion bank ish kuni davomida inkassa qilingan Tranzaksiyalar summasini Mijozning hisobraqamiga Bank komissiyasini tarifga ko'ra chegirgan holda o'tkazish;

2.1.3. Mijozning yozma so'rovi bo'yicha amalga oshirilgan barcha Tranzaksiyalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish;

2.1.4. Karta saqlovchilariga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnologik qurilmaning ish qobiliyatini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rish.

2.2. Bank quyidagilarga haqlidir:

2.2.1. Mijoz ushbu Umumiy shartlarning 4.2.2. bandi talablarini buzgan yoki Mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan Tranzaksiyalar amaldagi ichki nazorat qoidalariga ko'ra shubhali yoki gumonli xarakterga bo'lgan taqdirda, Mijozni 10 (o'n) kun oldin xabardor qilgan holda Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;

2.2.2. Quyidagi hollarda Mijozga pul mablag'larini o'tkazishni to'xtatib turish:

- Tranzaksiya ma'lumotlari noto'g'ri amalga oshirilgan yoki lozim darajada amalga oshirilmaganda;

- Karta saqlovchisi Tranzaksiya bo'yicha da'vo qilgan va bu da'vo qondirilganda;

- Mijoz qayta tashkil etilgan yoki tugatilganda. Ushbu holda to'lovlar tugatish komissiyasi yoki boshqa vakolatli organlarning huquqiy voris masalasini hal qilguniga qadar ushlab turiladi;

2.2.3. Korxonani kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabarnomalarni Bankning internet tarmog'idagi saytida joylashtirish orqali tariflarga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;

2.2.4. Mijoz ushbu Umumiy shartlarning 4.2.2. va 4.2.3. bandlari talablarini buzgan taqdirda, Bankning amaldagi tarifiga muvofiq Mijozdan jarima summasini olish;

2.2.5. Qurilma yo'qotilgan/buzilgan taqdirda Bankning amaldagi tarifiga muvofiq Mijozdan kompensatsiya va jarima summasini olish;

2.2.6. Mijozdan tovarlar yoki xizmatlar berilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rab olish (mijoz tovar yoki xizmatni olganligini ko'rsatuvchi videokamera/mobil telefondagi yozuvlar, mijoz va tovarni, hisob-fakturalarni aniq ko'rsatuvchi fotosuratlar, izoh kiritilgan va imzo qo'yilgan sliplar/cheklar, pasport nusxasi va hokazo);

2.2.7. Qonunchilik va to'lovlar xavfsizligini ta'minlash talablaridan kelib chiqqan holda moliyaviy amaliyotlar/tranzaksiyalarni amalga oshirish bo'yicha limitlarni belgilash/o'zgartirish.

2.2.8. Ushbu bilan Mijoz qurilmaga shikast yetkazilganda va/yoki, yo'qotilgan taqdirda Mijoz o'zining barcha hisob raqamlaridan akseptsiz tartibda Bankka zararni qoplash uchun yetarli bo'lgan pul mablag'larini undirib olish huquqini va roziligini beradi. Shunga ko'ra Bank mijozdan mazkur bandeda nazarda tutilgan pul mablag'larini akseptsiz tartibda undirib olish;

2.2.9. Bank tomonidan ijaraga berilgan, qurilmadan mijoz uzluksiz 60 kun davomida foydalanmagan taqdirda, Bank Mijozdan ushbu qurilmani qaytarib olish va ushbu qurilmani boshqa mijozlarga berish;

2.2.10. Mijoz mazkur shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, shu qatorda shartnomaning 2.3.18 band bo'yicha yuzaga kelgan kamchiliklarni/zararlarni akseptsiz shaklda mijoz hisobvarag'idan undirib olish yoki hisobvarag'ida etarli mablag' bo'lmagan taqdirda belgilangan tartiblarda undirish bo'yicha sudga da'vo arizasini kiritish;

2.2.11. Mijoz hisobvarag'ini yopganda yoki 2.2.1. banddagi holat yuz bergan taqdirda Qurilmani qaytarish dalolatnomasi (ushbu Umumiy shartlarning 2-ilovasi) asosida qaytarib olish.

2.3. Mijozning majburiyatlari:

2.3.1. Stop-listda bo'lmagan, faqat haqiqiy Kartalarni tovarlar yoki xizmatlar uchun naqd pulli hisob-kitob shartlarida to'lov uchun qabul qilish;

2.3.2. Bank tomonidan yetkazib berilayotgan reklama belgilari yoki boshqa materiallarni o'z xonasida adekvat ravishda aks ettirish va Bank tomonidan ma'qullangan nomlar yoki tasvirlardan Karta mijoz tomonidan to'lov vositasi sifatida qabul qilinishini ko'rsatish uchun foydalanish;

2.3.3. To'lov vositasi sifatida taqdim etilgan Karta Stop-listda bo'lgan va terminal displeyida tegishli xabar olingan taqdirda Kartani barcha mavjud qonuniy va oqilona vositalar bilan ushlab turish.

2.3.4. Shartnoma maqsadlari uchun faqat Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta'minotdan foydalanish. Bank tomonidan taqdim etilgan Qurilmaga ruxsatsiz kirishni istisno etish va buning uchun javobgar bo'lish;

2.3.5. To'lov terminalining turidan kelib chiqqan holda kuniga kamida bir marta inkassatsiyani amalga oshirish (natijalarni solishtirish) va inkassatsiya yakunlari kvitansiyasini saqlash;

2.3.6. To'lov terminalidan foydalangan holda to'lovni amalga oshirishda 2 (ikki) nusxada chek berish va bir nusxasini bank kartasining saqlovchisiga taqdim etish, ikkinchi nusxasini o'zida olib qolish;

2.3.7. To'lov terminalidan foydalangan holda mahsulot yoki xizmat uchun xaridorning xalqaro to'lov tizimi kartasi (VISA, Mastercard va boshqa)dan 20 AQSH dollari (ekvivalentda) yoki undan ortiq mablag'lar qabul qilganda, mijoz mahsulot yoki xizmat sotilganligi/bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, jumladan cheklanmagan holda to'lov terminali tomonidan chiqarilgan slipiga/chekiga xaridor tomonidan mahsulot olinganligi yoki xizmat ko'rsatilganligi haqida yozuv olib qolish va ushbu yozuvlarga xaridorning imzosini qo'ydirgan holda tasdiqlash, hamda ushbu jarayonni foto/video tasvirlarga tushurib saqlash, shu bilan birga pasport nusxasini olib qolish;

2.3.8. Bankni xabardor qilgandan so'ng bir bank kuni ichida Bank Shartnoma bo'yicha Mijozdan talab qilishga haqli bo'lgan istalgan Tranzaksiya summasini Bankka qaytarish;

2.3.9. Uch (3) ish kuni ichida Bankni rekvizitlarning barcha o'zgarishlari, jumladan: bank/savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi rahbariyatining o'zgarishi haqida keyinchalik lozim darajada tasdiqlangan, tegishli o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini taqdim etish;

2.3.10. Uch (3) ish kuni ichida savdo va xizmat ko'rsatish faoliyat turi (MCC kodi) ning o'zgarishi haqida Bankka ma'lumot taqdim etish;

2.3.11. Qurilmada texnik yoki dasturiy nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda, Mijoz bir ish kunidan kechiktirmay bu haqda Bankni xabardor qilishi, Qurilmani Bankka Qurilmani qaytarish/ topshirish dalolatnomasi asosida yetkazib kelishi kerak;

2.3.12. Qurilmaning shikastlanishiga yoki yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik. Qurilma shikastlangan yoki yo'qolgan taqdirda bu haqda Bankka zudlik bilan yozma ravishda xabar berish;

2.3.13. Shartnoma muddati tugagandan so'ng yoki u muddatidan oldin bekor qilinganda, Qurilmani bankka (3) kun ichida but va saqlangan holda qaytarish;

2.3.14. Ushbu shartlar bekor qilingan sanadan e'tiboran kartalarga xizmat ko'rsatishni to'xtatish;

2.3.15. Bank komissiyalarini Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq to'lash;

2.3.16. Qurilmaga ehtiyotsizlik bilan muomala qilingan yoki Mijoz ushbu Umumiy shartlarning 4.2.2. va 4.2.3. bandlari talablarini buzgan va buning natijasida Qurilmaning ishlashi va undan foydalanish imkonsiz bo'lib qolgan taqdirda, Bankning xabarnomasi olingandan so'ng o'n (10) ish kuni ichida Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka jarima to'lash;

2.3.15. Qurilmaga ehtiyotsizlik bilan muomala qilingan yoki Mijoz ushbu Umumiy shartlarning 4.2.2. va 4.2.3. bandlari talablarini buzgan taqdirda va buning natijasida Qurilma ning ishlashi va undan foydalanish terminallar va aloqa liniyalarini ta'mirlovchi (xizmat ko'rsatuvchi) tashkilot tomonidan tiklangan hollarda, Bankning xabarnomasi olingandan so'ng o'n (10) ish kuni ichida Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka ta'mirlash qiymati miqdorida jarima to'lash;

2.3.18. Qurilma yo'qolgan taqdirda Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka jarima to'lash;

- 2.3.19. Shartnoma muddati tugagan taqdirda Qurilmani uch (3) ish kuni ichida Bankka qaytarish;
- 2.3.20. Bankning so'rovi bo'yicha to'lovlarni qaytarish va tranzaksiya haqidagi ma'lumotlarni so'rov yuborilgan kundan keyingi kundan kechiktirmay Bankka taqdim etish. Bunda mahsulotlar yoki xizmatlarni xalqaro to'lov tizimi kartalari bo'yicha qabul qilishni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (xaridor mahsulot yoki xizmatlarni olganligini tasdiqlovchi videokamera/mobil telefon yozuvlari, xaridor va tovarlarni aniq ko'rsatuvchi fotosuratlar, hisob-fakturalar, izoh kiritilgan va imzo qo'yilgan sliplar/cheklar, pasport nusxasi va hokazo) xizmat ko'rsatilgandan so'ng kamida 120 kun davomida saqlanishi va Bank talabi bo'yicha Bankka taqdim etilishi kerak;
- 2.3.21. Haqi to'langan mahsulotlar yetkazib berilmagan (xizmatlar ko'rsatilmagan), shuningdek, mahsulotning (xizmatning) nuqsonliligi yoki boshqa sabablarga ko'ra xaridor tomonidan qaytarilgan taqdirda Bank kartalari orqali qabul qilingan to'lov summalarini (xaridorga) qaytarish.
- 2.3.22. Mijozning aybi bilan terminal har kunlik inkassatsiya qilinmagan/ inkassatsiyadan bosh tortilgan taqdirda Bankka barcha xarajatlarni, jumladan foizlar summasini to'liq hajmda va bahs-munozarasiz qoplab berish.
- 2.3.23. Qurilma foydalanilayotgan manzil o'zgargan taqdirda bankni mazkur Maxsus shartlarda va/yoki Kompleks shartnomada nazarda tutilga aloqa kanallari orqali 3 ish kunidan kechikmagan holda ogohlantirish.
- 2.3.24. Mijoz tomonidan qurilmaga shikast yetkazilganda va/yoki yo'qotilgan taqdirda, o'zining barcha hisbvaraqlaridan akseptsiz tartibda Bankka yetkazilgan zararni qoplash yetarli bo'lgan pul mablag'larini undirib olish uchun roziligini beradi. Shunga ko'ra Bank mijozdan mazkur bandeda nazarda tutilgan pul mablag'larini akseptsiz tartibda undirib oladi;
- 2.3.25. POS terminaldan uzluksiz 60 kun davomida foydalanmagan taqdirda Bankka qaytarib berish

2.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

- 2.4.1. Bankdan amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha ko'chirmalarni so'rab olish;
- 2.4.2. To'lov terminallaridan foydalanish qoidalari bilan tanishish;
- 2.4.3. To'lov terminali orqali amalga oshirilgan amaliyoti summasi hisobga o'tkazilmagan taqdirda bankdan ushbu amaliyotning summasini terminal cheki asosida talab qilish;
- 2.4.4. Terminal texnik vositalaridan foydalanish huquqidan istalgan vaqtda voz kechish, biroq Bankni kamida 30 kun oldin xabardor qilgan holda va ularni Bankka soz holatda qaytarish.

2.5. Mijoz quyidagilarga haqli emas:

- 2.5.1. To'lovni qaytarishda, ya'ni Saqlovchi tovar yoki xizmatlardan voz kechganda naqd pul mablag'larini berish, bunday holda mijoz mablag'larni karta saqlovchisining karta hisobraqamiga naqd pulsiz shaklda o'tkazadi;
- 2.5.2. Stop-listda ko'rsatilgan Kartalarni to'lov vositasi sifatida qabul qilish;
- 2.5.3. Qurilmani va Tranzaksiya o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarni boshqa shaxslarga va tashkilotlarga bermaslik, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq nazorat funksiyalariga ega bo'lgan shaxslar va tashkilotlar bundan mustasno.
- 2.5.4. Ayni bir Tranzaksiya bo'yicha ma'lumotlarni har qanday ko'rinishda qayta taqdim etish;
- 2.5.5. Qurilmaning korpusini ochish, mustaqil ravishda ta'mirlash, butlovchi qismlarini almashtirish, Bank tomonidan taqdim etilgan dasturiy ta'minotga o'zgartirishlar kiritish;
- 2.5.6. Bank kartalari orqali to'lovlarni amalga oshirishni asossiz rad etish;
- 2.5.7. Bank kartasi yordamida amaliyotni amalga oshirishda bank kartasining saqlovchisidan bank kartasining PIN-kodini so'rash yoki uni mustaqil ravishda kiritish.

3. O'ZARO HISOB-KITOB-LAR TARTIBI

- 3.1. Qurilmadan foydalaniganlik uchun Mijoz Bankning amaldagi Tarifiga muvofiq Bankka ijara haqi to'laydi;
- 3.2. Qurilmani taqdim etish sanasidan qat'iy nazar, ijara haqining summasi Bank tomonidan akseptsiz tartibda, memorial order asosida joriy (haq to'lanadigan) oyning oxirgi bank ish kunidan kechiktirmay hisobdan chiqariladi;

3.3. Mijoz har bir tranzaksiya summasi uchun Bankning amaldagi Tarifida ko'rsatilgan komissiyani to'laydi. To'lov terminalidan savdo qilingan mablag'lar asosli ravishda xaridorning bank kartasiga qaytarilganda tranzaksiya summasidan olingan komission to'lov qaytarilmaydi;

3.4. Bank oldidagi qarzdorlikni qoplash uchun Mijozning hisobraqamlarida pul mablag'lari yetarli bo'lmagan yoki yo'q bo'lgan taqdirda qarzdorlikning so'ndirilmagan qismi asosiy hisobraqamga to'lov talabnomasini qo'yish orqali qoplanadi. Mijoz bunday hisobdan chiqarishga o'z roziligini (akseptini) beradi.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

4.1.1. Shartnoma shartlariga to'g'ri kelmaydigan yoki zid keladigan Tranzaksiyalar bo'yicha to'lovlarni ta'minlash.

4.2. Mijoz quyidagilar uchun to'liq javobgar bo'ladi:

4.2.1. Stop-listda hisobda turgan Kartaga xizmat ko'rsatish;

4.2.2. Mijoz Shartnoma talablarini buzgan taqdirda, Bankka yetkazilgan zarar uchun;

4.2.3. Mijozga topshirilgan Qurilmaning saqlanganligi va ish qobiliyati uchun.

4.3. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.4. Bankning javobgarlik zonasi faqat ushbu Umumiy shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Uskunadagi texnik nosozliklar, shuningdek, uchinchi tarafning aybi bilan yuz bergan, xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha yoki butunlay to'xtashiga olib kelgan qonunchilik cheklovlari va boshqa cheklovlar uchun javobgar bo'lmaydi.

4.5. Ushbu Umumiy shartlar bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida neustoyka to'lash va zararlarni qoplash Tarafni Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5. YAKUNIY QOIDALAR

5.1. Ushbu Umumiy shartlarda ko'zda tutilmagan hollarda Taraflar Kompleks shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

1-ilova
«POS terminali vositasida xizmat
ko'rsatish va to'lovlarni (savdo ekvayringi)
milliy valyutada qabul qilishning
umumiy shartlari»ga

Qurilmani topshirish-qabul qilish dalolatnomasi

Andijon shahri

Ushbu dalolatnoma quyidagilar haqida tuzildi: Bank plastik kartalar saqllovchilariga xizmat ko'rsatish uchun quyidagi Qurilmani topshiradi, Mijoz esa qabul qilib oladi:

Qurilmaning nomi	Soni (dona)	Bir donasining narxi
(so'm) seriya raqami	Inventar raqami	

Mulk topshirish vaqtida soz holatda.

Bank:
Topshirdi

Mijoz:
Qabul qildi

2-ilova
POS terminali vositasida xizmat
ko'rsatish va to'lovlarni (savdo ekvayringi)
milliy valyutada qabul qilishning
umumiy shartlari»ga

Qurilmani qaytarish dalolatnomasi

Ushbu dalolatnoma quyidagilar haqida tuzildi: Mijoz quyidagi Qurilmani topshiradi, Bank esa qabul qilib oladi:

Qurilmaning nomi	Soni (dona)	Bir donasining narxi
(so'm) seriya raqami	Inventar raqami	

Mulk topshirish vaqtida soz/nosoz holatda.

Mijoz:
Topshirdi

Bank:
Qabul qildi

"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga

“E-POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni (internet-ekvayring) milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari”

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ushbu e-POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlarida (internet-ekvayring) (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar”) quyidagi tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Bank (plastik) kartasi – O'zbekiston Respublikasining banki tomonidan emissiya qilingan, onlayn rejimda ishlaydigan va uning saqlovchisiga bank hisobraqamidan (karta hisobraqamidan) amaliyotlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi to'lov kartasi.

Mijoz – o'zi tomonidan sotiladigan tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron shakli uchun O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimlarining bank plastik kartalari yordamida texnik va huquqiy jihatdan elektron to'lovlarni qabul qilishga imkon beruvchi axborot resursiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt.

Mobil ilova – smartfonlarda, planshetlarda va muayyan platforma (iOS va Android) uchun ishlab chiqilgan boshqa mobil qurilmalarda ishlash uchun mo'ljallangan jismoniy shaxslarga (Mijoz) xizmatlarini taqdim etuvchi “Hamkor mobile” dasturiy ta'minoti.

To'lovchi – mijoz tomonidan sotiladigan tovarlar, xizmatlar, ishlar, raqamli/elektron shakliga haq to'lovchi muomalaga layoqatli jismoniy shaxs, jumladan bank plastik kartasining saqlovchisi.

Servis – internet-ekvayring bo'yicha, xususan, Mijozning tovarlari, xizmatlari, ishlari, raqamli/elektron shakli uchun foydalanuvchining bank kartasidan amalga oshiriladigan to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ishlashni tashkil etish bo'yicha xizmatlar.

Savdo ma'lumotlari parametrlari – foydalanuvchining bank plastik kartasidan o'tkazilgan elektron to'lovlarni ishlashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.

E-POS terminali – ABTdA (Avtomatlashtirilgan Bank Tizimi) ro'yxatga olinadigan Mijozning (tovarlar va xizmatlar/ishlarning yetkazib beruvchisi) virtual terminali.

QR-kod (Quick Response) – Mijozning hisobraqamiga to'lovlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni taqdim etuvchi, mobil telefondagi kamera yordamida tanib olish uchun qo'llaniladigan ikki o'lchamli shtrix kod.

1. ASOSIY QOIDALAR

1.1. Ushbu e-POS terminali vositasida xizmat ko'rsatish va to'lovlarni milliy valyutada qabul qilishning umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar”) elektron to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni ishlashda Taraflarning o'zaro hamkorligining tartib-tamoyillarini tartibga soladi:

- bank kartalaridan;
- bir lahzalik to'lov terminallari orqali to'lovlar;
- QR-kodlar;
- IOS va Android uchun ilovalar;
- WEB-ilovalar orqali;

shuningdek, **e-POS terminali orqali elektron to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ishlash shartnomasini** (keyingi o'rinlarda “Shartnoma”) tuzish.

1.2. Mijoz tomonidan to'lov amalga oshirilgan taqdirda Bank quyidagi xizmatlarni (keyingi o'rinlarda – Xizmatlar) ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi:

- Mijozning tovarlari va xizmatlari/ishlari uchun To'lovchining bank kartasidan amalga oshirilgan elektron to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish va ishlash uchun Mijozni servisdan ro'yxatdan o'tkazish;
- Xizmatlar ko'rsatish maqsadida ochilayotgan e-POS Mijozni ro'yxatdan o'tkazish va unga xizmat ko'rsatish;
- Mijozning hisob raqamiga pul mablag'larining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlash.

1.3. Servisda ro'yxatdan o'tish uchun Mijoz Bankka yozma ariza va zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

1.4. Xizmatlarning narxi Bank tomonidan e-POS terminali orqali muvaffaqiyatli ishlangan va Mijozning hisobraqamiga o'tkazilishi lozim bo'lgan har bir to'lovdan ushlab qolinadi.

2. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

2.1. Bankning majburiyatlari:

2.1.1. Mijozni identifikatsiyadan keyin 1 (bir) ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda Servisda ro'yxatdan o'tkazish. Bunda Mijozning texnik integratsiya muddati qurilmaning (uskunalar, billing, dasturiy ta'minot va boshqa texnik vositalar) texnik imkoniyatlariga bog'liq.

2.1.2. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish maqsadida ro'yxatdan o'tkazish va e-POS terminali orqali xizmat ko'rsatish;

2.1.3. To'lovchilardan Mijoz foydasiga olingan pul mablag'larining o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash;

2.1.4. Shartnoma doirasida olingan savdo ma'lumotlari parametrlarining maxfiyligini saqlash;

2.1.5. Ma'lumotlarni uzatish kanallarining xavfsizligini, ma'lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va ishonchliligini ta'minlash.

2.1.6. Ulanish uchun zarur bo'lgan Taraflar o'rtasidagi hamkorlikning texnik parametrlari haqidagi zarur ma'lumotlarni taqdim etish.

2.1.7. Axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda To'lovchilardan pul mablag'larini qabul qilish bo'yicha tizimga va xizmatlarga kechayu kunduz kirish imkoniyatini, shuningdek elektron xabarlarni uzatish va to'lovchilarning to'lovlari bo'yicha ma'lumot almashish bilan bog'liq boshqa harakatlarni amalga oshirishni ta'minlash, jumladan to'lovlar haqida ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish, rejali va rejadan tashqari profilaktika ishlarini o'tkazish davrlari bundan mustasno.

2.1.8. Tizim uchun aloqa xizmatlarini ta'minlovchi tizim va kommunikatsiyalarning ishidagi har qanday uzilishlar haqida Mijozga xabar berish.

2.1.9. Mijoz ushbu xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlarini buzgan taqdirda yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra xizmat ko'rsatishning to'xtatib qo'yilishi haqida, shuningdek, Shartnoma doirasida Mijozning manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lgan barcha faktlar haqida xizmat ko'rsatish kanallari, elektron pochta yoki rasmiy xabarnoma orqali Mijozni oldindan ogohlantirish.

2.2. Mijozning majburiyatlari:

2.2.1. Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish, tartib va shartlarga rioya qilish.

2.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, jumladan elektron tijorat sohasidagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish.

2.2.3. Taraflarning Shartnoma shartlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlar, jumladan: o'z nomi, yuridik manzili, haqiqiy manzili, internet-sayt manzili, shuningdek rekvizitlardagi boshqa o'zgarishlar haqida Bankni uch kun ichida yozma ravishda xabardor qilish.

2.2.4. Uch (3) ish kuni ichida savdo va xizmat ko'rsatish faoliyat turi (MCC kodi) ning o'zgarishi haqida Bankka ma'lumot taqdim etish;

2.2.5. O'zbekiston Respublikasining elektron tijoratni amalga oshirishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, savdo qoidalariga, xizmat ko'rsatish qoidalariga, shuningdek iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi qoidalarga rioya qilish.

2.2.6. To'lovchining korxonaning hisobraqamiga o'tkazgan summalari va ular haqidagi ma'lumotlar bilan Mijoz tomonidan Shartnomaga muvofiq taqdim etilgan summalar o'rtasidagi farqlar sabablarini aniqlashda ishtirok etishni talab qilish.

2.2.7. To'lovchi tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan to'lovni bekor qilish (qaytarish).

2.2.8. Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini so'zsiz bajarilishini talab qilish.

2.2.9. Bankning so'rovi bo'yicha to'lovlarni qaytarish va tranzaksiya haqidagi ma'lumotlarni so'rov yuborilgan kundan keyingi kundan kechiktirmay Bankka taqdim etish. Bunda tovarlar/ishlar yoki xizmatlarni xalqaro to'lov tizimi kartalari bo'yicha qabul qilishni tasdiqlovchi

hujjatlar va ma'lumotlar (xaridor tovar yoki xizmatlarni olganligini tasdiqlovchi videokamera/mobil telefon yozuvlari, xaridor va tovarlarni aniq ko'rsatuvchi fotosuratlar, hisob-fakturalar va hokazo) xizmat ko'rsatilgandan so'ng kamida 120 kun davomida saqlanishi va Bank talabi bo'yicha Bankka taqdim etilishi kerak.

2.2.10. Haqi to'langan tovarlar (xizmatlar ko'rsatilmagan) yetkazib berilmagan, shuningdek, tovarning (xizmatning) nuqsonliligi yoki boshqa sabablarga ko'ra xaridor tomonidan qaytarilgan taqdirda Bank kartalari orqali qabul qilingan to'lov summalarini (xaridorga) qaytarish.

2.2.11. Mijozning aybi bilan terminal har kunlik inkassatsiya qilinmagan/ inkassatsiyadan bosh tortilgan taqdirda Bankka barcha xarajatlarni, jumladan foizlar summasini to'liq hajmda va bahs-munozarasiz qoplab berish.

2.3. Bankning huquqlari:

2.3.1. Mijoz Shartnoma shartlarini buzgan taqdirda xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama tartibda to'xtatib qo'yish.

2.3.2. Quyidagi hollarda Mijozga xizmat ko'rsatishni rad etish:

- mijozning noodatiy amaliyotlarining belgilari yoki bankning obro'si uchun xavf va/yoki moliyaviy xavf tug'diradigan holatlar aniqlanganda;

- amaldagi qonunchilik talablarini, jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash qonunchiligi talablarini buzish holatlari aniqlanganda.

2.3.3. Mijozning faoliyatida Bank uchun sezilarli zarar keltiradigan omillar yoki Bankning obro'si uchun xavf tug'dirish mumkin bo'lgan hollarda Mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash qonunchiligiga tegishli holatlar aniqlanganda, Mijoz tomonidan aniqlangan holatlar bartaraf etilgunga qadar Taraflar o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni to'xtatib qo'yish, mijozga amaliyotlarni kelgusi kalendar kundan boshlab to'xtatib qo'yish haqida elektron pochta orqali xabar yuborish. Bunda To'lovchining Mijoz foydasiga bo'lgan to'lovlar bo'yicha farmoyishlari o'z kuchida qoladi, agar bu amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasa.

2.3.4. Mijoz Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan va/yoki texnik xizmat tomonidan rejali profilaktika ishlari o'tkazilgan taqdirda Mijozni kamida 1 (bir) ish kuni oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda tizimning tegishli modullariga kirishni cheklash va to'xtatib qo'yish.

2.3.5. Bank mulki bo'lgan mavjud axborot-ma'lumot mahsulotlari va reklama materiallarining elektron namunalarini Mijozga Mijozning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun taqdim etish.

2.3.6. Qonunchilik talablari va to'lovlar xavfsizligini ta'minlash talablaridan kelib chiqqan holda moliyaviy amaliyotlar/tranzaksiyalarni amalga oshirish bo'yicha limitlarni bir tomonlama tartibda belgilash/o'zgartirish.

2.4. Mijozning huquqlari:

2.4.1. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilgan sifatli va uzluksiz xizmatlardan O'zbekiston Respublikasining ijroya, sud yoki qonun chiqaruvchi hokimiyati organlari tomonidan kiritilgan cheklovlarni hisobga olgan holda foydalanish.

2.4.2. O'z sotuvlarining hajmini oshirish maqsadida, Servisning huquq egasini muqarrar esga olish sharti bilan Bank yoki Servisni reklama qilish.

3. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARINI HAL QILISH TARTIBI

3.1. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

3.2. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchinchi shaxslarning aybi bilan yuz bergan taqdirda javobgar bo'lmaydilar. Bunday holda, Taraflar agar mavjud bo'lsa, uchinchi shaxslar bilan shartnomaviy munosabatlardan foydalangan holda xizmat ko'rsatishdagi uzilish sabablarini bartaraf etish uchun maksimal harakat qilish majburiyatini oladilar.

3.3. Bankning javobgarlik zonasi faqat ushbu Umumiy shartlarda aks ettirilgan majburiyatlar bilan cheklangan. Servisdagi texnik nosozliklar, shuningdek, uchinchi tarafning aybi bilan yuz bergan, xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha yoki butunlay to'xtashiga olib kelgan qonunchilik cheklovlari va boshqa cheklovlar uchun javobgar bo'lmaydi.

3.4. Tarafning Ushbu Umumiy shartlar bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida neustoyka to'lashi va zararlarni qoplashi Tarafni Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

3.5. Ushbu Umumiy shartlar va Shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan yoki kelib chiqqan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki e'tirozlar, jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, bajarilishi, buzilishi, bekor qilinishi, to'xtatilishi, haqiqiy emasligi yoki tuzilmaganligi (to'liq va/yoki qisman) bilan bog'liq barcha masalalar Kompleks shartnomada belgilangan tartibda hal qilinadi.

4. YAKUNIY QOIDALAR

4.1. Ushbu Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan hollarda, Taraflar Kompleks shartnoma qoidalariga amal qiladilar.

"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari uchun kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga

“MARTA” virtual to'lov terminallariga xizmat ko'rsatish va to'lovlarni qabul qilish bo'yicha umumiy shartlari”

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

MARTA virtual to'lov terminallari uchun ushbu Umumiy xizmat ko'rsatish shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar” deb yuritiladi) quyidagi tushuncha va atamalardan foydalanadi:

Marta virtual mobil to'lov terminali - Internet tarmog'iga chiqish imkoniga hamda sensor ekranga ega bo'lgan mobil qurilma (smartfon, planshet) bazasida plastik kartalar bo'yicha to'lovlarni qabul qilish uchun Marta virtual to'lov terminalning SoftPOS rejimida (kontaktsiz to'lovlar) qo'llashda oldindan o'rnatilgan dasturiy va apparat ta'minoti (karta o'qigichi) yoki apparat ta'minotisiz elektron dasturiy - texnik qurilma.

Dasturiy ta'minot kompleksi – bankka tegishli bo'lgan, terminallar orqali to'lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy apparat qurilmalari to'plami.

Avtorizatsiya - saqlovchisi kartasini qo'llash bilan amaliyotlarni o'tkazish uchun bank-emitent tomonidan taqdim etiluvchi va to'lovni bajarish bo'yicha uning majburiyatlarini yuzaga keltiruvchi ruxsatnoma.

Protssessing markazi - xalqaro to'lov tizimlari munosabati bilan avtorizatsiyani o'tkazilishini va amaliyotlarni amalga oshirish bo'yicha ma'lumotlarga ishlov berilishini ta'minlovchi bankning dasturiy-apparat majmuasi.

To'lov - xarid qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni o'tkazishda saqlovchining kartasidan mablag'larni chegirib qolishga avtorizatsiya so'rovi.

Yakunlarni qiyoslash - terminal ishini muvaffaqiyatli yakunlanganligini tasdiqlovchi bankning protssessing markazi bilan avtorizatsiyani terminal tomonidan o'tkazilgan qiyoslashining axborot amaliyoti.

Kliring fayli - har bir amaliyot kun uchun amalga oshirilgan to'lov amaliyotlari bo'yicha o'rnatilgan shakldagi hisobot. Ushbu xisobot (elektron hujjat ko'rinishida) bankga "Mayasoft" MCHJ tomonidan taqdim etiladi.

Karta – Bank yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki – Xalqaro temir yo'l ishtirokchisi tomonidan chiqarilgan, bank bilan kartalarga o'zaro xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli shartnomalarga ega bo'lgan amaldagi bank kartasi (shu jumladan korporativ).

Karta egasi - kartani to'lov vositasi sifatida taqdim etuvchi jismoniy shaxs. Kartaning old tomonida Egasining nomi (yoki korporativ karta uchun kompaniya nomi) ko'rsatilgan.

Tranzaksiya - Mijozning xodimi tomonidan Uskuna va taqdim etilgan kartadan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lov. Tranzaksiya karta egasi tomonidan PIN kod yordamida tasdiqlanadi.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. “MARTA” virtual to'lov terminallariga xizmat ko'rsatishning umumiy shartlarining ushbu Umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar” deb yuritiladi) MARTA virtual to'lov terminallari xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha BANK va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. qo'shma qayta hisob-kitoblarni amalga oshirish, "MARTA" virtual to'lov terminallari yordamida to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, shuningdek, "MARTA" virtual to'lov terminallari (keyingi o'rinlarda deb yuritiladi) yordamida to'lovlarni amalga oshirish to'g'risida Shartnoma tuzishda tomonlarning o'zaro munosabatlari tartibini tartibga soladi. Shartnoma").

1.2. Mijoz, Bank tomonidan taqdim etilgan Dasturiy ta'minot paketidan foydalangan holda, tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lovni qabul qiladi.

1.3. Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Mijoz Bank Tariflariga muvofiq Dasturiy ta'minot kompleksidan foydalanganlik uchun ijara to'lovi va tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun komissiya to'lash majburiyatini oladi.

Ushbu Shartnoma MARTA virtual to'lov terminallari xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha BANK va MIJOY o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va birgalikda qayta hisob-kitoblar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2. UMUMIY QOIDALAR

2.1 Bank mijozga Mobil telefon apparati taqdim etish majburiyatini olmaydi.

2.2 To'lovlarning o'tkazilishi internet tarmog'i va uyali aloqa protokollari orqali bankning protsessing markaziga marta virtual mobil to'lov terminalni ulash yordamida amalga oshiriladi.

2.3 Sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun mijoz tomonidan qabul qilinuvchi milliy va xalqaro to'lov tizim karta turlari ro'yxati:

- Humo;
- Uzcard;
- Visa;
- Mastercard.

2.4. Avtorizatsiya muvaffaqiyatli o'tkazilganligi uning karta saqlovchisining bank-emitenti tomonidan tasdiqlash holatida hisoblanadi. Bunda mobil terminal karta saqlovchisiga elektron ko'rinishda amaliyot qiymatini saqlovchi chekni, karta saqlovchisining va Mijozning ma'lumotlarini, to'lovni muvaffaqiyatli o'tkazilganligi va avtorizatsiya kodi haqida xabarni yuboradi.

Avtorizatsiya kodi marta virtual mobil to'lov terminalda amaliyotni amalga oshirishda protsessing markazidan olingan bo'lishi kerak.

2.5. O'tkazilgan amaliyotlarni tasdiqlash va tekshirish maqsadida mijoz natijalarni qiyoslash amaliyotini amalga oshiradi. Bunda, protsessing markazi tomonidan avtorizatsiyani o'tkazilish yakunlari tekshiriladi va hisob-kitoblarni o'tkazish shartlariga binoan mijoz hisobiga marta virtual mobil to'lov terminalda to'langan qiymatlarni o'tkazish uchun ma'lumotlarni tayyorlaydi.

2.6. Muvaffaqiyatli avtorizatsiya (to'lovda yoki qaytarishda) va yakunlarni qiyoslash o'rtasidagi oraliq vaqt 3 ish kunidan oshmasligi kerak.

2.7. Mijoz tomonidan "yakunlarni qiyoslash" amaliyotini o'tkazish imkonsizligi holatida o'tkazilgan to'lovlar bo'yicha qoplashni o'tkazish uchun marta virtual mobil to'lov terminalning ishdan chiqishi munosabati bilan birinchi qiyoslanmagan avtorizatsiya o'tkazilish paytidan 3 ish kuni davomida mijoz bankga yakunlarni qo'lda qiyoslash arizasini taqdim etishi kerak. Tafovutlar mavjud bo'lmagan holatda, mablag'larni qoplash mijoz yozma murojaat qilgan paytdan boshlab 10 ish kuni davomida Protsessing markaz tomonidan bankka taqdim etiladi.

2.8. Mijoz mazkur shartnomaning 3-bo'limida ta'riflangan talablarga javob bermaydigan va tovarlarni yoki xizmatlarni to'lashda marta virtual mobil to'lov terminal bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomaga rioya etmaslik bilan amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha bankga moliyaviy e'tirozlarni taqdim etishga haqli emas.

3. HISOB-KITOBLARNI O'TKAZISH SHARTLARI

3.1 Marta virtual mobil to'lov terminallari orqali mahalliy yoki xalqaro bank kartalaridan to'lovlar amalga oshirilganda, har bir tranzaksiya summasidan amaldagi bank tarifida ko'rsatilgan miqdorida komission to'lov to'lash.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1 **Bankning majburiyatlari:**

4.1.1 Bankning Protsessing markazida Mijozning ro'yxatdan o'tkazilishini amalga oshirish.

4.1.2 "Marta" servisi orqali Avtorizatsiyani o'tkazishga so'rov bilan Mijozdan elektron xabarlarining Bankning Protsessing markazi bilan qabul qilinishini ta'minlash.

4.1.3 "Marta" servisi orqali Mijozga Bankning Protsessing markazidan Avtorizatsiya natijalari

bilan elektron xabarlarni uzatilishini ta'minlash.

4.2 Bankning huquqlari:

4.2.1 Bank filiallari binolarida, hamda Bankning rasmiy saytida www.hamkorbank.uz e'lonlarni joylashtirish yo'li bilan o'zgartirishlarning kuchga kirguniga qadar 10 ish kunidan oldin tariflarni o'zgartirilishi haqida Mijozni xabardor qilib, terminalga xizmat ko'rsatishga tariflarning bir tomonlama tartibda o'zgartirish.

4.2.2 Mijozning topshiqnomalarisiz (rozilgisiz) mazkur shartnoma bo'yicha qarzдорlik qiymatlarini (komissiyalar va boshqalarni) uning milliy valyutadagi (shundaylarning Bankda mavjudligida) hisoblaridan chegirib qolish.

4.2.3 Mazkur shartnoma munosabati bilan bankga ma'lum bo'lib qolgan mijozga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni (jumladan quyidagi rekvizitlarni: yuridik/pochta manzili, telefon/faks raqami, elektron pochta/sayt manzili, bank rekvizitlari, rahbarning (yagona ijrochi organing) shaxsiy ma'lumotlari), hokazolar) tovarlarni/ishlarni/xizmatlarni to'lash amaliyotlarini o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash va firibgarlikni oldini olish bo'yicha xalqaro to'lov tizimlari dasturlarida ushbu ma'lumotlarning qo'llanilishi maqsadida xalqaro va milliy to'lov tizimlariga taqdim etish.

4.2.4 O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasiga oid me'yoriy hujjatlarga muvofiq mijozni lozim darajada tekshirish va operatsiyaga doir tegishli hujjatlarni talab qilib olish.

4.3 Mijozning majburiyatlari:

4.3.1 Mobil terminal bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomaning talablariga javob beruvchi saqlovchilarning taqdim etiluvchi kartalarini to'lov vositalari sifatida tan olish.

4.3.2 Muvaffaqiyatli avtorizatsiya o'tkazilishidan keyin 3 ish kunidan kechiktirmasdan yakunlarni qiyoslash amaliyotini o'tkazish.

4.3.3 Mazkur shartnoma bilan ko'zda tutilgan komissiyalarni o'z vaqtida to'lash;

4.3.4 Mazkur shartnomaning, unga ilovalarning talablarini buzgan holda kartalar yordamida to'langan bitimlarga nisbatan o'z xodimlarini harakatlari uchun bank oldidagi javobgarlikni to'liq hajmda o'z zimmasiga olish;

4.3.5 Bank va "Mayasoft" MCHJ tomonidan taqdim etilgan reklama va axborot materiallarini (xalqaro va milliy plastik kartalariga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ko'rsatuvchi) Mobil terminal o'rnatilish joylari bo'yicha joylashtirish;

4.3.6 Protsessing markaziga Mobil terminalni ulash uchun zarur bo'lgan aloqaning telekommunikatsiya kanallarini Mijoz muvofiq xizmatlar provayderlarida buyurtma beradi va ularning ulanish va ekspluatatsiya qilinish narxlarini mustaqil to'laydi;

4.3.7 Uch (3) ish kuni ichida savdo va xizmat ko'rsatish faoliyat turi (MCC kodi) ning o'zgarishi haqida Bankka ma'lumot taqdim etish.

4.4 Mijozning huquqlari:

4.4.1 Taqdim etilgan Mobil terminalni qo'llash bilan amalga oshirilgan tranzaksiyalar tafsilotlari bilan inkassatsiya qilingan foyda aylanmasi bo'yicha hisobotni bankdan yozma so'rab olish;

4.4.2 Bank tariflaridagi o'zgartirishlar bilan norozilik bildirish holatida ularning kuchga kirish paytigacha shartnomani bekor qilish.

4.4.3 Bankdan shartnoma shartlarini bajarilishini talab qilish.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1 Shartnoma bilan ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uni bekor qilishga asoslarni beradi.

5.2 Bir tomon bilan shartnoma predmeti bilan bog'liq biron bir ziyonning boshqa tomonga yetkazilish holatida, aybdor tomon zararni qoplaydi.

5.3 Bank quyidagilar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi:

5.3.1 Shartnomaning shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq kelmaydigan yoki zid keluvchi amaliyotlar bo'yicha to'lovlarni qoplash bo'yicha;

5.3.2 Mijoz tomonidan bank rekvizitlarining o'zgartirilishi haqida o'z vaqtida xabar bermaslik bilan keltirib chiqarilgan to'lovlarning ʻolib ketganda;

- 5.3.3 Bank tomonidan bu haqda xabardor qilish paytidan 10 ish kunidan kech muddatda shikoyatlar kiritilgan chardjbeklar bo'yicha e'tirozlar bildirilganda;
- 5.3.4 Mijoz tomonidan bank kartasi yechilish jarayonida yoki boshqa xollarda uchinchi shaxsning firibgarlik harakatlariga;
- 5.3.5 Mojaroviy holat yuzaga kelishi oqibatida ya'ni nazoratdan tashqari doirada bo'lishi, tashqi to'lov tizimining to'xtab qolishi, hisob-kitoblar, qayta ishlash va ma'lumotlarni uzatish bilan bog'liq bo'lgan xollarda;
- 5.3.6 Mijozning manfaatlariga dahl qilinishi mumkin bo'lgan limitlar, cheklashlar va qo'shimcha haqlar bo'yicha;
- 5.4 Mijoz quyidagi javobgarliklarni o'z zimmasiga oladi:**
- 5.4.1 Bankga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarning to'g'riligi uchun;
- 5.4.2 Plastik kartalar bo'yicha Mobil terminalni qo'llash bilan qabul qilinuvchi to'lovlarning qonuniyligi va asoslanganligi uchun.
- 5.4.3 Mazkur shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, bankka yetkazilgan zararni to'liq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi va to'laydi.
- 5.4.4 Mijoz tomonidan "Marta" virtual mobil terminalini boshqa foydalanuvchilarga berilgan xollarda, ushbu jarayon davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun mijoz shaxsan javobgardir.
- 5.4.5 Agar ruxsat etilmagan to'lovlar tashabbuskorlarning firibgarlik xarakatlari natijasida yoki o'zining identifikatsiyalash vositalari himoya qilinishini ta'minlash uchun choralar ko'rilmaganligi oqibatida sodir etilgan bo'lsa, tashabbuskor ruxsat etilmagan to'lovlar tufayli yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'ladi.
- 5.4.6 Mijoz tomonidan xato amalga oshirilgan operatsiyalarda bank javobgarligi xato amalga oshirilgan operatsiyalarni bekor qilish bilan cheklanadi.

6. MAXFIYLIK

- 6.1 Mijoz, Bank singari, shartnomani bajarish doirasida ular tomonidan olinuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 6.2 Shartnoma predmeti bilan bog'liq bo'lgan tomonlar bilan bir-birlariga taqdim etiluvchi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Tomonlar bunda ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilishini oldini olish uchun barcha zaruriy va yetarlicha choralarni ko'radi.
- 6.3 Mobil terminalda amaliyotlar amalga oshirilayotgan karta saqllovchilarining shaxsiy ma'lumotlari, maxfiy hisoblanadi. Karta saqllovchilarining yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

"Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari uchun kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga

“Mijozlar QR-kod (QR online) xizmatidan foydalanishning umumiy shartlari”

ATAMA VA TUSHUNCHALAR

QR-kod (QR onlayn) xizmatini taqdim etishning ushbu Umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar” deb yuritiladi) quyidagi tushuncha va atamalardan foydalanadi:

QR-online - smartfon yordamida xaridlar uchun kontaktsiz to'lovlarni amalga oshirish usullaridan biri. QR kod - bu bank va to'lov ilovasi orqali tovar va xizmatlar uchun tezkor to'lov uchun havola.

Avtorizatsiya - bu karta egasi tomonidan bank-emitent tomonidan kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatdir va uning to'lov majburiyatlarini yaratadi.

Protsessing markazi - bu xalqaro to'lov tizimlari orqali tranzaksiyalar bo'yicha avtorizatsiyani uzatish va ma'lumotlarni qayta ishlashni ta'minlaydigan bankning apparat-dasturiy kompleksi.

Dasturiy ta'minot to'plami - bank to'lov dasturi.

To'lov - sotib olingan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovni o'tkazishda egasining kartasidan pul mablag'larini hisobdan chiqarishga ruxsat berish talabi.

Natijalarni taqqoslash - bu terminal tomonidan amalga oshirilgan avtorizatsiyani bank protsessing markazi bilan taqqoslash bo'yicha ma'lumot amaliyoti bo'lib, terminal faoliyati muvaffaqiyatli yakunlanganligini tasdiqlaydi.

Kliring fayli - har bir operatsiya kuni uchun amalga oshirilgan to'lov operatsiyalari to'g'risidagi qat'iy shakldagi hisobot. Mazkur hisobot (elektron hujjat shaklida) “Mayasoft” MChJ tomonidan bankka taqdim etiladi.

Karta – Bank yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banki – Xalqaro temir yo'l ishtirokchisi tomonidan chiqarilgan, bank bilan kartalarga o'zaro xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli shartnomalarga ega bo'lgan amaldagi bank kartasi (shu jumladan korporativ).

Karta egasi - kartani to'lov vositasi sifatida taqdim etuvchi jismoniy shaxs. Kartaning old tomonida Egasining nomi (yoki korporativ karta uchun kompaniya nomi) ko'rsatilgan.

Tranzaksiya - Mijozning xodimi tomonidan Uskuna va taqdim etilgan kartadan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lov. Tranzaksiya karta egasi tomonidan PIN kod yordamida tasdiqlanadi.

1. SHARTNOMANING MAVZUSI (PREDMETI)

1.1. QR-kod (QR onlayn) xizmatini taqdim etishning ushbu Umumiy shartlari (keyingi o'rinlarda “Umumiy shartlar” deb yuritiladi) Mijozning savdo va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchiga taqdim etilishi bo'yicha Bank va Mijoz o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. “QR onlayn” QR-kod xizmati orqali quyidagi joylarda to'lovlarni qabul qilish imkoniyati bilan va Mijoz xizmatlarni qabul qiladi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi, to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlashda Tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibi. QR-kod (QR onlayn)", shuningdek QR-kod (QR onlayn) xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzish" (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb yuritiladi).

1.2. Mijoz, Bank tomonidan taqdim etilgan Dasturiy ta'minot paketidan foydalangan holda, tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lovni qabul qiladi.

1.3. Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Mijoz Bank Tariflariga muvofiq Dasturiy ta'minot kompleksidan foydalanganlik uchun ijara to'lovi va tranzaksiyalarni qayta ishlash uchun komissiya to'lash majburiyatini oladi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- Mijozga QR online tizimi orqali to'lovlarni qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi va ushbu tizimda ishlash uchun mijozga yaroqli QR-kod ochib beradi;
- Mijozga to'lovlarni QR online xizmati orqali qabul qilish va foydalanish qoidalarini o'rgatadi;

- to'lovlarni QR online xizmati orqali qabul qilganda to'lovlarni bir bank ish kunida hisob varaqlarga o'tkazib berishni ta'minlaydi;
 - to'lovlarni QR online xizmatidan foydalanish uchun mijoz arizasiga ko'ra 23520 hisob raqami ochadi xamda ushbu hisob raqamni mijozning asosiy yoki ikkilamchi hisob raqamiga biriktirib beradi;
 - Bank QR online xizmatidagi tarif o'zgarishlari bo'yicha ma'lumotlarni mijozga kamida 10 kun oldin ushbu shartnomada ko'rsatib o'tilgan telefon raqamiga SMS jo'natish orqali xabardor qiladi;
- 2.2. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
- QR online xizmati orqali kelib tushgan xar qanday to'lovlar bo'yicha umumiy mablag'lar summasidan amaldagi bank tarifiga asosan komission to'lov to'lash;
 - to'lovlarni QR online xizmati orqali qabul qilish jarayonida aniqlangan nosozliklar to'g'risida bankka bir bank ish kunida xabar beradi;
 - Bank tomonidan berilgan QR online belgisini savdo nuqtasiga barcha fuqarolarga ko'rinishi lozim bo'lgan joyga joylashtiradi;
 - Bankka taqdim etilgan ma'lumotlari (yuridik manzillari, nomi, uyali aloqa vositalari raqamlari) o'zgargan taqdirda bankka bir bank ish kunida xabar beradi.
 - Mazkur shartnoma bo'yicha Mijoz to'lovlarni uzluksiz qabul qilish uchun yaratilgan infratuzilmani doimiy ishchi xolatda bo'lishini ta'minaydi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- Mijoz tomonidan QR online orqali to'lovlarni qabul qilish qoidalariga rioya qilinishini talab qiladi;
- to'lovlarni QR online tizimi orqali qabul qilganligi uchun shartnomaning 2.2 bandida ko'rsatib o'tilgan amaldagi bank tarifiga asosan komission to'lovlarni memorial order bilan mijozning hisobvarag'idan undiradi;

3.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- QR online orqali qabul qilingan to'lovlarni o'z vaqtida hisobvaraqlarga o'tkazib berilishini talab qiladi;
- istalgan vaqtda yozma ravishda Bankni xabardor qilgan holda QR online dan foydalanish huquqidan voz kechish bo'yicha ALOQA XATI taqdim etadi;
- Quyidagi usullarda Bankdan Mazkur shartnoma bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi usullarda olish; (uyali aloqa raqamini kiritish kerak)

1. Uyali aloqa raqamiga SMS xabarnoma orqali ; (uyali aloqa raqami; 998_____)

(mijozning imzosi)

2. Pochta xizmati orqali;

(mijozning imzosi)

3. Shaxsan mijozga aloqa xati orqali;

(mijozning imzosi)

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Bank va Mijoz ushbu Shartlar bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun Bank hisobvarag'i va kompleks bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnoma hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

4.2. Bank quyidagi hollarda jarima to'lashdan ozod qilinadi:

- a) Fors-major holatlari, shu jumladan, banklararo elektron to'lovlar tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan uzilish;
- 6) Bank mijoz tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;
- b) Qonunlarda belgilangan tartibga bank yoki mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda;

r) Boshqa qonun hujjatlarida belgilangan xollarda.

4.3. Mazkur bo'limda nazarda tutilgan jarima jazo choralarini qo'llash sud qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4.4. “Mijoz” va Fuqarolar o'rtasida munosabatlar Bankning ishtirokisiz mustaqil ravishda olib boriladi.

Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga

““Hamkorbank” ATB tizimidagi masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning ommaviy ofertasi”.

Ushbu Ommaviy ofertada “Hamkorbank” ATB (bundan keyin - Bank) tizimida jismoniy va yuridik shaxslarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasining umumiy shartlari mavjud. Shartnoma Mijoz tomonidan ushbu Shartnomani tuzish tartibini, shuningdek Mijozga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning shartlari va tartibini belgilaydi va tartibga soladi. Ushbu Ommaviy ofertada ko'rsatilgan harakatlarni bajarish Mijozning Shartnomani ushbu Ommaviy ofertada bayon etilgan shartlarda, tartibda va hajmda tuzishga roziligini tasdiqlaydi. Ommaviy ofertaning quyida bayon etilgan matni Bank tizimida identifikatsiyalash tartib-tamoyilidan o'tgan barcha jismoniy va yuridik shaxslarga mo'ljallangan, Shartnomani O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 358, 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq tuzish uchun rasmiy ommaviy taklif hisoblanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu shartlar (bundan keyin – Ommaviy oferta/Shartnoma/Qo'shilish shartnomasi) bank tomonidan o'rnatilgan va Bankning internet tarmog'idagi www.hamkorbank.uz WEB-saytida yoki davriy nashrlarida chop etilgan va bankning barcha bank xizmatlari ofislarida va bo'limlarida (BXKB) joylashtirilgan.

1.2. Ushbu shartlar Bankning barcha mijozlari uchun yagona bo'lib, mijozlar ushbu shartnomada ko'rsatilgan muayyan harakatlarni amalga oshirgan holda ushbu ofertaning shartlarini to'liq qabul qiladilar, mijoz bunga so'zsiz rozi bo'ladi. Ushbu oferta Mijoz tomonidan ushbu shartnoma shartlarini qabul qilishga Bank tomonidan belgilangan shakllarda ariza berish; Mijoz va Bank o'rtasida istalgan valyutadagi hisobraqamga xizmat ko'rsatish shartnomasini ushbu oferta shartlari tegishli manbalarda e'lon qilingan paytdan e'tiboran tuzish; Mijoz (mijozning vakili) tomonidan xohish-iroda bildirish, ya'ni aloqa kanallari orqali masofaviy xizmatlarni olish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali; Mijozni Bankning saytida yoki internet-banking tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali qabul qilingan (akseptlangan) hisoblanadi.

1.3. Ushbu Shartnoma tuzilgan taqdirda Mijozga masofaviy bank xizmatlarini (bundan buyon – MBX) taqdim etish uchun Mijozni identifikatsiya qilish, shuningdek, login, parol bo'yicha autentifikatsiya qilish va/yoki masofaviy bank xizmatlari amaliyotlarini amalga oshirishda bir martalik paroldan foydalangan holda Mijozni dinamik autentifikatsiya qilish yoki Mijoz/mijozning vakili tomonidan kirish kodini xabar qilish, kompaniyaning vakolatli shaxslarining (rahbariyat) shaxsiy ma'lumotlari, mijozning korxonasi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilish asos hisoblanadi. Ushbu ofertaning matnida “Mijoz”ga havola ko'rsatilgan taqdirda, mijoz va uning vakili tushuniladi.

1.4. MBX ko'rsatish, jumladan aloqa kanallari orqali bank xizmatlari ko'rsatish internet tarmog'i va/yoki uyali aloqa vositasida amalga oshiriladi.

1.5. Mijoz va Bank o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda foydalaniladigan, Mijoz tomonidan MBX tizimida muvaffaqiyatli avtorizatsiya qilingan ma'lumotlar qog'oz tashuvchidagi tegishli hujjatlarga teng deb e'tirof etiladi va Taraflarning ushbu Shartnoma bo'yicha shu kabi huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi (O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq qog'oz tashuvchida taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar va shartnomalar bundan mustasno).

1.6. Umumiy shartlarni tuzgan/qabul qilgan Mijoz va Bank Shartnomada belgilangan barcha shartlar va majburiyatlarni qabul qiladilar.

1.7. Ushbu ofertani Mijoz tomonidan qabul qilish Bank bo'limida belgilangan namunadagi arizani imzolash va/yoki MBX tizimida/Internet-bankingda masofadan turib ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shartnomaga qo'shilish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- MBX tizimida bir martalik parol bilan faollashtirish orqali ro'yxatdan o'tishda;
- quyidagi aloqa kanallari bo'yicha Bankka qo'ng'iroq qilishda va Autentifikatsiya tartib-tamoyilidan o'tishda;
- MBX tizimiga ulanishga rozilik bildirgan holda Bank arizalarini imzolash orqali avtomatik ro'yxatdan o'tishda.

1.8. MBX tizimida bank elektron aloqa kanallari orqali uzatiladigan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlovchi texnologiyadan foydalanadi.

1.9. Mijozning nomidan MBX tizimida amalga oshirilgan barcha amaliyotlar uchun javobgarlik va majburiyatlarni Mijoz o'z zimmasiga oladi: Bank uchinchi shaxslar tomonidan ularga ma'lum bo'lib qolgan hisobraqamga kirish usullaridan foydalangan holda Mijoz nomidan MBX tizimida amaliyotlarni amalga oshirilganligi, to'lovning yoki pul o'tkazmasining sanksiyalanganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

1.10. Mijoz o'z rekvizitlari, jumladan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaganligi, shuningdek MBX tizimida amaliyotlarni ishonchsiz rekvizitlardan foydalangan holda amalga oshirganligi uchun javobgar bo'ladi. Ushbu bandeda ko'rsatilgan hujjatlarning haqiqiy emas/amal qilish muddati tugagan taqdirda, Mijoz ma'lumotlarni aktualizatsiya qilish uchun Bankning savdo nuqtasiga tashrif buyurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.11. Mijozning nomidan amalga oshirilgan barcha amaliyotlar Mijoz tomonidan amalga oshirilgan hisoblanadi, shuningdek mijoz Bankka taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi haqida Bankka kafolat beradi va tasdiqlaydi.

1.12. Ushbu bilan Mijoz o'zining egaligida bo'lgan kompyuter va boshqa uskunalar, loginlar, parollar va Mijozni identifikatsiya qilishning boshqa vositalari Mijozniki ekanligiga so'zsiz rozi bo'ladi va Mijozning hisobraqami uning talabiga ko'ra Bank tomonidan bloklangunga qadar amalga oshirilgan Amaliyotlar bo'yicha Mijoz javobgar bo'ladi (jumladan, uchinchi shaxslarning MBX tizimiga va mijozning hisobraqamiga ruxsatsiz kirishiga shubhalar mavjud bo'lganda).

2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

2.1. **Autentifikatsiya** – identifikatsiyadan o'tgan mijozning ro'yxatdan o'tganligini va MBX tizimiga kirish imkoniyatini olganligini tasdiqlash tartib-tamoyili. Bunda autentifikatsiya mijoz/mijoz vakilining biometrik ma'lumotlarini tekshirish (bu bilan cheklanmagan holda) yoki ushbu ofertada ko'rsatilgan muayyan harakatlarni bajarish orqali amalga oshirilishi mumkin (bir martalik parollar yordamida ma'lumot almashish).

2.2. **Faollashtirish paroli** – bu mijozning mobil telefoniga SMS-xabar tarzida yuboriladigan raqamli timsollardan iborat bir martalik parol bo'lib, ro'yxatdan o'tishni tasdiqlash va MBX tizimiga kirish imkoniyatini olish uchun xizmat qiladi;

2.3. **MBX** – autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirish uchun farmoyishlarni shakllantirish va ijro etish va/yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish: Mijoz Bankning aloqa markaziga qo'ng'iroq qilishi va/yoki tegishli harakatlarni Bankning internet tarmog'idagi veb-sayti va/yoki Internet-Bank va/yoki Mobil Bank va/yoki SMS-Banking va/yoki boshqa xizmat ko'rsatish kanallari (jumladan elektron pochta) va/yoki uyali aloqa kanallari, jumladan SMS-xabarlar orqali amalga oshirish yo'li bilan bajariladi.

"Internet-banking", "mobil banking" dasturlari mijozga o'z hisobraqamining holati va pul aylanmasi to'g'risida ma'lumot olish, elektron to'lov topshiriqnomalarini o'tkazish, dasturning imkoniyatlari doirasida bank xizmatlari to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

"SMS-banking" dasturiy kompleksi mijozga uning asosiy va ikkilamchi hisobraqamlarining holati va aylanmasi to'g'risida ma'lumotlarni mijozning arizasida ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS shaklida, hisobraqamdagi har bir pul harakatidan so'ng taqdim etadi. Shuningdek, mijoz ushbu raqam bo'yicha ma'lumotni qo'llash bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan tartibda SMS-so'rov yuborgan holda olishi mumkin.

2.4. **Imkoniy (mavjud) qoldiq** – Mijozning bankdagi hisobraqamlaridagi pullar summasi;

- 2.5. **Korporativ karta (biznes-karta)** — bu xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobraqamiga bog‘langan bank kartasi.
- 2.6. **Ariza** – mijoz tomonidan bankka taqdim etiladigan, mijoz tomonidan qog‘oz tashuvchida to‘ldirish uchun mo‘ljallangan (MBH tizimiga ulanish haqida ariza), Mijozning kelgusida MBH tizimidan foydalanish maqsadida shartnoma tuzishga qaytarib olinmaydigan ofertasini (taklif) o‘z ichiga olgan rasmiy yozma shakl.
- 2.7. **Identifikatsiya** – tijorat banki tomonidan mijozlar haqidagi ma’lumotlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlar, ochiq manbalarda va ma’lumotlar bazalarida mavjud bo‘lgan qo‘shimcha tasdiqlangan ma’lumotlar asosida mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida aniqlash;
- 2.8. **Login** – MBX tizimi foydalanuvchisining timsollarda ifodalangan hisob yozuvining nomi;
- 2.9. **Amaliyot** – mijozning hisobraqamlarida aks ettirilishi lozim bo‘lgan har qanday amaliyot (tranzaksiya), jumladan kartadan foydalangan holdagi chiqim amaliyotlari (naqd pulsiz to‘lov, naqd pullar olish va hk.), pullarni hisobraqamga naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda kiritish yoki bank amaliyotlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan maslahat xizmatlarini ko‘rsatish (elektron bank xizmatlari);
- 2.10. **Parol** – faqat mijozning o‘ziga ma’lum bo‘lgan, mijozga login bilan berilgan va mijozni MBX tizimida autentifikatsiya qilish uchun foydalaniladigan timsollar ketma-ketligi.
- 2.11. **Bir martalik parol (BMP)** – bir martalik parol (seans paroli) – dinamik identifikatsiya tizimining mijoz tomonidan mobil telefon raqamiga SMS-xabar ko‘rinishida yoki muhrlangan PIN-konvertida olinadigan parol. Mijozni qo‘shimcha autentifikatsiya qilish va uning amaliyotlarini tasdiqlash uchun foydalaniladi;
- 2.12. **Xizmatlar yetkazib beruvchisi** – foydasiga to‘lovlar amalga oshirilayotgan aholiga turli xildagi xizmatlar taqdim etuvchi yuridik shaxs.
- 2.13. **Hisobraqam** – O‘zR qonunchiligining talablariga muvofiq tuzilgan bank hisobraqami shartnomasi asosida Mijozga bank tomonidan ochilgan va MBX tizimi doirasida xizmat ko‘rsatiladigan bank hisobraqami;
- 2.14. **Bank Tariflari** – Bank tomonidan mijozga Bank mahsulotlari/xizmatlari taqdim etish natijasida mijoz bankka to‘laydigan mukofot miqdori;
- 2.15. **Elektron bank xizmatlari** – Bank tomonidan mijozga telekommunikatsiya liniyalari, yo‘ldosh aloqasi yoki aloqaning boshqa turlari orqali taqdim etiladigan bank xizmatlari;
- 2.16. **Elektron hujjat** – mijozning/bankning MBX tizimida amaliyotni amalga oshirish to‘g‘risidagi, Shartnomada nazarda tutilgan elektron shaklda tuziladigan va bankka/mijozga topshiriladigan farmoyish. Bunda mijoz masalani hal qilishni tezlashtirish uchun hujjatlarning skanerlangan nusxalarini info@hamkorbank.uz va dbo@hamkorbank.uz elektron pochta orqali yuborishi mumkin.
- 2.17. **Kirish kodi** – mijoz bankka murojaat qilganda uni masofaviy xizmat ko‘rsatish kanallari orqali identifikatsiya qilishga imkon beruvchi PIN-kod, raqamli va/yoki harfli va/yoki grafik kodlar.

3. MBX TIZIMIDA BANK XIZMATLARINI TAQDIM ETISH SHARTLARI

- 3.1. Internet tarmog‘i orqali MBX tizimi bilan ishlash uchun mijoz quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:
- internet tarmog‘iga ulangan shaxsiy kompyuter yoki boshqa elektron qurilma;
 - internet brauzer dasturi (mazkur dasturlarning amaliyot o‘tkazish sanasidagi so‘nggi versiyalari).
- 3.2. Mijozni MBX tizimidan foydalanish shartlari/qoidalarini bilan tanishtirish MBX tizimining WEB-saytida/Bankning WEB veb-saytida kerakli ma’lumot materiallarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
- 3.3. Mijoz MBX tizimi orqali, tegishli ro‘yxatga muvofiq bank amaliyotlarini amalga oshirishi mumkin. Bunda mijozni unga MBX tizimida taqdim etilayotgan xizmatlarning amaldagi ro‘yxati va bankning amaldagi tariflari to‘g‘risida xabardor qilish Bank tomonidan ma’lumotlarni Bankning www.hamkorbank.uz rasmiy internet-saytida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

3.4. MBX tizimi Mijoz uchun kechayu-kunduz ochiqdir. To'lovlar va bankning ichki o'tkazmalari (konvertatsiyasiz) 24/7 ishlaydi. Konvertatsiya, banklararo va xalqaro o'tkazmalar Bankning ish vaqtida amalga oshiriladi.

3.5. MBX tizimi internetda manzili cheklanmagan holda joylashgan: <https://hamkorbank.uz/ebanking/>, qisqa bank raqami – 1256 (mobil operator tarifiga muvofiq to'lov undiriladi), 0 800 1 200 200 +998 (78) 150 91 25.

3.6. Mijozni MBX tizimida ro'yxatdan o'tkazish va unga kirish imkonini berish Bank bo'limi va MBX tizimi sayti orqali amalga oshiriladi.

3.7. Mijozni MBX tizimida ro'yxatdan o'tkazish va unga kirish imkonini berish Bank bo'limi tomonidan Mijozning Bank bo'limiga murojaat qilishi orqali amalga oshiriladi. Bankning vakolatli xodimi mijoz tomonidan imzolangan arizani olgach, Mijozni MBX tizimida ro'yxatdan o'tkazadi va MBX tizimiga kirish uchun Login taqdim etadi.

3.8. MBX tizimiga kirish uchun parol mijozning arizasiga ko'ra, arizada ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS xabar shaklida taqdim etiladi va/yoki mijoz parolni mustaqil ravishda yaratadi. Bank bo'limi orqali ro'yxatdan o'tishda amaliyotlarni MBX tizimida avtorizatsiya qilish uchun mijozga bir martalik parollarni olish usuli SMS xabar shaklida belgilanadi.

3.9. MBX tizimining sayti orqali ro'yxatdan o'tish va kirishni taqdim etish faqat bankda tegishli bank hisobraqamlariga ega bo'lgan mijozlar uchun mavjud bo'lib, mijoz tomonidan masofadan turib, MBX tizimining saytida amalga oshiriladi. MBX tizimining saytida ro'yxatdan o'tgan mijoz ushbu ofertani avtomatik ravishda imzolagan deb hisoblanadiki, mijoz bu haqda so'zsiz xabardor qilingan va bunga muqarrar ravishda rozi.

4. MBX TIZIMIDA AMALIYOTLAR O'TKAZISH TARTIBI

4.1. MBX tizimi orqali hisobraqamlar bo'yicha amaliyotlar mijozning bank hisobraqamlaridagi mablag'lar qoldig'i doirasida, ushbu amaliyot bo'yicha Bank tariflariga muvofiq komission mukofot miqdorini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. MBX tizimida amaliyotlarni amalga oshirish uchun mijoz xizmat turini tanlaydi (MBX tizimida ko'rsatilgan/bankning veb-saytida joylashtirilgan ro'yxatdan):

- tanlangan amaliyotning turidan kelib chiqib zarur parametrlarni kiritadi;
- Amaliyotni bir martalik parolni kiritish bilan tasdiqlaydi;
- Elektron hujjatni ijro etish uchun Bankka yuboradi;
- mijozning topshirig'iga ko'ra bank xodimi u yoki bu amaliyotni bajaradi/bajarishda ko'maklashadi yoki mijozga maslahat beradi.

4.2. MBX tizimi avtomatik rejimda bir martalik parolning haqiqiyligini va hujjatdagi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi. MBX tizimida tekshiruvdan o'tgan hujjatga "qabul qilingan" maqomi beriladi.

4.3. "Qabul qilingan" maqomiga ega bo'lgan hujjatlar MBX tizimi tomonidan avtomatik rejimda bank tizimlariga ijro uchun yuboriladi, shundan so'ng MBX tizimidagi hujjatlarga "Ijroda" maqomi beriladi.

4.4. Elektron hujjatlarning ijrosi Bankning ichki qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. Bank Mijozga MBX tizimida Elektron bank xizmatlarini taqdim etganda bu haqdagi Elektron hujjatlarning jo'natilganligi yoki olinganligi to'g'risida tasdiqnoma qoladi, Mijozning so'roviga ko'ra Bank Elektron hujjatlarning jo'natilganligi yoki olinganligi to'g'risida tasdiqnoma taqdim etadi.

4.6. Elektron hujjatlarning maqomi MBX tizimida ijro natijasi bilan birgalikda avtomatik ravishda aks etadi (rad etilgan hollarda sababining bayoni bilan).

4.7. Mijozdan qabul qilingan elektron hujjatlar avtomatik rejimda ishlanadi.

4.8. Mijozga uyali (mobil) aloqa orqali xizmat ko'rsatish mijoz autentifikatsiya tartib-tamoyilidan o'tgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunda mijoz topshiriqni bajarish uchun Bankka mijoz nomidan zarur bo'lgan harakatlarni sodir etishga vakolat beradi.

4.9. Ovozli menyu tizimi:

4.9.1. Ovozli menyu xizmati (IVR – Interactive Voice Response) – buning yordamida Mijoz

Bankning PIN-kodni o'rnatish, mavjud limitni so'rash va boshqalar kabi xizmatlarini olishi mumkin. Bank ovozli menyu tizimi orqali taklif qiladigan xizmatlar ro'yxati Bankning ixtiyoriga ko'ra kengaytirilishi/o'zgartirilishi mumkin.

4.9.2. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra, Mijozga ovozli menyu xizmati orqali PIN-kodni o'rnatish, Hisobraqam bo'yicha moliyaviy ma'lumotlarni olish imkoniyatini taqdim etishga haqli, shuningdek, mijoz Bankning ixtiyoriga ko'ra boshqa harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Bank istalgan vaqtda ovozli menyu xizmatining ishini to'xtatib qo'yishga va/yoki butunlay to'xtatishga haqlidir. Ovozli menyu xizmati texnik xizmat ko'rsatish yoki texnik nosozliklar vaqtida vaqtinchalik imkonsiz bo'lib qolishi mumkin.

4.9.3. Ovozli menyu xizmati Mijoz Bank tomonidan autentifikatsiya qilinganda taqdim etiladi.

4.9.4. Mijoz ushbu bilan o'zining Arizasida ko'rsatgan ro'yxatdan o'tgan raqamli mobil telefon (boshqa qurilma/uskuna) Mijozning egaligida va foydalanishida ekanligiga so'zsiz rozi bo'ladi, mijoz o'zi, bank hisobraqamlari va Kartasi haqidagi ma'lumotlar, ushbu hisobraqamlardagi qoldiqlar va pul harakatlari va boshqa, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni Mijozning mobil telefoniga (qurilmasiga/uskunalariga) yetishga imkoniyat topgan va Mijozning Arizasida ko'rsatilgan ro'yxatdan o'tgan raqamidan ovozli menyu xizmatidan (IVR) foydalangan shaxslarga (jumladan, Mijozga ovozli menyu xizmati (IVR) bilan taqdim etiladigan ma'lumotlarga uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishiga shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda) oshkor etilishi bo'yicha xavf va javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Mijozni Bank tomonidan autentifikatsiya qilish Mijozning mobil telefonidagi uning Arizasida ko'rsatilgan ro'yxatdan o'tgan raqamdan Ovozli menyu xizmatiga murojaat qilinganda amalga oshiriladi.

4.9.5. Uchinchi shaxslarning Ovozli menyu xizmatidan ruxsatsiz foydalanishini istisno etish maqsadida Mijoz Karta raqamiga nisbatan maxfiylikka amal qilishi va uni hech qanday holatda hech kimga oshkor qilmaslikka majburdir, zero oxirgisi Ovozli menyu xizmatining (IVR) tizimiga kirishni himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Mijoz avtomatlashtirilgan tizimga kirishga imkon beruvchi vositalar va ma'lumotlar uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishi mumkinligiga shubha qilgan taqdirda ularni o'zgartirish maqsadida zudlik bilan Bankka murojaat qilishi shart.

4.9.6. Yengib bo'lmay kuch holatlari, jumladan uchinchi shaxslar tomonidan ta'minlanadigan, yetkazib beriladigan, ekspluatatsiya qilinadigan va/yoki xizmat ko'rsatiladigan elektr energiyasi ta'minoti uskunalar, tizimlari va/yoki aloqa liniyalari yoki tarmoqlaridagi avariya, nosozliklar yoki uzilishlar sodir bo'lgan taqdirda, Bank ovozli menyu xizmatidagi (IVR) bunday avariya, nosozliklar yoki uzilishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

5.1.1. Mijozni MBX Tizimida ro'yxatdan o'tkazishda Mijozga MBX tizimiga kirish uchun Login va Parolni taqdim etish.

5.1.2. Mijoz tomonidan MBX tizimida amaliyotlarni amalga oshirish uchun mijozga Bank tarmog'ida Bir martalik parollar komplektini taqdim etish, agar mijoz Bank bo'limi orqali kunduzgi ro'yxatdan o'tishda Bir martalik parollarni olishning ushbu usulini tanlagan taqdirda.

5.1.3. Mijoz MBX tizimi sayti orqali masofadan turib ro'yxatdan o'tgan taqdirda yoki mijoz Bank bo'limi orqali kunduzgi ro'yxatdan o'tishda Bir martalik parollarni olishning ushbu usulini tanlagan taqdirda MBX tizimida amaliyotlarni amalga oshirish uchun Mijozni Bir martalik parollarni SMS yetkazib berish xizmatiga ulash.

5.1.4. Bir martalik parollarni qayta yuborish uchun SMS-xabarlardan foydalanishda mijoz Bir martalik parollar himoyalangan kanal orqali uzatilishini tushunadi, Bir martalik parollardan foydalanish xavfsizligi Bir martalik parollarni Mijoz tomonidan joriy sessiyada yaratish hisobiga, ularning cheklangan amal qilish vaqti, Bir martalik parollardan faqat joriy sessiya va Mijozning joriy elektron hujjati uchun foydalanish hisobiga amalga oshiriladi.

5.1.5. Mijozni Bank tomonidan amalga oshirilayotgan, MBX tizimi xizmatlaridan foydalanishni to'xtatishi yoki foydalanishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan texnik ishlar to'g'risida xabardor qilish.

5.1.6. Mijoz ushbu Shartnoma shartlariga, Mijoz va Bank bilan o'rtasida tuzilgan boshqa kelishuvlarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya etgan taqdirda Mijozning Elektron hujjatlarini ijro etish.

5.1.7. Elektron hujjatlarni Mijozning ma'lumotlari va hujjatlarini elektron hisobga olish jurnalida ro'yxatga olish.

5.1.8. Tariflarning o'zgarishi to'g'risida tegishli axborotni Bankning rasmiy saytida va MBX tizimida joylashtirish yo'li bilan kuchga kirish sanasidan kamida 10 kalendar kun oldin xabar berish.

5.1.9. Bankda Mijozning bank hisobraqamlariga noqonuniy kirish xavfiga shubha tug'ilgan/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablari buzilgan taqdirda Mijozni Elektron hujjatlarni qabul qilish va ishlash to'xtatilganligi to'g'risida xabardor qilish.

5.2. Bank quyidagilarga haqlidir:

5.2.1. Quyidagi hollarda Mijozni xabardor qilmasdan MBX tizimiga kirishni vaqtincha yoki to'liq to'xtatish va/yoki MBX tizimi orqali bank xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatish:

- agar Bankning fikriga ko'ra bunday chora tizimning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lsa;
- mijoz ushbu shartnoma shartlarini, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablarini buzgan taqdirda yoki O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi yoki shartnomaning potensial buzilganligiga shubha bo'lgan taqdirda;

5.2.2. Mijozning aloqa kanallaridagi xalaqitlar oqibatida shikastlangan Elektron hujjatlarni qabul qilmaslik.

5.2.3. Mijozning bank hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish xavfiga shubha tug'ilgan taqdirda, ruxsatsiz kirish bilan bog'liq barcha holatlar oydinlashgunga qadar Elektron hujjatlarni qabul qilish va ishlashni to'xtatish.

5.2.4. Amalga oshirilayotgan amaliyotning O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga mos kelishini tekshirish maqsadida mijozdan amaliyotga oid qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarni so'rab olish.

5.2.5. Mijozning MBX tizimidagi amaliyotlariga cheklovlar o'rnatish.

5.2.5. Bankda mijozning pullari va (yoki) boshqa mol-mulki bilan bog'liq amaliyotlar jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish (yuvishga) va (yoki) terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq deb taxmin qilish uchun asos bo'lgan taqdirda, ushbu Shartnomani bajarishni bir tomonlama tartibda rad etish. Bunda Bank Mijozni Shartnomani bekor qilish sanasidan kamida bir oy oldin xabardor qilgan holda, sabablarini tushuntirmasdan bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

5.3. Mijozning majburiyatlari:

5.3.1. Login va Parol/elektron kalitlarni (I-Key) begona shaxslarning yetib borishini istisno etuvchi ishonchli joyda saqlash.

5.3.2. MBX tizimi orqali uzatilgan ma'lumotlarning maxfiyligi uchun javobgar bo'lish.

5.3.3. MBX tizimiga ruxsatsiz kirish xavfi paydo bo'lganligi haqida, quyidagi hollarda har qanday mavjud usullar bilan Bankni zudlik bilan xabardor qilish: MBX tizimiga kirish paroli komprometatsiya qilingan yoki komprometatsiya qilinganligiga shubha bo'lgan taqdirda; Bir martalik parollar/elektron kalitlar (I-Key) yo'qolgan yoki ular komprometatsiya qilinganligiga shubha bo'lgan taqdirda.

5.3.4. Ushbu shartnoma va Bank Tariflari bilan nazarda tutilgan, Bankka tegishli bo'lgan barcha summalarni to'lash.

5.3.5. Mobil telefon raqami o'zgargan taqdirda zudlik bilan Bankni yozma shaklda, bo'limga ariza taqdim etish yo'li bilan yoki MBX tizimi orqali masofadan turib xabardor qilish.

5.3.6. MBX tizimiga kirish parolidan va boshqa identifikatorlardan (login, bir martalik parollar va boshqalar) faqat Shartnomaning ushbu Bo'limida ko'rsatilgan tizim manzili yoki bank veb-saytida yoki ushbu ofertada ko'rsatilgan mavjud aloqa kanallari bo'yicha foydalanish (oshkor etish).

5.3.7. Bankning so'rovi bo'yicha (yozma, og'zaki yoki kelishilgan aloqa kanali bo'yicha) mijozda elektron raqamli imzo kalitlari (I-Key), elektron raqamli imzo sertifikat (I-Key) va elektron raqamli imzo sertifikat (ye-Key) mavjudligini tasdiqlash maqsadida 1 yilda bir marta mijoz

bankka ma'lumotlarni, bankning vakiliga kalit sozlamalarini va elektron raqamli imzo sertifikatini tekshirish uchun taqdim etadi.

5.3.8. Mijoz masofaviy xizmat ko'rsatish bo'limiga murojaat qilganida, mafkura va siyosatni targ'ib etuvchi g'oyalarni hamda ig'vogarlik va xodimlarni shaxsiyatiga yo'naltirilgan so'zlarni ishlatmaydi. Agarda xodimga ushbu ta'kidlangan zararlar yetkazilsa xodim, xuquqni muhofaza qiluvchi organlarga shikoyat qilishga xaqli.

5.3.9. Mijoz, MBX tizimidan foydalanuvchi vakili o'zgargan taqdirda 3 (uch) bank ish kuni ichida ushbu ommaviy ofertada/kompleks bank xizmati shartnomasida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali Bankni xabardor qilish va tizimni yangi foydalanuvchiga faqat qonuniy hujjat (buyruq, dalolatnoma) asosida o'tkazish majburiyatini oladi.

5.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

5.4.1. Xavfsizlikni oshirish uchun MBX tizimiga kirish parolini mustaqil ravishda o'zgartirish, MBX tizimiga kirishga Bir martalik parolni olish uchun Bankka murojaat qilish. Parol Arizada ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida taqdim etiladi.

5.4.2. Bankdan Mijozga zarur bo'lgan, Bankka MBX tizimi orqali yuborilgan Elektron hujjatlarning Bank muhri bilan tasdiqlangan nusxalarini taqdim etishni talab qilish.

5.4.3. MBX tizimida amaliyotlarni avtorizatsiya qilish uchun Bir martalik parollarni olish usulini o'zgartirish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzish va bajarish bilan bog'liq ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etganlik uchun javobgar bo'ladilar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6.2. Bank Mijoz tomonidan Elektron hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi, bankka Elektron hujjatlarni uzatishning imkonsizligiga olib keluvchi internet tarmog'i va aloqa liniyalari ishidagi uzilishlar, xalaqatlar va to'siqlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3. Ushbu Shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda Bank Mijozning hisobraqamlariga ruxsatsiz kirganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

6.4. Bir martalik parollarni qayta yuborish uchun SMS-xabarlardan foydalanishda mijoz Bir martalik parollar himoyalangan kanal orqali uzatilishini tushunadi, Bir martalik parollardan foydalanish xavfsizligi Bir martalik parollarni Mijoz tomonidan joriy sessiyada yaratish hisobiga, ularning cheklangan amal qilish vaqti, Bir martalik parollardan faqat joriy sessiya va Mijozning joriy elektron hujjati uchun foydalanish hisobiga ta'minlanadi.

6.5. Xizmatlarni yetkazib beruvchilarning harakatlari yoki harakatsizligi Shartnomaning ushbu bo'limi bo'yicha majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qilib qo'ygan taqdirda Bank Mijoz oldidagi majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

6.6. Mijozning "masofadagi bank xizmatlari" dasturlari bilan ishlaydigan mas'ul shaxsi almashgan, elektron raqamli imzo kaliti (I-Key), mobil banking dasturiy ta'minoti o'rnatilgan telefon va SMS-Informator biriktirilgan telefon raqami o'zgargan, yo'qolgan, o'g'irlangan taqdirda, xizmat ko'rsatuvchi bankka xabarnoma taqdim etmaslik natijasida yuzaga kelgan holatlar uchun javobgarlik mijozning o'ziga yuklanadi.

6.7. Bank tomonidan "SMS-banking" ilovasi orqali yuborilgan ma'lumotlarning xavfsiz holatda bo'lishi, avtorlashmagan shaxslar va boshqa shaxslar tomonidan foydalanilmasligi uchun mijoz javobgar bo'ladi. Ushbu talablarning bajarilmasligi natijasida mijozning hisobraqami to'g'risidagi ma'lumotlarning uchinchi shaxslar tomonidan "SMS-banking" ilovasi orqali oshkor etilganligi uchun mijoz shaxsan javobgar bo'ladi.

7. MAXFIYLIK

7.1. Ushbu Shartnomaning, ilovalarining va qo'shimcha bitimlarining shartlari, shuningdek Shartnomaning bajarilishiga, olingan natijalarga taalluqli bo'lgan va Taraflarga ma'lum bo'lib qolgan barcha hujjatlar, ma'lumotlar va axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi lozim.

7.2. Taraflar ushbu Shartnoma munosabati bilan har bir Taraf tomonidan taqdim etilgan har qanday axborot va ma'lumotlarni sir saqlash, ushbu Shartnomaning ikkinchi Tarafining oldindan yozma rozilgisiz faktlar yoki ma'lumotlarni umuman yoki qisman, biror-bir uchinchi tarafga ochiqalmaslik va oshkor etmaslik majburiyatini oladilar.

7.3. Taraflar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish chog'ida o'zlari tomonidan olinadigan va (yoki) tuziladigan ma'lumotlar va hujjatlarning (ham yozma, ham elektron shaklda) saqlanishini ta'minlashga majburlar va ko'rsatilgan ma'lumotlar va hujjatlarni yoki ularning nusxalarini uchinchi shaxslarga berishga haqli emaslar, ma'lumotlarning/hujjatlarning (ularning nusxalarining) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va ushbu shartnomaga muvofiq ularni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga berish hollari bundan mustasno.

7.4. Maxfiy ma'lumotlarni oshkor etganlik va buning natijasida yetkazilgan zararlar uchun Taraflar yetkazilgan zararlar miqdorida javobgar bo'ladilar.

8. NIZOLARNI HAL ETISH

8.1. Ushbu Shartnomaning matnida o'z yechimini topmagan masalalar bo'yicha Taraflar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi da'vo taqdim etilgunga qadar, o'z huquqlarini buzilgan deb hisoblaydigan Taraf (bundan buyon ushbu bo'limning matnida "Manfaatdor taraf" deb yuritiladi) ikkinchi Tarafga yozma e'tiroz yuborishi shart. E'tirozda Manfaatdor tarafning talablari va ularning asoslovi ikkinchi Taraf tomonidan buzilgan qonunchilik me'yorlari va (yoki) ushbu Shartnomaning shartlari ko'rsatilgan holda bo'lishi lozim. Da'voga unda bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari ilova qilingan bo'lishi lozim. E'tirozni olgan taraf uni ko'rib chiqishi va da'vo olingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kun ichida manfaatdor tarafga asoslantirilgan yozma javob yuborishi shart. Yuqorida ko'rsatilgan muddatda javob olmagan yoki javobga rozi bo'lmagan taqdirda Manfaatdor taraf sudga murojaat qilishga haqlidir.

8.3. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan sudga tegishlilik qoidalariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

9.1. Umumiy shartlar Ushbu shartnomada ko'rsatilgan qabul qilish/imzolash uchun zarur bo'lgan harakatlar bajarilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

9.2. Umumiy shartlar Taraflar o'rtasida nomuayyan muddatga tuziladi.

9.3. Bank ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirishlar kuchga kirishidan 10 kun oldin bankning www.hamkorbank.uz saytida joylashtirish orqali bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Bunda mijoz Umumiy shartlarga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni mustaqil ravishda muntazam tekshirib borish va ular bilan tanishib borish majburiyatini oladi.

9.4. Umumiy shartlar Taraflarning kelishuviga ko'ra, shuningdek Taraflarning biri tomonidan ushbu Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

9.5. Istalgan Taraf ikkinchi Tarafni kutilayotgan bekor qilish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin avvaldan xabardor qilgan holda ushbu Shartnomani bajarishdan (shartnomani bekor qilishga) bir tomonlama tartibda bosh tortishga haqlidir.

9.6. Bunday holda, Shartnoma ushbu Shartnomaning 9.5. bandida belgilangan tartibda, tegishli xabarnoma olingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalendar kun o'tgach bekor qilingan hisoblanadi.

9.7. Ushbu Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi xabarnoma tashabbuskor Taraf tomonidan ikkinchi Tarafga qog'oz tashuvchida yoki elektron shaklda, erkin shaklda tuzilgan, yuboruvchi Tarafning ERI bilan imzolangan tegishli elektron hujjatni/hujjatning skanerlangan nusxasini elektron pochta yoki MBX tizimi orqali yuborish orqali yuborilishi mumkin.

9.8. Ushbu Shartnomaning bekor qilinishi Shartnomaning Taraflar o'rtasidagi hisob-kitoblar to'g'risidagi qoidalarini bekor qilinishiga va haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Ushbu

Shartnomaning Taraflar o'rtasidagi hisob-kitoblar to'g'risidagi qoidalari Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qilishda davom etadi.

9.9. Umumiy shartlar quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- 1) taraflarning biri Shartnomani bajarishdan bosh tortganda;
- 2) mijoz vafot etgan, muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan taqdirda (agar mijoz jismoniy shaxs bo'lsa); mijozning korxonasi tugatilganda (yuridik shaxs);
- 3) mijoz to'lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb e'tirof etilganda.

9.1. Bank quyidagi hollarda ushbu Shartnomani bajarishdan (Shartnomani bekor qilish) bir tomonlama suddan tashqari tartibda bosh tortishga haqlidir:

- 1). ushbu Shartnomada nazarda tutilgan biror-bir shart mijoz tomonidan buzilgan taqdirda;
- 2). Mijoz biror-bir noqonuniy faoliyatda ishtirok etgan yoki firibgarlikda fosh etilgan taqdirda;
- 3). Mijozning Bank haqida bila turib soxta ma'lumotlar tarqatish yo'li bilan Bankning obro'siga zarar yetkazilishiga olib kelgan harakatlari;
- 4). Mijozning ishbilarmonlik va kasb etikasi me'yorlariga amal qilmasligi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

10.2. Ushbu Shartnomaning matnida eslatiladigan barcha ilovalar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi, chunonchi:

- Hamkorbank" ATB tizimida yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmatlari ko'rsatish shartnomasiga 1-ilova;
- "“Hamkorbank” ATB tizimidagi masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishning ommaviy ofertasi”ga 1-ilova.

11. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

11.1. Taraflarga, ularning affillangan shaxslariga, xodimlariga yoki boshqa ishtirokchilarga ushbu shartnoma shartlarini bajarishda boshqa taraf tomonidan qaror qabul qilishga ta'sir etish maqsadida pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni bevosita yoki bilvosita taklif qilish, taqdim etish ta'qiqlanadi.

11.2. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda boshqa taraf tomonidan qaror qabul qilishga ta'sir etish maqsadida pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar yoki xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishlari shart.

11.3. Taraflarda ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion qilmishlarning sodir etilganligi haqida ma'lumotlar, shubha uchun asoslar, shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda, ular ikkinchi tarafni bu haqda yozma shaklda xabardor qilishlari shart.

11.4. Xabardor qilingan taraf korrupsion harakat sodir etilmasligining tasdig'i olingunga qadar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turishga haqlidir.

11.5. Taraflar boshqa tarafning vakilini, xodimini va/yoki affillangan shaxslarini pora berish orqali og'dirib olish natijasida yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladilar.

12. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

To'liq nomi: Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki.

Markaziy bankning 2021-yil 25-dekabrda 64-sonli litsenziyasi.

Yuridik manzil: 170183, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 66-uy.

E-mail: @hamkorbank.uz

Bank rekvizitlari:

STIR: 200242936

Telefonlar: 0 (800) 1 200 200; 1809 (pullik), +998 (78) 150 91 25.

“Hamkorbank” ATB tizimida masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy oferta”ga

KIRISH KODINI O‘RNATISH / O‘ZGARTIRISH UCHUN ARIZA

Ushbu ariza orqali yuridik shaxs / yakka tartibdagi tadbirkorga masofaviy xizmat ko‘rsatishda identifikatsiya qilish uchun kirish kodini o‘rnatishingizni (o‘zgartirishingizni) so‘rayman.			
Yuridik shaxs/ Yakka tartibdagi tadbirkorning nomi			
Yuridik shaxsning STIRi / Yakka tartibdagi tadbirkorning JShShIRi			
Rahbarning FIShi va lavozimi			
Hisobingizga masofaviy xizmat ko‘rsatishda bank xodimlari sizni identifikatsiya qilishi mumkin bo‘lgan kirish kodini ko‘rsating: *Lotin yozuvda, bosh harflarda, soni esa 10 tadan oshmasligi kerak. Raqamlar va belgilardan foydalanish mumkin emas			
Shu bilan Mijoz: 1) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 360, 367, 369 va 370-moddalarida nazarda tutilgan tartibda bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan "Hamkorbank" ATB tizimidagi yuridik shaxslar va boshqa tadbirkorlik subyektlariga kompleks bank xizmati ko‘rsatish shartnomasiga (keyingi o‘rinlarda "Kompleks shartnoma") qo‘shilishim to‘g‘risida MA‘LUM QILAMAN. 2) Bankning www.hamkorbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Kompleks shartnomaning barcha qoidalar/shartlari (shu jumladan, ularning barcha ilovalari va qo‘shimchalarini, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi, ma‘lumotlarni e‘lon qilish tartibi, Bankning mas‘uliyati va tariflari) menga ma‘lum va to‘liq tushuntirilganini TASDIQLAYMAN. 3) O‘zining shaxsiy ma‘lumotlarini qayta ishlash, shuningdek ularni boshqa shaxslarga o‘tkazish va qayta ishlash (“Yagona umumrespublika protsessing markazi” MChJ, “Milliy banklararo protsessing markazi” MChJ, kredit tarix byurolari, Davlat soliq qo‘mitasi hamda ma‘lumotlarni olish uchun Bank hamkorlari va davlat organlarining boshqa integratsiyalashgan ma‘lumotlar bazalari) mijoz tanlagan bank/moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga ROZILIK BERADI.			
Yuqoridagi ma‘lumotlarga asosan bank hisobraqami ochib berishingizni so‘raymiz.	Bininchi imzo: _____		
	Ikkinchi imzo: _____		
	Muxr:	Kompleks shartnomani yuklab olish uchun QR-kod:	
Hisobraqam ochish bo‘yicha hujjatlarni tekshirdim, qabul qildim va hisobraqam ochish uchun taqdim qildim	Menejer:	Imzo: _____	